

RESEARCH AND EDUCATION
Scientific Research Center

ISSN: 2181-3191

INTERNATIONAL CONFERENCE ON
EDUCATIONAL INNOVATIONS AND
APPLIED SCIENCES 2022/10

International Scientific Conference

RESEARCHEDU.ORG



PKP | INDEX



10 NOVEMBER, 2022 YEAR

“RESEARCH AND EDUCATION” Scientific Research Center



“INTERNATIONAL CONFERENCE ON EDUCATIONAL
INNOVATIONS AND APPLIED SCIENCES 2022/10”

www.researchedu.uz

Languages of publication: o‘zbek, english, русский, қазақ, тоҷик, қарақалпақ

TASHKENT, UZBEKISTAN

2022/ NOVEMBER 10

ҲАЛЛИ МУОДИЛАҲОИ КВАДРАТӢ БО ВОСИТАИ БАРНОМАИ MATHCAD

Абдурахмонова Азизахон Икромовна,

Донишкадаи кӯҳию металлургии Тоҷикистон

e-mail: aziza.tj@mail.ru

Хӯҷамов Шоқир Эрматович

Донишкадаи кӯҳию металлургии Тоҷикистон

e-mail: shokir.888@gmail.com

Аннотатсия: Раванди таълим дар мактабҳои олии мушкил ва сарпахлӯ буда, он аз омӯзиши фанҳои фундаменталӣ ва истифодаи онҳо дар амалия мебошад. Ин барои тайёр намудани мутахассисони баландихтисос нақши калонро мебозад. Барои тайёр кардани ихтисоси муҳандисӣ фанни математика яке аз фанҳои муҳим мебошад, ки он имконияти на танҳо ҳалли мисолҳои математикӣ балки роҳҳо ва воситаҳои ҳалли онҳоро меомӯзад. Бе математика ва тараққи додани таҷҳизотҳои ҳисоббарор имконияти инкишофи ҳамаи самтҳои фаъолияти инсон мумкин нест.

Калимаҳои калидӣ: Mathcad, муодилаи квадратӣ, дискриминант, операторҳои polyroots ва solve.

Abstract: The process of education in higher education is complex and varied, it consists of the study of fundamental subjects and their application in practice. It plays an important role in the training of highly qualified specialists. Mathematics is one of the most important subjects for training a specialist engineer who teaches not only the ability to solve mathematical problems, but also the ways and means of solving them. Without mathematics and the development of computer technology, the development of all other areas of human activity is impossible.

Key words: Mathcad, quadratic equation, discriminant, polyroots and solve operators.

Худи технологияи иттилоотӣ яке аз шоҳаҳои математика буда, ҳангоми тараққӣ ёфтани илми математика ба шоҳаи алоҳида ҷудо шудааст. Асоси ҳалли масъалаҳои ҷӣ муҳандисӣ ва ҷӣ иқтисодӣ, баҳисобгирию бухгалтерӣ ба тартиби алгоритми ҳалли масъалаҳои математикӣ оварда шуда, пас аз ин ҳал карда барномаашро тартиб медиҳанд, аз ҳамин сабаб нақши математика дар технологияи иттилотӣ басо зиёд аст.

Ҳалли муоидалаҳои квадратӣ бо ёрии барномаи Mathcad хеле қулай ва осон аст. Ҳангоми ворид намудани дилхоҳ масъала ё формула натиҷаи он ба таври автоматикӣ ҳисоб карда шуда, дар экран пайдо мешавад. Инчунин барои коркарди маълумотҳои матнӣ, рақамӣ, формулавӣ, графикӣ, муҳандисӣ ва функциявӣ ба истифодабаранда кӯмак мерасонад.

Муоидалаҳоро бо тарзи математикӣ ва бо воситаи барномаи математикии Mathcad дида мебароем:

Муоидалаи намуди $ax^2 + bx + c = 0$ ($a \neq 0$) муоидалаи квадратӣ номида мешавад.

Решаҳои чунин муоидалаҳо аз рӯи формулаи зерин ёфта мешаванд:

$$x_{1;2} = \frac{-b \pm \sqrt{b^2 - 4ac}}{2a}$$

Ифодаи $b^2 - 4ac = D$ **дискриминант** ном дорад.

Агар $D > 0$ бошад, онгоҳ муоидала ду решаи гуногун дорад;

агар $D = 0$ бошад, онгоҳ муоидала ду решаи якхела дорад;

агар $D < 0$ бошад, онгоҳ муоидала решаҳои ҳақиқӣ надорад.

Масалан муоидалаҳоро аз рӯи формулаи зерин дида мебароем:

$$1) x^2 + 5x - 6 = 0$$

$$\text{Ҳал: } a = 1; b = 5; c = -6$$

$$D = b^2 - 4ac = 5^2 - 4 \cdot 1 \cdot (-6) = 25 + 24 = 49 > 0, \text{ бинобар он}$$

муоидала ду решаи гуногун дорад.

$$x_{1;2} = \frac{-5 \pm \sqrt{49}}{2 \cdot 1} = \frac{-5 \pm 7}{2}$$

$$x_1 = \frac{-5+7}{2} = \frac{2}{2} = 1 \quad x_2 = \frac{-5-7}{2} = -\frac{12}{2} = -6$$

$$2) 4x^2 - 4x + 1 = 0$$

$$a = 4; b = -4; c = 1$$

$D = (-4)^2 - 4 \cdot 4 \cdot 1 = 16 - 16 = 0$; муодила ду решаи яхела дорад.

$$x_{1;2} = \frac{4 \pm \sqrt{0}}{2 \cdot 4} = \frac{4}{8} = \frac{1}{2} \text{ хамин тариқ, } x_1 = x_2 = \frac{1}{2} .$$

Ҳалли ин муодиларо акнун бо воситаи барномаи Mathcad месанҷем:

$$f(x) = ax^2 + bx + c$$


Тартиби иҷрои кор:

1. Коэффициентҳои муодиларо бо чунин тарз ворид менамоем:

$$f(x) = ax^2 + bx + c$$

2. Воридкунии матрисаи аз r -и қиммати коэффициентҳои сохташуда, ки бо тартиби баръакс навшта мешавад;


3. Функцияи polyroots барои ҳалли муодилаҳо истифода мешавад [1-2].



Расми 1. Ҳалли муодилаи квадратӣ бо оператори Polyroots

Муодилаи дуумро бо истифода аз оператори Solve дар барномаи Mathcad [3] дида мебароем:

1. Муодиларо ба барнома ворид мекунем: $4x^2 - 4x + 1 = 0$
2. Баъдан аз лавҳаи Символьные оператори Solve-ро интихоб мекунем.



Расми 2. Ҳалли муодилаи квадратӣ бо оператори Solve

Аз ин хулоса баровардан мумкин аст, ки дар замони муосир омӯзиши ҳар як фанро бе истифодаи технологияи муосир тасаввур кардан ғайриимкон аст, чунки талаботи замон ва талаботи имрӯзаи омӯзандагони илм тақозо менамоянд, ки корҳои дер иҷрошавандаю дилгиркунандаро дар мӯҳлати кам иҷро намоянд. Бинобар ҳамин барномаи Mathcad барои ҳалли мисолу масъалаҳои математикӣ, физикӣ ва муҳандисӣ хеле муфид ва осон аст.

АДАБИЁТ

1. Туев Ш.Ш., Саидов А.Қ. Дастурамал оид ба истифодаи барномаи Mathcad: Хуҷанд-2020, 120с.
2. Қумъаев К.Қ., Азизов Р.Э., Ҳафизов Ҳ.М. Асосҳои математикаи элементарӣ ва маҷмӯаи мисолу масъалаҳо: Душанбе -2007, 440с.
3. Макаров Е.Г. Инженерные расчеты в. Учебный курс.- СПб: Питер, 2005 – 448с.

YUQORI QOVUSHQOQLI OG‘IR NEFT VA TABIIY BITUM KONLARINI QAZIB CHIQRISH METODLARI

Axmedov Xolxo‘ja Raxmatullayevich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada yuqori qovushqoqli neft konlarini, shuningdek, tabiiy bitum konlarining qazib chiqarish metodlari keltirilgan. Shuni qayid qilish keraki bitum konlarini qazib chiqarish metodlari qovushqoqli neft konlarini qazib chiqarishdan farq qiladi, lekin, ba‘zi hollarda metodlarni bir nechta konlarda qo‘llash mumkin. Metodlarni tanlashda eng avval neftgazli kollektorlarning geologik-fizik xususiyati va neftga to‘yingan flyuidlarning fizik xususiyatlari ta‘sir qiladi.

Tayanch so‘zlar: yuqori qovushqoqli neft va tabiiy bitumlar, qazib chiqarishning karyerli va shaxtali usullari, mahsulot olishning “sovuq” usuli, qazib chiqarishning issiqlik metodlari, quduq tubi zonasini issiq-bug‘ bilan ishlov berish, qatlamga issiqlik tashuvchi haydash, bug‘ gravitatsiya tasir jarayoni.

Аннотация. В статье рассмотрены различные методы разработки месторождений с нефтью повышенной и высокой вязкости, а также некоторые методы разработки месторождений природных битумов. Следует отметить то, что методы разработки битумных месторождений могут существенно отличаться от методов разработки месторождений вязких нефтей, но в некоторых случаях методы могут быть применимы как к одним, так и к другим месторождениям. На выбор метода главным образом влияют геолого-физические свойства нефтесодержащих коллекторов и физические свойства насыщающего флюида.

Ключевые слова: высоковязкие нефти и природные битумы; карьерный и шахтный способы разработки; «холодные» способы добычи; тепловые методы разработки; паротепловые обработки призабойных зон скважин; закачка в пласт теплоносителя; процесс парогравитационного воздействия.

Annotation. The article considers various methods for developing deposits with high and high viscosity oil, as well as some methods for developing natural bitumen deposits. It should be noted that methods for the development of bitumen deposits may differ significantly from methods for developing viscous oil fields, but in some cases methods can be applied to both one and the other fields. The choice of the method is mainly influenced by the geological and physical properties of the oil containing reservoirs and the physical properties of the saturating fluid.

Keywords: high viscosity oils and natural bitumen; career and mining methods of development; «cold» ways of extraction; thermal methods of development; steamheat treatment of bottomhole well zones; injection into the reservoir of the coolant; process of the steam and gravitational effect.

Neft konlarini qazib chiqarishning issiqlik metodi turlicha ko‘rinishdagi ikkita prinsipga bo‘linadi. Birinchi, qatlam ichi yonish jarayoniga asoslangan bo‘lib, damlovchi quduqlarning quduq tubi zonasida koksli qoldiqlarning yonishini ta‘minlash yo‘li bilan vujudga keltiriladi (odatda TEN turidagi –quduq tubinini qizdiradigan qurulmadan foydalaniladi), bunda damlovchi quduqlar orqali havo (quruq yong‘in uchun) yoki havo va suv (nam yong‘in uchun) hadash yo‘li bilan yong‘in fronti ko‘chiriladi. Ikkinchi, chet elda ko‘p qo‘llaniladigan ko‘rinishi bu neftli qatlamda issiqlik tashuvchi haydashga (yer yuzasidan) asoslangan [1].

Mazkur metodlar qatlamga kislorod (havo) haydalganda uning qatlamdagi neft bilan reaksiyaga kirishishi natijasida katta miqdorda issiqlik (qatlam ichra yonish) ajralib chiqishiga asoslangan. Bu metodlar quduq tubida neftning yonishi natijasida to‘plangan issiqlikning qatlam ichiga siljishidan mahsuldor qatlamda issiqlik to‘planishiga asoslanadi. Qatlamga haydalgan havo yonish zonasini qatlam ichra harakatlantiradi. Neft uyumlarini ishlatishda quyidagi metodlardan foydalaniladi [2]:

1. To‘g‘ri yo‘nalgan «quruq» yonish, havo haydaladigan quduq tubida neft yondiriladi va yonish zonasi haydalayotgan havo bilan aralashib, suyuqlik chiqarib olish qudug‘i tomon siljiydi;

To‘g‘ri yo‘nalgan nam yonish yoki o‘rta nam yonish, bunda qatlamga ma‘lum bir nisbatda havo va suv haydaladi. Natijada yonish fronti oldida qaynoq suv hoshiyasi hosil bo‘ladi, ya‘ni yonish fronti oldidagi zonaga issiqlik kirib keladi, bu o‘z navbatida haydalayotgan havo sarfini keskin kamaytirgan holda neftni chiqarib olish koeffitsientining ortishiga olib keladi.

Ikkinchi jarayon nisbatan samarali hisoblanadi. Bunda ham neftni siqib chiqarishda qatlamga bug‘ haydalgandagi kabi hamma omillardan foydalaniladi, bundan tashqari bu jarayonga xos bo‘lgan qo‘shimcha omillar (karbonat angidrid gazining suv bilan aralashmasi, sirt-faol moddalar va b. yordamida neftni siqib chiqarish) ham qo‘llaniladi.

Qatlam qanchalik katta chuqurlikda yotsa, havoni haydash bosimi ham shunchalik yuqori bo‘ladi, shu sababli yuqori bosimli kompressorlardan foydalaniladi. Bu metoddan foydalanishda 1500-2000 m chuqurlikdagi uyumlarni tanlash ijobiy natija beradi. Uyumdagi qatlamning qovushqoqligi 10 dan 1000 mPa·s bo‘lganda ham bunday metodlardan foydalanish mumkin. Bunday neftlar tarkibida og‘ir fraksiyalari miqdori ko‘p bo‘lib, yonish jarayonida yoqilg‘i vazifasini o‘taydi. Yonish jarayonining texnologik imkoniyatlariga va iqtisodiy ko‘rsatkichlariga ko‘ra uni jins o‘tkazuvchanligi 0,1 mkm² dan katta va neftga to‘yinganligi 30-35% dan yuqori bo‘lganda qo‘llash tavsiya etiladi.

Neftni bug‘ yordamida siqib chiqarish. Yuqori qovushqoqlikka – 40-50 mPa·s ega bo‘lgan uyumlarni ishlatishga asoslangan metod bo‘lib, oddiy suv bostirish metodidan foydalanib bo‘lmaydigan hollarda qo‘llaniladi. Sobiq Ittifoqda va O‘zbekistonda qatlamga suv bostirish bilan birga bug‘ ham yuborib ta’sir etish jarayoni nazariy jihatdan asoslangan. Qatlamga yuborilayotgan bug‘ uyum bo‘shlig‘i hajmining 20-30% ni egallab, unda yuqori haroratli hoshiya hosil qiladi va qatlamga haydalayotgan suv bilan aralashadi. Ushbu metodni qo‘llash natijasida neftni chiqarib olish koeffitsienti miqdori 0,4-0,6 va undan yuqoriroq bo‘ladi.

Ushbu metod samarasi qatlam nefti qovushqoqligining pasayishida, bug‘ tarqalgan zonada neftning tozalanishida, jins-kollektorlar g‘ovaklari devoriga yopishgan smola, asfaltenlar va boshqalarning erishi va oqizib ketilishida ko‘rinadi.

Kon-geologik tavsifiga ko‘ra, ushbu metodni qo‘llash mumkin bo‘lgan uyumlarni tanlashda birinchi navbatda bug‘ quduqda, so‘ngra qatlamda harakatlanayotganda kam yo‘qolishi hisobga olinadi. Bu metoddan qatlamning yotish chuqurligi 1000 m gacha bo‘lganda foydalanish samarali hisoblanadi, chunki chuqurlik qanchalik katta bo‘lsa, issiqlikning yo‘qolishi ham shuncha ko‘p bo‘ladi. Neftga to‘yingan qatlamning qalinligi 10-40 m bo‘lsagina metod naf beradi. Agar qalinlik kam bo‘lsa, mahsuldor qatlamning ustidagi va ostidagi qatlamlarga issiq o‘tib ketishi mumkin.

Neftga to‘yingan qatlamning qalinligi juda katta bo‘lsa, issiqlik bilan uning bir qismigina qamrab olinishi mumkin, bunday hollarda qatlam obyektlarga ajratiladi. Jinslarning kollektorlik xususiyatlari yuqori (g‘ovaklilik koeffitsienti 0,2% dan yuqori, o‘tkazuvchanligi 0,5 mkm² dan katta) bo‘lganda metoddan foydalanish foydali hisoblanadi, chunki bunday hollarda mahsuldor qatlam jinslarini qizdirishga issiqlik kam sarflanadi. Boshlang‘ich neftga to‘yinganligi yuqori bo‘lgan uyumlarni ishlatishda bu jarayon yaxshi samara beradi, chunki qatlamdagi suvlarni qizdirishga juda oz issiqlik sarflanadi.

Jins kollektorlarning turg‘unligi past bo‘lsa, qatlamga bug‘ haydalganda uni buzib yuborishi, natijada jins zarralari suyuqlik chiqaruvchi quduqlardan yer yuzasiga chiqishi hamda qatlamdagi gil jinslarning bo‘kishi natijasida g‘ovaklar o‘lchami kamayishi va o‘z navbatida o‘tkazuvchanligi pasayishi mumkin. Shu sababli obyektlarni tanlashda qatlamdagi jinslar turg‘unligi yuqori, gilliligi (10% dan) kam bo‘lgani maqul. Metodni qo‘llashga eng qulayi monominerali kvartslı qumtoshlar, kamroq qulayi polimiktli (gil jinslar bo‘laklari bo‘lgan) qumtoshlar hisoblanadi. Metodni qo‘llash quduqlar oralig‘i 200-300 m bo‘lganda samara beradi.

Qaynoq suv yordamida neftni siqib chiqarish. Bu metod yuqori qovushqoqlikka ega bo‘lagan neft uyumlarini ishlatishda, shuningdek, yuqori parafinli neft uyumlaridan neft chiqarib olish koeffitsientini oshirishda qo‘llaniladi.

Bu metodda ham neftni chiqarib olish koeffitsientini oshirishda qatlamga bug‘ haydash metodida qayd qilingan omillardan foydalaniladi. Lekin qaynoq suv yordamida qatlamdan neftni siqib chiqarish metodi kam samarali bo‘lib, qatlamni qizdirishga juda katta miqdorda suv haydashni talab qiladi. Qatlamning qizish zonasi neftni siqib chiqarish frontidan kechikkanligi sababli mahsuldor qatlamga undagi bo‘shliq hajmidan 3-4 marta ko‘p hajmdagi qaynoq suv haydaladi.

Ushbu metod uyumni ishlatish chog‘idagi temperaturaning ozgina pasayishi natijasida qatlamda parafinning cho‘kishi va jins g‘ovaklarining bekilib qolishi mumkin bo‘lgan sharoitlarda qo‘llaniladi. Parafinning cho‘kishining oldini olish maqsadida temperaturasi qatlam temperaturasidan yuqori bo‘lgan qaynoq suv qatlamga haydaladi (suv quduq tubiga etib borguncha temperaturasining yo‘qotishi hisobga olinadi).

Shuningdek, obyektlarni tanlashda xuddi qatlamga bug‘ haydashdagi kabi qaynoq suv haydashda ham quduqda va qatlamda issiqlik yo‘qotilishi hisobga olinadi [1].

Shunday qilib, yuqori qovushqoqli neft va tabiiy bitum zaxiralari ananaviy kichik va o‘rta qovushqoqlikga ega bo‘lgan neft zaxiralari nisbatan bir qancha katta bo‘lib, dunyoda qazib olish murakkab bo‘lgan xomashyo konlari keng tarqalgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://studfile.net/preview/9737802/page:4/-шахтный>
2. Ergashev Y., Qodirov A., Xalimatov I. Neft va gaz kon geologiyasi. Darslik. Toshkent, 2006.
3. <https://magazine.neftegaz.ru/articles/aktualno/551452-vysokovyazkie-nefti-i-prirodnye-bitumy-gosudarstvennoe-uchastie-v-povyshenii-effektivnosti-razrabotk/>
4. Xalimatov I.X., Axmedov X.R., Babalov J.Q. Neft va gaz resurslari va zaxiralarini hisoblash, darslik, qarshi, “INTELLEKT” nashriyoti 2021y.

ФАРҒОНА ТОҒЛАРАРО БОТИҚЛИГИНИНГ СТРАТИГРАФИК ТУЗИЛИШИ

Панжиев Ҳикмат Аҳадиллаевич

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти

E-mail: hikmat.panjiyev02@mail.ru

Аннотация: Мақолада Фарғона ботиқлигининг жануби-шарқий қисмининг геологик тузилиши ёритилган. Фарғона ботиқлигининг жануби-ғарбий қисмларида –юра, бўр, палеоген, неоген ва тўртламчи давр ётқизиклари шаклланган. Фарғона ботиқлигининг палеонтологик жихатдан яхши ўрганилган ва майдонда фауна флора қолдиқлари аниқланган.

Калит сўзлар: Фарғона ботиқлиги, палеозой, платформа, юра, бўр, свети, ярус, эйфел, живут, антиклинал, синклинал.

Abstract: The article describes the geological structure of the southeastern part of the Fergana basin. Jurassic, Cretaceous, Paleogene, Neogene and Quaternary deposits were formed in the southwestern parts of the Fergana basin. The Fergana basin has been well studied from the paleontological point of view, and fauna and flora remains have been identified in the area.

Keywords: Fergana depression, Paleozoic, platform, Jurassic, Cretaceous, sveti, layer, Eifel, Jivut, anticlinal, synclinal.

Фарғона тоғлараро ботиқлигида асосан иккита йирик стратиграфик комплекс ажратилади: бурмали асосга кирувчи палеозой ва мезо-кайнозой чўкинди қопламаси.

Палеозой (Pz)

Палеозой ётқизиклари Фарғона водийсида Чотқол, Қурама, Фарғона, Олой ва Туркистон тоғ тизмаларида очилмалар ҳолида ер юзасига чиқиб туради.

Палеозой ётқизиқлари кўплаб майдонларида бурғи қудуқлари билан очилган. Улар конгломерат, қумтош, гил ва кўмир қатламчалари бўлган гравелитлар билан тасвирланган..

Андижон тузилмалар гуруҳи майдонларида палеозой ётқизиқларида углеводород уюмлари аниқланган.

Мезозой (Mz)

Юра (J). Юра ётқизиқлари палеозой ётқизиқларига бурчакли номувофиқлик билан ётади.

Юра ҳосилалари жанубий ёнбағрнинг кўплаб майдонларида бурғи қудуқлари билан очилган. Улар конгломерат, қумтош, гил ва кўмир қатламчалари бўлган гравелитлар билан тасвирланган.

Юра ётқизиқлари кесимда уч бўлимга ажратилади:

Қуйи юра (лейас). Қуйи юра ётқизиқлари асосида базаль қатламини ҳосил қилувчи дағал бўлакли жинслар – гравелитлар ҳамда қумтошлар ётади. Шураб майдонидан шарққа томон бу ётқизиқларнинг миқдори камайиб, гиллилик ошиб боради. Уларнинг қалинлиги 120-130м га тенг.

Ўрта юра (доггер). Ўрта юра ётқизиқлари нисбатан кенг тарқалган. Улар ботиқликнинг тоғ олди ҳудудларида ривожланган ҳамда кўплаб бурғи қудуқларида (Нефтибод, Полвонтош ва бошқалар) очилган. Улар асосан конгломератлар, гиллар, қумтош-гили хосилалардан ташкил топган бўлиб, кўмир қатламчалари ҳам учраб туради. Уларнинг қалинлиги 70дан 240м гача ўзгариб туради.

Юқори юра (мальм). Юқори юра ётқизиқлари асосан гравелит, конгломерат ва қумтош қатламли гиллардан иборат бўлиб, мергел қатламчалари ҳам учраб туради. Уларнинг қалинлиги 50-100м.

Юра кесимида потенциал-маҳсулдор горизонтлар (XXIII-XXXI) қатори ажратилади. Уларнинг нефтгаздорлиги 7 та майдонда исботланган. Улар Фарғона ботиқлиги Жанубий поғонасининг жануби-шарқий қисмларида ва

марказида жойлашган (Полвонтош, Жан. Оламушук ва бошқалар). Юра даври ётқизикларининг қалинлиги 250м дан 535м гача ўзгаради.

Бўр (К). Бўр ётқизиклари асосан водийнинг шарқий, жануби-шарқий ва жанубий қисмларида кенг тарқалган. Бўр ётқизиклари неоком-апт, қуйи альб, юқори альб, сеноман, қуйи турон, юқори турон-сенон ва сенон свиталаридан иборат.

Бўр даврининг қуйи бўлими мергел, гил, қумтош ва гипс қатламчали майда шағалли конгломератлар билан тасвирланган. Қумтошлар пачкаси XIX, XX, XXIGоризонтлар ва конгломератлар XXIIгоризонт сифатида ажратилади. Уларнинг қалинлиги 5-300м.

Юқори бўр ётқизиклари кўпинча терриген, озгина денгиз, лагуна ва континентал шароитда ҳосил бўлган карбонат ва галоген жинслари билан тасвирланган. Калачин (қалинлиги 5-480м гача ўзгаради) свитасида қизил рангли, ҳар хил донали қумтош ва алевролит қатламчалари бўлган майда шағалли конгломератлар ривожланган. Юқорироқда кесим кулранг қумтошлар билан (яловач свитаси) мураккаблашган. Чўкинди ҳосил бўлишининг денгиз турига тўғри келувчи устрич свитаси (қалинлиги 30-40м) яшил гил, мергел, чиғаноқ оҳактошлар билан тасвирланган. Қатламларда бир-биридан турли қалинликдаги қизил гиллар билан ажралиб турувчи 5 та горизонт (XI, XII, XIII, XIV, XV) ажратилади. Бўр ётқизикларининг умумий қалинлиги 350м дан 690м гача ўзгаради.

Бўр ётқизикларига 12 та маҳсулдор қатламлар (XXII-XI) боғланган, улардан XXII-XVIII горизонтлари қуйи бўр хосилаларига тўғри келади. УВ уюмлари бўр ётқизикларида 10 та майдонда (умумий сони 28 та) аниқланган, улар Фарғона ботиқлигининг маркази ва жануби-шарқий қисмларида жойлашган (Хўжаосмон, Полвонтош, Оламушук ва бошқалар).

Кайнозой (Kz)

Денгиз шароитида ҳосил бўлган палеоген ҳамда континентал шароитда ҳосил бўлган неоген ётқизикларидан ташкил топувчи кайнозой ётқизиклари

кўплаб чуқур қидирув-разведкали бурғилаш ва геофизик усуллар билан яхши ўрганилган.

Палеоген (P). Палеоген ётқизиқлари қалинлиги ва литологик таркиби бўйича бир-биридан фарқланувчи бухоро, сузак, олой, туркистон, риштон, исфара, хонабод ва сумсар қатламларига ажратилади.

Палеоген кесимида карбонатларнинг миқдори камайиб, гиллилик эса ошиб боради. Умумий қалинлиги жануби-шарққа қараб ошиб боради. Палеоген ётқизиқлари асосан денгиз ва лагуна хосилалари билан мураккаблашган. Қуйи бўлим (палеоцен-бухоро қатлами) гипс, қумтош қатламчали гиллар билан (IX қатлам) тасвирланган ва кесим доломитлашган оҳактошлар билан (VIII) тугайди. Ўрта бўлим (эоцен) гипс қатламчалари бўлган қумтошли гиллар билан (сузак қатлами) мураккаблашган, юқорироқда мергел ва чиғаноқ қатламчали яшил гиллар (олой қатлами) ётади, кейинроқ оҳакли қумтош қатламчали оҳактошлар (VII қатлам) ётади. Туркистон қатлами ўрта қисмида (V қатлам) оҳактош қатламчали гиллар билан тасвирланган, унинг қуйисида эса карбонат-гилли пачка (VI қатлам) ётади. Риштон қатламининг юқори қисми оҳактош, мергел ва гилларнинг алмашилиб ётиши билан (IV қатлам) тасвирланган, юқори қисмида эса гилли хосилалар ётади.

Неоген (N) системаси массагет ва сўх-бақтрия ярусларидан ташкил топган. Массагет ҳосилалари асосан гиллар, қумтошлар ва алевролитлардан иборат. Унинг қалинлиги 2400-3000м ни ташкил этади. Кесманинг юқори қисмида, бақтрия ярусидан алевролит, гил, турли донадорликдаги қумтошлар қатламчалари бўлган йирик бўлакли материаллар устунлик қилади. Бақтрия ётқизиқлари Сўх свитаси хосилаларидан ажратилмаган бўлиб, конгломератлар, галечниклар, гил қатламчаларига эга бўлган қумтошлардан иборат. Сўх-бақтрия сериясининг умумий қалинлиги 3000м дан юқори.

Тўртламчи (Q)давр ётқизиқлари қадимги тўртламчи (Сўх) комплекси ва замонавий ҳосилалардан иборат бўлиб, асосан дарёлар водийлари, сойлар ўзанлари ва жарликлар бўйлаб ривожланган. Ушбу ётқизиқлар асосан лёсс,

лёссимон суглинкалар ва галечниклардан иборат. Комплекс қалинлиги 0 дан 1500м гача бўлган кенг микдорда ўзгариб туради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Урманов А.Х.: «Андижанская отчёт». АО «Узбекгеофизика», Филиал «ФГЭ» Коканд 2011г.
2. С.А. Каримова: “Отчет о поисковых и поисково-детальных сейсморазведочных работах МОГТ-2Д в пределах Южной ступени и в Южном переходном поясе Ферганской впадины”, выполненных в 2006-2009гг. Западно-Палванташская с/п № 07/06-09.Коканд, Фонды ФГЭ, 2009г.
3. М.С. Абдуллаев: “Отчет о поисковых и детальных сейсморазведочных работахМОГТ-2Д на Южном борту Ферганской впадины”, выполненных в 2006-2009гг.Чимионской с/п № 08/06-09.Коканд, Фонды ФГЭ, 2009г.
4. Ахмедов, Х. Р., Панжиев, Х. А., & Эшмуродов, А. П. (2021). Строение юрско-меловых отложений центральной части бухаро-хивинского нефтегазоносного бассейна. *StudNet*, 4(5).

ANALYSIS OF SOIL NEMATODES OF PLANTATIONS GROWN IN MELILOTUS OFFICINALIS DESCR.

Sharipbayeva Y.M., Askarova M.R.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Email: muzaffarovnayulduz@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Лекарственные растения являются основным сырьем для фармацевтической промышленности. Изучение почвенной фауны, состава почв и правильная организация оптимальных почвенных условий для растений являются важными факторами получения высоких урожаев для фармакологии от различных видов лекарственных растений. Лекарственные травы (*Melilotus Officinalis* Descr.) используются в медицине как смягчающее и смягчающее действие (рассасывание ран). На плантациях, засаженных *Melilotus Officinalis* Descr. , различные микроорганизмы, бактерии и почвенные нематоды оказывают существенное влияние на рост, развитие и урожайность растений. *Melilotus Officinalis* Descr. в окультуренных полевых почвах в фауне нематод преобладают корни растений и нематоды, обитающие в почве вокруг корней.

Ключевое слова: нематоды, почва, лекарственные растения, сапробионты, сельское хозяйство.

ANNOTATION

Medicinal plants are the main raw material for the pharmaceutical industry. The study of soil fauna, soil composition, and the proper organization of optimal soil conditions for plants are important factors in obtaining high yields for pharmacology from various types of medicinal plants. Medicinal herbs (*Melilotus Officinalis* Descr.) Are used in medicine as a emollient and effects (wound absorption). In the plantations

planted in *Melilotus Officinalis* Descr., various microorganisms, bacteria and soil nematodes have a significant impact on plant growth, development and yield. *Melilotus Officinalis* Descr. in cultivated field soils, the nematode fauna is dominated by plant roots and nematodes found in the soil around the roots.

Key words: nematodes, soil, medicinal plants, saprobionts, agriculture.

According to the data of the World Health Organization, 60% of the available medicines are preparations obtained from the raw materials of medicinal plants. Currently, 112 types of medicinal plants are used in official medicine in the Republic of Uzbekistan, and 80% of these medicinal plants are naturally growing plants. Medicinal plants growing naturally have a limited supply of raw materials, and their protection, study of their bioecological properties, proper use of raw materials and development of scientifically based methods of reproduction are considered urgent issues. It is an important issue to study the soil fauna of fields planted with medicinal crops.

Material and method. Parasitologist use different methods to extraction nematodes from soil and plants. Plant parasites are not only found in roots but also in tubers, bulbs, stems, leaves, and seeds. There are Baermann funnel method, Funnel spray method, Blender nematode filter method. The Baermann funnel is used for extraction of nematodes from plant material and soil. Baerman funnel method has advantages and disadvantages. In the experiment, the soil was taken from the Medicinal Plant Garden, Khiva, Khorezm Region. Firstly, a soil sample was taken from the four corners and the middle of the place where *Melilotus Officinalis* Descr was planted. *Melilotus Officinalis* Descr. planted soil was digged in 3 different sizes (0-20 cm, 20-40 cm, 40-60 cm). And than soil samples were measured from 10 gr. Secondly, the funnel placed and filled it with water until it reaches up to ± 1 cm below the rim. Next, we hang the soil the cheesecloth with the sample in the funnel so that the sample is totally submerged, without touching the bottom of the funnel. Samples for nematode extraction were kept in nesting for about 24-48 hours. And than the

sedimented nematodes were transferred to 4-5% formalin to preserve the original. Glass test tube was filled with 40% formalin, and the tube was reached with the collection of nematodes collected before the clamp. Labels with information about the samples collected in the test tubes were removed and closed with a plastic cap. Nematodes were placed under a microscope with an entomological gripper. Finally, structure and classification of nematodes were studied.

Results. 34 species belonging to 11 families, 28 genera nematodes isolation of *Melilotus Officinalis* Descr. nematodes from in experiment. Based on the ecological classification of A.A.Paramonov and in addition to it, based on the systematics of O.Z.Metlitsky , T.V.Volkova phytonematodes of medicinal plants were divided into the following 4 groups: pararhizobionts, eusaprobionts, devisaprobionts and phytoelmints. Pararizobionts or phytonematodes around the root divided classification of nematodes into ecological groups based on the types of damage caused to plants.Live in the soil around the nematodes were assoiated with the plant root system. Phytonematodes were eaten plant juice with stilet.

Conclusion.*Ditylenchus dipsaci*, *Pratylenchus pratensis*, *Helicotylencus multicinctus*, *Paratylenchus hamatus* isolated from soil *Melilotus Officinalis* Descr. There are parasitic nematodes and widespread in cultivated areas.

References.

1. Azizova E.P., Abduraxmonova G. Нематоды плодовых деревьев Паркентского района //scientific practical conference. Самарқанд, 2005, page.10
2. Азизова Э.П., Сиддиков Д.Г., Эшова Х.С., Ибрагимов К.С. Распространение паразитических нематод вирусоносителей рода *Xiphinema* в различных ландшафтах Узбекистана. // Основные достижения и перспективы развития паразитологии. М. , 2003, с.50-51.
3. Азизова Э.П. , Абдурахманова Г.А. Нематоды плодовых деревьев Паркентского района // scientific practical conference. Самарқанд, 2005, page 20-24.
4. Бабьева И.Т., Зенова Г.М. Биология почв. М.:1983. Page.106.
5. Murdaxayev Y.M. Medical plants in Uzbekistan, Tashkent , 1990.

JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT

Erkinboyeva Norgul Barot qizi

Buxoro viloyat Kogon tuman

18-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yurtimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom va barkamol insonlar etib voyaga yetkazish, ma'naviy yot g'oyalar ta'siridan sog'lom mafkuraviy immunitetni hosil qilish va sog'lom ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishda ma'rifatning o'рни, ahamiyati qanchalik muhim va bugungi davr uchun dolzarbligi tahlil qilingan, Shuningdek, maqolada yoshlarimiz qalbida Vatanga muhabbat, buyuk tariximizga, milliy urf-odatlarimizga hurmat singari fazilatlarni shakllantirish orqali jaholatga qarshi kurashish imunitetini kuchaytirish borasida tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ma'rifat, jaholat, urf-odat, qadriyat, diniy bag'rikenglik, insonparvarlik, dunyoqarash, globallashuv, madaniyat.

O'tmishdan ma'lumki, har bir inson qalbida o'z yurtiga sadoqat, fidoiy bo'lish tuyg'usi vatanparvarlikning oliy nishonasi hisoblanadi. Zero, inson uchun eng aziz va muqaddas bo'lgan Vatanni himoya etish, uni sevish va e'zozlash har bir insondan buyuk ma'naviy jasoratni talab etadi. Inson ma'naviyatga qarshi qaratilgan jaholat g'afolatga, loqaydlik esa beparvolikka giriftor etadi. Natijada, mazkur holat insonni vatan taqdiriga nisbatan daxldorlik tuyg'usini yo'qotish orqali uni ma'naviyatini so'ndirishga zamin yaratadi¹. Mana shunday bir sharoitda har jabhada ma'naviyat va ma'rifatga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun oddiygina informatsiya orqali odamlar ongini zaharlash va boshqarishning yangi usullari ko'payib

¹ Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari. Mualliflar: O. Musurmonova, R. Qo'chiqorova, M. Qarshiboyev. T. : "Ma'naviyat", 2007.

bormoqda.internet va ijtimoy tarmoqlar esa bunda mafkuraviy qurol vazifasini o‘taydi.Nosog‘lom axborot tarqatish oqibatida urush nuqtalari paydo bo‘ladi.Shuning uchun ham tinchlikni saqlab qolish,osuda kunlarning qadriga yetishda aynan ma‘rifat bilan ziyo nuri tarqatish bugunning dolzarb masalasidir.Mana shunday yot g‘oyalardan biz yoshlar ma‘rifat bilangina himoyalanamiz.Jaholat nafaqat diniy shaklda,balki dunyoviy ko‘rinishda ham namoyon bo‘ladi.Bunday illatlarga qarshi ma‘rifat asosida kurash olib boorish,ma‘naviyat masalasi o‘zbekistonlik barcha sog‘lom fikrli kishilarning vijdon ishiga aylanishini davr taqozo etmoqda.²Zero,ma‘rifat bashariyat faravonligining asosiy omilidir.Shu bois,inson ma‘naviy olami,xalqimiz madaniyatini belgilaydiga manbalarni asrab-avaylash va boyitish hamda jahon ilm-fani yutuqlari asosida yovuz,buzg‘unchi g‘oyalarlarga qarshi ma‘rifat bilan kurash olib borish lozim.

Yosh avlodni turli ma‘naviy tajovuzlardan himoya qilish haqida gapirganda,nafaqat xalqimizni ulug‘laydigan buyuk xususiyatlar,ayni paytda uning rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan,eski zamonlardan qolib kelayotgan noma‘qul odatlar haqida ham ochiq so‘z yuritishimiz zarur.Ayniqsa,bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash,ularning ustuvor yo‘nalishlarini,kimga va nimaga qaratilganini aniqlash,aholi turli qatlamlariga ta‘sirini o‘rganish,milliy manfaatlarimizga,hayot tarzimizga zid bo‘lgan zararli g‘oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog‘lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi.So‘nggi yillarda tobora kuchayib, dunyo ahlini tashvishga solayotgan terrorizm va ekstremizm tahdidlari mohiyatini jaholat va murosasizlik tashkil etib, bunday o‘ta xavfli illatga qarshi kuch ishlatish yo‘li bilan emas, balki boshqa omillar bilan kurashish va ildizini qirqishga, birinchi navbatda, yoshlarning ong va tafakkurini ma‘rifat asosida shakllantirish orqali kuchli immunitet yaratish zarurligi globallashuv asrining asosiy g‘oyalaridan biri.

² Mirziyoyev, Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: Ozbekiston, . 2017

Mamlakatimizda “Jaholatga qarshi – ma’rifat” degan ezgu g’oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do’stlik kabi oliyjanob maqsadlarga xizmat qilishini targ’ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri. Darhaqiqat, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida diniy qadriyatlarni e’zozlash, islomning chinakam taraqqiyot, ilm-ma’rifat dini ekanini xalqimiz, ayniqsa, ertangi kunimiz bo‘lgan yoshlarimizga yetkazib berishga qaratilgan tizimli, salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Islom dini insoniyatni ezgulikka boshlaydi.³ Haqiqiy musulmon, hadisi shariflarda ta’kidlanganidek, o‘zgalarga ozor bermaydigan, o‘zidan yaxshilik, ilm-ma’rifat, hidoyat taratadigan insondir. Mazkur haqiqat bugun butun dunyo hamjamiyati anglashi, bag‘rikenglik va ahillikni hayotiy mezon sifatida qabul qilishi lozim bo‘lgan dolzarb masala hisoblanadi. Biz yosh avlod tinch va osoyishta yurtimizning har bir ne’matidan oqilona foydalanishimiz, ozod o‘lkamizning gullab-yashnashiga o‘z hissamizni qo‘shish uchun jaholat kabi yot illatlarga ma’rifat bilan kurashib, har qadamda ogohlikka barchani da’vat qilmog‘imiz kerak.

Maqola yakunida shuni aytish mumkinki, xushyor va ogoh bo‘lib yashash hamda loqayd bo‘lmaslik bizning fuqarolik burchimiz. Inson o‘zini anglashi, atrofda voqea-hodisalarga befarq bo‘lmasdan dunyoviy va diniy bilimlarni chuqur o‘rganishi zarur. Mana shundagina har bir jamiyat taraqqiy qiladi, rivojlanadi. Jamiyatda sog‘lom muhit hukm suradi.

³ I. A. Karimov "Yuksak-ma'naviyat yengilmas kuch" T. : "Ma'naviyat", 2008.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: Ozbekiston, . 2017
2. I. A. Karimov "Yuksak-ma'naviyat yengilmas kuch" T. : "Ma'naviyat", 2008.
3. Odilov F. Axloqiy ong va ijtimoiy taraqqiyot. «Guliston», 1997,
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" T. : Davlat ilmiy nashiryoti, 2003.
5. Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari. Mualliflar: O. Musurmonova, R. Qo'chiqorova, M. Qarshiboyev. T. : "Ma'naviyat", 2007.
6. Abdurasulov, R. (2022). ПСИХОЛОГИЯДА СПОРТЧИ ШАХСИ ХАРАКТЕРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5110>
7. Rustam Abdurasulov, ШАХСНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ШАРҚ ЯККАКУРАШИ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ - ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ , Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 2 (2021): Журнал педагогика и психологии в современном образовании

QALQONSIMON BEZ O‘ZGARISHI NATIJASIDA KELIB CHIQUADIGAN KASALLIKLAR

Sharipbayeva Yulduz Muzafarovna

Saxaddinova O‘lmasoy Muxiddinovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Email: saxadinovaolmasoy@gmail.com

Annotatsiya: Endokrinologiya kasalligi qalqonsimon bez bo‘lib, uning garmonal ishi buzilsa soch to‘kilishi, tirnoq sinishi, semizlik, ozib ketish, stress, bepushtlik, xotiraning susayishi, ko‘z soqqasining kengayishi kuzatiladi. Endokrinologiya kasalligi yuzaga kelmasligi uchun hozirda respublika bo‘yicha 102 ta yodlangan osh tuzini ishlab chiqarish va qadoqlash korxonasi, sexlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Hududlarda endokrinologiya dispanserlarini zarur reaktivlar bilan taminlash yo‘li endokrinologik kasalliklarning zamonaviy diagnostika usuli ishlab chiqildi.

Kalit sozlar: Endokrinologiya, Buqoq kasallik, simptom, yod tanqisligi, bez, garmon, organizim.

Diseases caused by change of the thyroig gland

Abstract: Thyroid disease is an endocrinological disease, and if its hormonal function is disturbed, hair loss, nail breakage, obesity, weight loss stress, infertility, memory loss, and eyelid enlargement are observed. In order to prevent endocrinological diseases, 102 production and packaging enterprises and workshops of iodized table salt are established across the country. A modern diagnostic method of endocrinological diseases was developed by supplying endocrinology dispensaries with necessary reagents in the regions.

Key words: Endocrinology, goiter disease, symptom, iodine deficiency, gland, hormone, organism.

Qalqonsimon bez — odam va hayvonlarning ichki sekretiya bezi. Qalqonsimon bezning rivojlanishi homilalik davrida boshlanib, bola 1 yoshga yetganda uning vazni 1—2 g ni tashkil etadi, o‘shish jarayonida u kattalashib 15—20 g gacha yetadi. Qalqonsimon bez embrion jabra xaltachasi epiteliysidan rivojlanadi. Qalqonsimon bez odam embrioni taraqqiyotining 8—9 oyida to‘liq shakllanib, gormon ajrata boshlaydi, u bo‘yinda, hiqildoq tog‘aylari sohasida joylashgan; 2 palla va bo‘yinchadan iborat. Qalqonsimon bezni bir juft yuqori va bir juft pastki arteriyalar qon bilan ta‘minlaydi, simpatik va parasimpatik nerv tolalari innervatsiya qiladi. U organizmda modda va energiya almashinuvi regulyatsiyasida ishtirok etuvchi yodli gormon tiroksin , triyodtironin va tireokaltsitonin ishlab chiqaradi. Endokrinologik kasalik deganda hozirgi kunda insoniyat ongida Buqoq kasalligi ko‘z oldimizga keladi.

Buqoq kasalligi bu -yod tanqisligi bo‘lib bezning kattalashishi kuzatiladi. Yod tanqisligi e‘sa, insonning turmush tarzidagi stresstda ekologik o‘zgarishlar kabi bir qancha narsalar sababdir. Yod yetishmovchiligi natijasida xotira susayishi, soch to‘kilishi, past bo‘ylik, tirnoqlar sinishi, ba‘zi turlarda e‘sa ozib ketish kabi holatlar yuz beradi. Garmonlarning sintezining buzilishi kuzatiladi. Yuqoridagi simptomlar sababli yurak urishi tezlashib yoki sekinlashib, qon bosimi odatdagidan o‘zgarishi yuz beradi. Yana asosiy belgilardan biri nafas qisilishi va puls tezlashishiga olib keladi. Bunday kasalliklarning oldini olish uchun O‘zbekistonda ham, aholi o‘rtasida ko‘plab profilaktika ishlari olib borilyapdi. Respublikamizning shu kungacha turli xududlardagi ratsionida yod tanqisligi kuzatilib kelinmoqda. Bu borada yurtimizda endokrinologiya xizmatini takomillashtirish va kengaytirish chora tadbirlari to‘g‘risida 102-sonli PQ qarori asosida dasturlar ishlab chiqilgan. Bu qarorga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi aholisiga endokrinologiya yordamini ko‘rsatish bo‘yicha milliy dastur doirasida diagnostika va davolashning yangi standartlari tasdiqlandi.

75 mingga yaqin bemorlariga davlat butjeti asosida 100% insulin bilan bepul taminlanildi. Yana endokrinolog professori Y.X. To‘raqulovning tatqiqotiga ko‘ra olamshumul ko‘rsatgich aniqlangan. Bunda fuqorolar tomonidan kunlik o‘ratcha yod

iste'moli sezilarli darajada kamaygan bo'lib, bor yog'i 32-64 mkgni tashkil etadi. Bu degani minimal miqdorda 150-200 mkgni tashkil etadi.

Endokrinologik kasalliklar bo'yicha butun jahon SSTni ma'lumotiga ko'ra Buqoqning sporadic kasalliklari 5% ga kamayishiga erishilsa, yod tanqislik kasalliklarini bartaraf etiladi. Hozirgi kunda esa yod tanqisligi holati 31% ni tashkil etib, 2020- yilda esa 2.5 barobardan ortiq kamaygan. 202-yilga kelib esa 2% ni tashkil etadi. Bu borada faqatgina tadqiqotchilar emas balki bir guruh tibbiyot xodimlari ham kurashmoqda. Misol tariqasida Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani aholisi o'rtasidagi "D" ro'yhatidagi endokrinologik kasalliklar 1500 dan, 2021-yili esa bir qancha kasalliklarni sog'lomlashtirib ular soni 1017 taga yetgan. Zero kasallikni davolashdan ko'ra, uni oldini olish onson va unga qarshi chora ko'rish avfzaldir. Shunday ekan yurtdoshlarimizdan endokrinologik ko'rikdan o'tib turishini so'rab qolamiz. Zero har bir hoh qiz hoh o'g'il bo'lishidan qat'iy nazar sog'lom avlod o'z salomatligi haqida qayg'urishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Axmedov G.Ziyomudinova Anatomiya, Fiziologiya va Patologiya.
2. R.E.Xudoyberdiyev, N.K.Axmedov, R.A.Alaviy, S.A.Asamov Odam anatomiyasi
3. A.Qodirov. Odam anatomiyasi.

SILIBUM MARIANUM L.NING PANASEYA NAVI TUPROQ VA ILDIZ NEMATODA ANALIZI

Sharipbayeva Y.M., Askarova M.R

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Email: muzaffarovnayulduz@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda Prezidentimiz (2020-yil 10-aprel, PQ- 4670 - son qarori dorivor o‘simliklarning muhim ahamiyati), davlatimiz tomonidan qishloq xo‘jaligi, farmatsevtika xo‘jaligi rivojiga katta e‘tibor berilmoqda. Markaziy Osiyo respublikalarida, xususan O‘zbekistonda dorivor o‘simliklar va ularning ahamiyati katta. Fitonematodalarning o‘simliklarga yetarlicha zarar keltiradigan turlari bo‘lib, dorivor o‘simliklarga zarar keltiradigan turlari O‘zbekiston sharoitida o‘rganilmagan.

Kalit so‘zlar: nematoda, dorivor o‘simlik, eusaprofitlar, devisaprobiontlar, fitogelmintlar, qishloq xo‘jaligi.

ANALYSIS OF SOIL AND ROOT NEMATODE OF SILIBUM MARIANUM L. PANASEYA

Annotation: Today, great attention is being paid to the development of the agricultural and pharmaceutical economy organized by our President (April 10, 2020 Presidial decision №4670 the importance of medicinal plants). Medicinal plants and safety importance in Central Asia Republic, Uzbekistan. Types of phytonematodes phytonematodes that cause sufficient damage to plants, and species that cause sufficient damage to medicinal plants. Production plants of Uzbekistan.

Key words: nematode, medicinal plant, eusaphrophyt, deviosaphrophyt, phytogelmints, agriculture.

Rastropsha o‘simligining tabiiy ahamiyati katta bo‘lib tibbiyotda turli xil kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Farmatsevtika sanoati uchun muhim xom ashyo manbai hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida tabiiy maydonlar mavjud bo‘lib, sanoat ahamiyatiga ega ekanligi inobatga olinib, keyingi yillarda Ma‘mun akademiyasi tajriba dalalarida sun‘iy maydonlar tashkil qilingan.

Material va metodika. Fitogelmintologiyada tuproqdan, o‘simlikdan na‘munalar olishda ikki xil usuldan foydalaniladi. Biri marshrut, ikkinchisi statsionar usul. Tuproqdan, ildizdan fitonematodalarni ajratib olishda fitogelmintologiyada keng qo‘llaniladigan Berman usulidan foydalanildi.

Tadqiqotlarda marshrut usuldan foydalanildi. Namunalar reja asosida, piyoda, yo‘l-yo‘lakay bosib o‘tish usuli (marshrut) bilan taxminan bir xil masofadan, panaseya navli rastropsha o‘simligi ildizi va ildiz atrofi tuprog‘idan olindi. Namunalar Xorazm viloyati Xiva tumani Ma‘mun akademiyasi tajriba uchastkalari dorivor ekinlar ekilgan maydonlardan 2021- yil iyun oyida yig‘ildi. Namunalar olinganda dorivor o‘simliklar holatiga e‘tibor berildi.

E.S.Kiryanova, E.L.Krall metodikasi asosida ildiz sistemasi ko‘zdan kechirildi(1). Rastropsha o‘simligi panatseya navi ildizi va ildiz atrofi tuprog‘idan fitonematodalarning 203 ta 22 turga mansub vakillari topildi. Rastropsha o‘simligi panatseya navi o‘simlik ildizi yuqori qatlamidan (0-30sm) 10 dona, 8 turga mansub, ildizning (30-60sm) chuqurroq qatlamidan 53 ta 16 turga mansub fitonematodalar aniqlandi.

Ildiz atrofi tuprog‘idan tuproq namunalari yuqorida keltirilgandek ikkita gorizont bo‘yicha, ustki, ostki tuprog‘idan (0-30, 30-60sm) olindi. Yuqori qatlamda (0-30sm) 64 ta 15 turga mansub, ostki qatlamda (30-60sm) 76 ta 16 turga mansub fitonematodalar aniqlandi. Ekologik guruhlardan ko‘proq devisaprobiontlar uchradi.

Natija va xulosalar. Rastropsha o‘simligi panatseya navi o‘simlik ildizi yuqori qatlamidan (0-30sm) 10 dona, 8 turga mansub, ildizning (30-60sm) chuqurroq qatlamidan 53 ta 16 turga mansub fitonematodalar aniqlandi.

Ildiz atrofi tuprog‘idan tuproq namunalari yuqorida keltirilgandek ikkita gorizont bo‘yicha, ustki, ostki tuprog‘idan (0-30, 30-60sm) olindi. Yuqori qatlamda (0-30sm) 64

ta 15 turga mansub, ostki qatlamda (30-60sm) 76 ta 16 turga mansub fitonematodalar aniqlandi. Ekologik guruhlardan ko‘proq devisaprobiontlar uchradi. Ekologik guruhlardan devisaprobiontlar: *Plectus parietinus*, *Proteroplectus longicaudatus*, *Panagrolaimus armatus*, *Panagrolaimus rigidus*, *Cephalobus persegnis*, *Heterocephalobus elongatae*, *Acrobeloedes tricornis*, *Chilloplacus symmetricus*, *Chilloplacus lentus* lar asosan o‘simlik ildizi chuqur qatlamida, ildiz atrofi tuprog‘i chuqur qatlamlarida xilma-xilligi kuzatildi.

Pararizobiontlardan *Mylonchulus solus*, *Eudorylaimus monohystera*, *Aporcelaimellus obtusicaudatus* ildizning 30-60sm chuqurligida, ildiz atrofi tuprog‘i 30-60 sm chuqurligida, *Enchodellus macrodorus* ildiz atrofi tuprog‘i ostki qatlamida, *Fylenchus filiformis* esa rastoropsha o‘simligi panatseya navi ildizi va ildiz atrofi tuprog‘ida uchradi(4).

Eusaprobiontlardan *Rhabditis* avlodi vakillaridan uch turi uchradi. *Rhabditis filiformis* rastoropsha o‘simligi panatseya navi ildizining ostki qatlamida ikkita, ildiz atrofi tuprog‘ining yuqori qatlamida bir dona uchradi(3). *Rhabditis intermedius* faqat ildiz atrofi tuprog‘ining ostki qatlamida, *Rhabditis brevispina* ildiz ostki qatlami, ildiz atrofi tuprog‘i ostki qatlamida uchradi.

Fitogelmintlarning haqiqiy parazitlaridan *Ditylenchus dipsaci*, *Helicotylenchus multicinctus*, *Paratylenchus hamatus*, maxsus kasallik keltirib chaqirmaydiganlaridan *Aphelenchus avenae*, *Aphelenchus cylindricaudatus* lar uchradi. *Silibum Marianum* L.ning tuprog‘ qatlamlari tarkibi turlicha tarqalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мавлонов О.М. Фитонематоды как индикаторы агрохимических свойств почв. // Международный нематологический симпозиум. –М.: 2001. 69-70 с.
2. Масленникова В.Ф. Нематодофауна риса Узбекистана. –Зоолжурн., 1966, 45, №5. с.641.
3. Метлицкий О.З. О класификации нематод – паразитов растений. В кн. : «Проблемы паразитологии», часть III, Киев, Изд. «Науково-думка», 1972, 18-19 стр.
4. Муминов Б.А., Гулямова Д.Б., Эшова Х.С., Абдурахмонова Г.А. Изучение структуры биоценотического комплекса фитонематод агроценозов в различных типах почв. //Parazitologiyaning dolzarb muammolari.–Qarshi. 2003..42-44-betlar.

ДИАГНОСТИКА И ЛЕЧЕНИЕ ТРАНСМУРАЛЬНОГО ИЛЕИТА В СОВРЕМЕННОЙ МЕДИЦИНЕ

Бахронов Жахонгир Жасурович

Маматова Умида Жалолиддиновна

Самаркандский Государственный Медицинский Университет.

E-mail: oxygenium1700@gmail.com, u6600264@gmail.com

Аннотация. В статье представлен литературный обзор современных методов диагностики трансмурального илеита, которые имеют большое значение для прогноза заболевания. А также современные методы лечения трансмурального илеита, при которых удастся предупреждение активной фазы заболевания.

Ключевые слова: регионарный энтерит, гранулематозный илеит, анемия, ФЭГДС, иликолоноскопия, видеокапсульная эндоскопия.

DIAGNOSIS AND TREATMENT OF TRANSMURAL ILEITIS IN MODERN MEDICINE

Abstract. The article presents a literature review of modern methods for diagnosing transmural ileitis, which are of great importance for the prognosis of the disease. As well as modern methods of treatment of transmural ileitis, in which it is possible to prevent the active phase of the disease.

Keywords: regional enteritis, granulomatous ileitis, anemia, FEGDS, ilio colonoscopy, video capsule endoscopy.

Трансмуральный илеит – хроническое воспалительное заболевание кишечника с трансмуральным характером поражения, преимущественно поражающее дистальную часть подвздошной и толстой кишки, при котором также может быть поражен любой отдел желудочно-кишечного тракта. В большинстве случаев трансмуральный илеит проявляется как повторяющийся регионарный энтерит или гранулематозный илеит.

При диагностике болезни применяются разные лабораторно-инструментальные методы.

Лабораторные методы:

Изменения в анализе крови проявляются как анемия, часто 2 или 3-степени, лейкоцитоз, повышение СОЭ, гипопроотеинемия, снижение количества витамина В12 и фолиевой кислоты, нарушение электролитного баланса.

При копрограмме выявляется стеаторея. При микроскопии кала определяются множественное количество лейкоцитов и эпителиальных клеток.

Инструментальные методы:

При фиброэзофагогастродуоденоскопии (ФЭГДС) можно определить изменения слизистой оболочки терминальной части двенадцатиперстной кишки.

При контрастной рентгенографии контрастное вещество (сульфат бария) вводится через зонд в дистальную часть связки Трейтца. При этом выявляются изменения в виде утолщения слизистой оболочки, причиной которого является отек подслизистой оболочки и расположение в ней гранулем.

В настоящее время для диагностики трансмурального илеита наилучшим методом является илеоколоноскопия, то есть проверка всех отделов толстой кишки и терминального отдела подвздошной кишки. При этом есть возможность забора биоптата для гистологического исследования из всех отделов толстой кишки (как минимум 2 биоптата) и с разных участков подвздошной кишки.

Если есть подозрение на то, что трансмуральный илеит поражает тонкую кишку, желательно проводить видеокапсульную эндоскопию. Но при этом методе нет возможности забора биоптата.

Лечение. Лечение трансмурального илеита должен быть комплексным и включает соблюдение диеты, использование лекарственных средств, при развитии осложнений хирургическое вмешательство.

Общие рекомендации по диете при трансмуральном илеите:

- а) обильное питье - рассчитать по 50 мл на кг массы тела.
- б) уменьшение количества употребляемой еды, богатая клетчаткой.

- в) перейти на дробное питание.
- г) уменьшение количества употребляемых жиров.
- д) снижение количества молочных продуктов.

Медикоментозная терапия включает следующие группы препаратов:

а) Противовоспалительные средства — первый шаг к контролю болезни Крона.

б) Иммунодепрессанты уменьшают воспаление за счет угнетения иммунных реакций, играющих важную роль в развитии заболевания. Их принимают отдельно или в комбинации с противовоспалительными препаратами.

в) Антибактериальные препараты назначают дополнительно при инфекции.

Для того, чтобы устранить симптомы болезни и повысить качество жизни пациента, проводят симптоматическое лечение.

Если прием лекарственных средств, изменение образа жизни, диета или другое лечение не помогают, врач может рекомендовать хирургическую операцию. Суть ее заключается в удалении пораженного участка и соединении здоровых концов пищеварительного тракта.

Использованные литературы:

1. Внутренние болезни: Учебник / В.И. Маколкин, С.И. Овчаренко – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2017.
2. Внутренние болезни / Н.А. Мухина, В.С. Моисеева, А.И. Мартынова – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2010.
3. Лабораторные и функциональные исследования в практике педиатра / Кильдиярова Р.Р. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2012.
4. Пропедевтика детских болезней: Учебник для педиатр. фак. мед. вузов / Сост.: С.Дж. Боконбаева, Т.Д. Счастливая, Х.М. Сушанло и др. – Б.: КРСУ, 2008.
5. Поликлиническая педиатрия: учебник / под ред. А.С. Калмыковой. - 2-е изд., перераб. и доп. М.: ГЭОТАР-Медиа, 2011.

TOURISM

Narzullayeva Muxayyo Iftixor qizi

Independent researcher

E-mail: muhayyonarzullayeva1@gmail.com

Abstract: Travel opens your minds and broadens your horizons. You can experience different customs and cultures and will be aware of the value of old buildings and famous places. The tourism industry is vital for some countries.

Keywords: recharge their batteries, opens your minds, cultural heritage, substantial economic growth, job opportunities, tourism industry, international understanding and cooperation.

Tourism is a popular leisure activity. Tourists can relax, have fun and recharge their batteries (e.g. sightseeing, sunbathing, visiting monuments, tasting new cuisine). Travel opens your minds and broadens your horizons. You can experience different customs and cultures and will be aware of the value of old buildings and famous places. It is also an effort to preserve their cultural heritage. The tourism industry is vital for some countries. Tourism is primary source of revenue and brings money. People rely on tourism for their income (to make a living). It encourages substantial economic growth and enhances higher quality of living by providing job opportunities for local people. Tourists stay in smaller and locally run hotels, purchase local products and buy home grown food. Money tourists pay ends up in locals' pockets. Some communities can't survive without tourist industry. Service industries will be created and transport facilities will be enhanced. The role of tourism in the world today is widely debated, with some people claiming that it is indeed a force for international understanding. When tourists visit untouched parts of the world, their stay causes pollution for local societies. We see this in the litter left at Machu Picchu in Peru, and in the damage to

ecology caused by safari tourism in Africa. Furthermore, there are numerous examples of tension between tourists and local cultures, ranging from drunken British tourists in Europe to American "spring breakers" in Canadian or Latin American resorts. In these cases, tourism actually leads to resentment and distrust between nationalities, not better understanding. A further reason to be wary of this idea is the economic aspect. It is sometimes said that tourism improves international relations because it encourages the flow of money from wealthy to less developed countries. In reality, however, the wealth generated usually stays in the hands of private companies or local officials and rarely drips down into the population. Many of us have visited less developed nations as tourists, and have witnessed at first hand the poverty that exists outside the confines of the resort hotels. We leave with the impression that our stay has contributed nothing to the lives of those we have observed. This is not to say that tourism is entirely bad, of course. There are benefits in terms of improving local infrastructure such as roads and airports. It helps to revitalize and revive local cultures, crafts and traditional lifestyles. Tourism can be a vehicle for reinvigorating and reviving local cultures and traditions. It spreads local cultures overseas and enhances understanding across cultures. Take cultural tourism or so called socially responsible tourism for example. Cultural traveler donates money to local temples and churches, local crafts and arts. The motives behind ecotourism are honorable attempts to minimize the impact on the environment and maximize the benefits to the local community. Tourists take some responsibility of the physical environment and they are aware of the environment and wish to protect it rather than harm it. A good tourist is one who takes away nothing but photographs and leaves behind nothing but footprints. The social impact of tourism are not to be confused with the increasingly popular term "social tourism", social tourism has not reached a high level of development in North America, but it has achieved more widespread acclaim in Europe.

Tourism numbers declined as a result of a strong economic slowdown between the second half of 2008 and the end of 2009, and in consequence of the outbreak of the 2009 , but slowly recovered until the pandemic put an abrupt end to the growth.

The United Nations estimated that global international tourist arrivals might decrease by 58% to 78% in 2020, leading to a potential loss of US\$0.9–1.2 trillion in international tourism receipts

Globally, international tourism receipts grew to US\$1.03 trillion (€740 billion) in 2005, corresponding to an increase in real terms of 3.8% from 2010 International tourist arrivals surpassed the milestone of 1 billion tourists globally for the first time in 2012 emerging source markets such as China, Russia and Brazil had significantly increased their spending over the previous decade.

The objective of social tourism is to ensure that tourism is accessible to all people. Special efforts are made to include members of society who otherwise would be prevented from participating in tourist travel for some reasons such as economic problems or physical and psychological disabilities. Social impacts of tourism refer to the changes in the quality of the life of residents of touristy destinations. Tourism opens up opportunities for business development. Locals show their hospitality to visitors and accept each other's cultural background.

References:

1. <https://en.m.wikipedia.org>
2. <https://www.britannica.com>
3. <https://www.revfine.com>

ҚАРАҚАЛПАҚ ХАЛЫҚ ҚОСЫҚЛАРЫНДА «ХАЯЛ» КОНЦЕПТИ

Айнура Сайманова Мадреймовна

Қарақалпақ мәмлкетлик университети

E-mail: aynurasaymanova@gamil.com

Аннотация: Бул мақалада қарақалпақ халық қосықлары тилиндеги ҳаял мәнисин билдириўши сөзлер лингвокультурологиялық бағдарда уйренилди.

Таяныш сөзлер: қарақалпақ халық қосықлары, нақыл-мақал, лингвокультурология, тил, мәденият, синоним, ҳаял.

ҚОРАҚАЛПОҚ ХАЛҚ ҚҰШИҚЛАРИДА «АЁЛ» КОНЦЕПТИ

Аннотация: Бу мақолада қорақалпоқ халқ құшиқлари тилидаги аёл маъносини билдирувчи сўзлар лингвомаданий йўналишда ўрганилди.

Калит сўзлар: қорақалпоқ халқ құшиқлари, мақол-матал, лингвокультурология, тил, маданият, синоним, аёл.

КОНЦЕПТ «ЖЕНЩИНА» В КАРАКАЛПАКСКИХ НАРОДНЫХ ПЕСНЯХ

Аннотация: В данной статье слова, обозначающие значение женщины в языке каракалпакских народных песен, были изучены в лингвокультурологическом направлении.

Ключевые слова: каракалпакские народные песни, пословицы, лингвокультура, язык, культура, синоним, женщина.

THE CONCEPT OF «WOMAN» IN KARAKALPAK FOLK SONGS

Annotation: In this article, the words denoting the meaning of a woman in the language of Karakalpak folk songs were studied in the linguoculturological direction.

Key words: Karakalpak folk songs, proverbs, linguistic culture, language, culture, synonym, woman.

Адамлар бир-бири менен пикир алысыу процесинде сөзлерден пайдаланады. Бунда айтажақ ойды еле де көркем, тәсирли етип жеткерип бериу мақсетинде бир сөзди қайталай берместен, оның синонимлеринен яки болмаса контекстке сай келетуғын сөзлерден пайдаланады. Биз бул мақаламызда қарақалпақ халық қосықлары тилинде жумсалған «*ҳаял*» сөзин ҳәм оған мәнилик жақтан жақын болған сөзлерди лингвокультурологиялық көзқарастан анализледик. «Жәмийеттиң ҳәр қыйлы раўажланыу басқышларында бир түсиникти бирнеше сөзлер менен атау жағдайлары ушырасады. Ҳәрбир сөздин келип шығыу тарийхын терең үйрениу, оны илимий түрде түсиндирип бериу, ески сөзлеримизди мүмкиншилигине қарай бүгинги күнимиздин мүтәжине жаратыу, солай етип ана тилимизди және де байытып барыу алдымызда турған әдиули ўазыйпалардан бири» [Абдиназимов, 40-б.]. Солай екен, ана тилимиздин кең мүмкиншиликлеринен пайдаланыу, ондағы сөзлердин мәнисин үйрениу, пикирди жеткерип бериуде қоллана билиу үлкен әҳмийетке ийе.

Қарақалпақ тилинде *ҳаял* сөзи қатын, зайып, ерлердин жубайы [Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги, IV том, 469-б] деген мәнилерди билдиреди. Өзбек әдебий тилинде болса *ҳаял* – шаңарак, қатын, улыума еркекке қарама-қарсы жыныстағы шахс, қатын мәнилерин билдиреди. Бул мәнисте көбирек көплик формасында қолланылып, улыумаластырыушылық мәниге ийе болады, *ҳаял-қызлар* мәнисин билдиреди. Сондай-ақ усы жыныстағы бой жеткен шахс (қызға қарата) мәнисин де билдиреди [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, I жилд, 43-б]. Қарақалпақ тилинде оның бирнеше синонимлери бар болып, халық қосықларында олардың дерлик барлығы жумсалған.

Ҳаял сөзине мәнилик жақтан жақын сөзлердин төркинине нәзер аударатугын болсақ, «түркий халықларына ортақ ең ески жазба естеликлер VI-VII әсирлерде тасларға ойып жазылған. Орхон-Енисей жазба естеликлеринде «қатын», «урағут», «қудаз», «йотаз», «кунчуй» сөзлери бир түсиникти аңлатыу ушын жумсалған» [Абдиназимов, 40-б]. Ҳәзирги қарақалрпақ әдебий тилинде, әсиресе аўызеки сөйлеу тилинде *қатын* сөзи басқаларына қарағанда өнимлирек

қолланылады. «Қатын» түркий сөзи болып Қултегин естелигиниң 31-қатарында «қағанның яғный ел басқарыўшының ҳаялы» деген мәниде жумсалған. Бул сөздиң этимологиясы туўралы илимпазлар арасында еки түрли көзқарастағы пикирлер ушырасады. Айырым илимпазлар бул сөзди «қат» яғный «қатнас, аралас» түбир фейилине фейилдиң өзлик дәрежесиниң «ын» қосымтасы жалғаныўы арқалы «ханның ҳаялына сен де мәмлекетлик ислерге аралас, қатнас» деген мәнини аңлататуғын «қатын» сөзинен келип шыққан деп есапласа, айырым илимпазлар бул сөздиң «қатты, бекем» деген мәнилерди аңлататуғынын көрсетип, ҳаял адамның шыдамлылығы, қаттылығы, беккемлиги менен байланыстырады [Абдиназимов, 40-б]. Ал туўысқан қазақ ҳәм өзбек тиллеринде «қатын-қызлар байрамы» түринде әдебий тилде де өнимли жумсалады. Ал қарақалпақ әдебий тилинде болса «ҳаял-қызлар байрамы» формасы әдебий тил ушын тән. Өйткени жоқарыда атап өткенимиздей, қатын сөзи қарақалпақ тилинде көбирек аўызеки сөйлеў тилинде қолланылады. Буны халық арасында таралған нақыл-мақаллардан да көриўимизге болады: Жақсы *қатын* ерин ер қылады, Жаман *қатын* ерин қара жер қылады. Жақсы *қатын* – ырыс, жаман *қатын* – урыс. Халқы қәлемеген бий азар, *Қатыны* салақ үй азар. *Қатын* ғайратланып қазан қайнатпас ҳәм т.б. Бундай нақыл-мақаллар тилимизде жүдә көп. Әсиресе, усы сөздиң қатнасында келген нақыл-мақаллар басқа сөзлерге (ҳаял мәнисиндеги сөзлерге) қарағанда өнимлирек. Сондай-ақ, бул сөз тилимизде көбинесе унамсыз бояўларға ийе болып келеди. Нақыл-мақалларға нәзер аўдаратуғын болсақ, ҳаял адамның унамсыз, әдеп-икрамлық нормаларына туўра келмейтуғын тәреплерин сөз еткен ўақытта көбинесе *қатын* сөзи қолланылған. Қарақалпақ халық қосықлары тилинде бул сөз төмендеги катарларды ушырасады: *Қатынын* қыздай сыйлаган («Бет ашар», 51-бет). *Қатынына* қасын қаққан («Бет ашар», 53-бет). *Қатынынан* таяқ жеген («Бет ашар», 56-бет). Айтады өсек *қатындай* («Альбом», 160-бет).

Қатын сөзиниң қарақалпақ тилине салыстырғанда өзбек тилинде қолланылыў өриси бираз кеңирек екенин көриўимзге болады. Ол қарақалпақ

тилиниң түсиндирме сөзлигинде ҳаял, зайып, жубай, жолдас мәнилерин билдиреди деп көрсетиле, өзбек тилиниң түсиндирме сөзлигинде бирнеше мәнилерди аңлатуғынлығы көрсетилген. Тийкарынан қатын – жынысыя жақтан еркекке қарама-қарсы, перзент көриў, емизиў қәбилетине ийе адам, ҳаял. Сондай-ақ қандайда бир еркектиң некесиндеги ҳаял, *қатын алыў* дизбеги болса үйлениў мәнисин билдиреди. Және де өзбек тилинде *қатын асы* (хотин оши) дәстүри болып, тойда қатынларды арнаўлы шақырып өткерилетуғын мәресим хәм онда берилетуғын ас есапланады. Демек, тилимизде қолланылатуғын бул сөздиң мәниси басқа тиллерге салыстырғанда бираз өзгешеликке ийе болып, хәрбир халық өз турмыс тәризи, менталитети, дүньяға көзқарасы жағынан тилдеги сөзлерди хәр қыйлы мәнилерде хәм түрли орынларда қолланады екен.

Қатын сөзи менен бирге тилимизде оған мәнилес *ҳаял* сөзи де жумсалады. «Ҳаял» сөзи ески түркий жазба естеликлеринде қолланылмаған сөз. Орта әсирлерде араб-парсы тиллеринен өзлестирилген. Бул сөздиң этимологиясы туўралы тилши илимпазлар ортасында еки түрли көзқарастағы пикирлер ушырасады. Айырым илимпазлар «ҳаял» сөзи парсы тилинен өзлестирилген «ҳая» сөзиниң тийкарында пайда болған, «ҳая» сөзи «ар, уят, әдеп-икрам» деген мәнини билдиреди. Оған келбетлик жасаўшы *-лы* қосымтасы жалғаныўынан «ҳаялы» сөзи пайда болған. Соңғы дәўирлерде сөздиң ақырындағы «ы» сеси элизия қубылысына ушыраған деген пикирди билдиреди. Демек «ҳаялы» дегенимиз «ар-намыслы, әдеп-икрамлы, кишипейил» дегенди аңлатады. Айырым илимпазлар «айал» араб тилинен өзлестирилген сөз екенлигин көрсетип, хәзирги қарақалпақ әдебий тилинде «*ҳаял*» түринде жумсалады деп есаплайды. Илимий көзқарастан соңғы пикир дурыслыққа келеди» [Абдиназимов, 43-б]. Қарақалпақ тилинде бул сөз көбирек әдебий тилге, ал аўызеки сөйлеў тилиге жоқарыда атап өткенимиздей, *қатын* сөзи тән. Тилимизде ҳаял сөзи менен келген төмендегидей нақыл-мақаллар қолланылады: *Ҳаялды жаман десен, Ишинде апаң да кетеди. Еркек гүби – ҳаял түби. Еркек – ҳаялдың көрки, Ҳаял – еркектиң бөрки. Бир үйди жети еркек толтырмас, бир ҳаял*

толтырар хәм т.б. Сондай-ақ, тилде *хаялдың қырық жаны бар* (шыдамлы, төзимли, сабырлы, беккем) фразеологизми де ушырасады. Бул оның руўхый жақтан күшли етип жаратылғанлығын, хәрқандай жағдайға, қыйыншылыққа шыдап, сабыр етиўин аңлатады.

Қатын сөзи көбинесе унамсыз оттенокке ийе болып келсе, ал *хаял* сөзинде керисинше унамлы мәни басым. Сонлықтан ол әдебий тилге тән болып, мәдениетлы, сыпайы түрде сөйлеў ўақтында мине усы сөзди көбирек қолланамыз. Халық қосықлары тилинде төмендеги қатарларда қолланылған: Қайтты бир *хаял* отын алып («Жесир хаялдың муңы», 196-бет). *Хаял* сөзли қара пәрең екенсең («Сәлем», 143-бет).

Тилимизде жоқарыда келтирилген хаял хәм қатын сөзлерине мәнилик жақтан жақын болған *нашар* сөзи де жумсалады. Ол тилде еки түрли мәниде хаял-қыз, сондай-ақ пәс, төмен, күшсиз, хәлсиз мәнилеринде қолланылады. *Хаял (нашар) басы менен* (күш-қуўаты болмаса да, әззи бола турып), фразеологизми де хаял адамның физикалық жақтан ер адамға салыстырғанда хәлсиз болса да, руўхый жақтан оннан күшлирек болғаны ушын қыйыншылықларға шыдам бере алыўын аңлатады. Бул сөз түркий тилиндеги «шара» сөзине парсы тилинен кирген «на» префигси жалғаныўы арқалы жасалған. «Нашар» сөзи «шарасыз», «иләжсыз» деген мәнини билдиреди [Абдиназимов, 43-б]. Туўысқан түркий тиллерде оның хаял мәнисинде жумсалыў жағдайлары дерлик ушыраспайды. Қарақалпақ халық қосықлары тилинде болса төмендеги қатарларда қолланылған: Мен *нашарды* айып көрмең халайық («Сәнем деген киши қарындасының айтқаны»). *Нашары* қурысын кем екен, Қара жер менен тең екен («Муң қосықлары», 182-бет). *Нашар* деп көзге илмедиң («Толғаў», 383-бет). Үйде туўылып, дүзде өскен, *Нашардай* сорлы бар ма екен («Муң қосықлары», 183-бет). *Нашардан* туяқ болар ма («Жоқлаў», 220-бет).

Хаял мәнисин билдиретуғын сөзлерден және бири – бул *зайып* сөзи. Араб тилинде «әззи, нәзик» деген мәнини билдиреди. Хәзирги қарақалпақ әдебий тилинде ол хаял, жубай, жупты, қатын, ер адамның өмирлик жолдасы сыяқлы

мәниләрди билдиреди. Әсиресе тилде ерли-зайып деген жуп сөз өнімли жумсалады. Бала – ерли-зайыптың дәнекери. Ерли-зайып арасына еси кеткен түседі сыяқлы нақыл-мақаллар да пикиримизди тастыйықлайды. Ол туўысқан өзбек тилинде *заифа* формасында жумсалып, *қатын, өмирлик жолдас, ҳаял* деген мәниләрди аңлатады. Қарақалпақ халық қосықлары тилинде: Көңилиң алалмас *зайыптан*, Үйленбей өткен яхшыдур («Яхшыдур», 427-бет). Бириңиз қыз екен, үшиңиз *зайып* (66-бет). Сорлы басым қалай *зайып* боламан («Нәйлермен», 191-бет). Хәммеге болған *зайыплар* («Байсынға», 389-бет) сыяқлы қатарларда қолланылған.

Ҳаял сөзиниң синонимлеринен және бири – бул *жаўан*. Ол парсы әдебий тили арқалы Орта Азиялық түркий әдебий тилине өткен сөз болып, хәзирги қарақалпақ әдебий тилинде *жас келиншек* деген мәнини аңлатады. Мәселен, Атқа бермес ғунан бар, Қызға бермес *жаўан* бар (қарақалпақ халық нақыл-мақалы). Халық қосықлары тилинде болса мына қатарларда ушырасады: Қарап турған қыз-*жаўанлар* («Хан зулымы», 197-бет). Он төртинде қыз-*жаўан* менен ойнады («Тәриплер», 270-бет). Ал туўусқан өзбек тилинде бул сөз *жувон* түринде тийкарғы мәнисинен басқа мәниләрде де жумсалады. Дәслеп *жас, өмириниң ярымына да жетпеген адам яки ҳайўан* деген мәнини аңлатса, соның менен бирге *күйеўден ажырасқан яки жесир қалған ҳаял; ийбесин жоғалтқан қыз* мәнилеринде де жумсалады.

«Қостар» сөзи өмирлик жолдас, жубай мәнилерин билдиреди. Көбинесе әдебий тилде қолланылады. Шапан алма астар ал, Қатын алма, *қостар* ал нақыл-мақалының қурамында келгенлигин көриўимизге болады. Халық қосықлары тилинде сийрек жумсалған: Көзинди жаслама муңлы *қостарым* («Тапсырдым», 393-бет).

Хәзирги қарақалпақ әдебий тилинде *ҳаял* мәнисин билдириўши сөзлердиң қатарына келиншек сөзин де киргизсек болады. Қатын сөзин қолланыў қопал, мәдениятсыз сөйлеў белгиси ретинде қаралады. Сондай-ақ қатын сөзи көбинесе

орта жастағы ҳаял мәнисин билдиргенликтен, үйленген жас жигитлер тилинде өмирлик жолдласы ҳаққында айтпақшы болса келиншек сөзи қолланылады.

Жуўмақлап айтқанда, қарақалпақ халық қосықлары тилинде ҳаял мәнисин аңлататугын бирнеше сөзлер қолланылған. Оларды халықтың түсиниги, мәденияты, менталитети, сондай-ақ басқа түркий тиллерде (өзбек тилинде) қолланылыў жагдайлары менен салыстырмалы түрде анализледик. Өйткени ҳәрқандай тиллик бирликтің лингвокультурологиялық өзгешелиги сол тилде сөйлеўши халықтың мәденияты, үрп-әдети, басқа тиллерде қолланылыўы менен салыстырып үйренілгенде ғана анықланады. Оларды үйрениў нәтийжесинде төмендегидей жуўмаққа келдик:

1. Әдебий тилге қарағанда қарақалпақ аўызеки сөйлеў тилинде ҳаял мәнисин билдиретугын *қатын* сөзи жийи қолланылады. Буны халық қосықларында ҳәм нақыл-мақалларда көриўимзге болады.

2. Халық қосықлары тилинде ҳәм қарақалпақ әдебий тилинде қатын ҳәм жаўан сөзлериниң қолланылыўында басқа тиллерге салыстырғанда өзгешеликлер бар екенлиги байқалды.

3. Нашар сөзи басқа түркий тиллерде ҳаял мәнисинде дерлик жумсалмайды.

Әдебиятлар

1. Абдиназимов Ш. Тил миллеттиң руўхы. Илимий мақалалар. –Ташкент, «Mumtoz so‘z». 2017.
2. Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық. V том. Қарақалпақ халық қосықлары ҳәм салт жырлары. –Нөкис, Қарақалпақстан. 1980.
3. Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық. 88-100-томлар. –Нөкис, Илим. 2015.
4. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. I, II, III, IV, том. –Нөкис, Қарақалпақстан. 1982, 1984, 1988, 1992.
5. Хотин-қизлар энциклопедияси.–Тошкент, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. 2005.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент, «O‘zbekiston nashriyoti»/ 2020/

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA BUYRUQ GAPLARIDA SO‘Z TARTIBINING JOYLASHISHI

Toshtemirova Sevinchbonu Jamshid qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

E – mail: sevinchbonutoshtemirova@gamil.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida so‘z tartibi qiyosiy o‘rganilgan. Shu bilan birgalikda buyruq gaplarida so‘z tartibi o‘rganilgan va taqqoslangan.

Kalit so‘zlar: so‘z tartibi, o‘zbek tilida so‘z tartibi, ingliz tilida so‘z tartibi, gap, buyruq gaplar, farqlari, o‘xshash tomonlarini aniqlash.

POSITION OF WORD ORDER IN UZBEK AND ENGLISH COMMAND SENTENCES

Abstract: This article compares word order in Uzbek and English languages. At the same time, the order of words in command sentences was studied and compared.

Key words: word order, word order in Uzbek, word order in English, sentences, imperative sentences, identifying differences, similarities.

Tilshunoslikda so‘z tartibi stilistika va lingvopoetikaning ham tadqiqot obyektii hisoblansa-da, u, eng avvalo, sintaktik hodisadir. Sintaksis – fikr ifodalash uchun zarur bo‘lgan nutqiy tayyorgarlikning eng yuksak bosqichida so‘z tartibi sintaktik birliklar: so‘z birikmalari va gaplarni tashkil qilib, so‘zlovchi maqsadining aniq, to‘g‘ri va mantiqan izchil voqelanishini ta’minlaydi.

So‘z tartibi bu gap bo‘laklarining o‘zaro muayyan Grammatik qonun – qoidalar asosida ma’lum sintaktik mazmuniy qiymat bilan bog‘liq holda joylashuvidir. O‘zbek tili grammatikasida gapda, odatda, birinchi o‘rinni ega guruhi egallashi, undan keyin boshqa bo‘laklar kelishi, kesimning gap oxirida kelishi bilan birgalikda, bu tartibning buzilish holatlari va shu bilan bog‘liq holda kechadigan sintaktik-semantik o‘zgarishlarga ham uchraydi.

Ikkala qiz ham og‘iz ochmay jim qolishdi. (to‘g‘ri tartib)

~~~~~ — ..... =====

Olib chiq o‘sha temir sopqoningni. (o‘zgargan tartib)

===== ~~~~~ ~~~~~ =====

Yuqoridagi 1- misolda avval ega va unga tegishli bo‘laklar, keyin kesim va unga tegishli bo‘laklar joylashgan .2-misolda esa kesim gapning boshiga o‘tgan va unga tegishli bo‘laklar undan keyin joylashtirilgan. Shuning uchun ham o‘zgargan tartib deyishimiz mumkin. Agar gap quyidagi tartibda joylashganda to‘g‘ri tartib deyishimiz mumkin bo‘lar edi: *O‘sha temir sopqoningni olib chiq.*

**O‘zbek tili** so‘z tartibi:

|                                   |                                                |
|-----------------------------------|------------------------------------------------|
| Ega                               | Kesim                                          |
| Egaga tegishli bo‘lak: aniqlovchi | Kesimga tegishli bo‘laklar: to‘ldiruvchi, hol. |

Shartli ravishda quyidagicha joylashtirishimiz mumkin:

|            |            |                 |                 |              |
|------------|------------|-----------------|-----------------|--------------|
| Aniqlovchi | <b>Ega</b> | Hol\to‘diruvchi | Hol\to‘diruvchi | <b>Kesim</b> |
|------------|------------|-----------------|-----------------|--------------|

Izoh: Egadan so‘ng to‘ldiruvchi + hol yoki hol + to‘ldiruvchi holatida ham joylashishi mumkin.

Masalan: Ikkala qiz ham og‘iz ochmay jim qolishdi

**Ingliz tilida** so‘z tartibi o‘zbek tilinikidan ancha farq qiladi. Bilamizki, o‘zbek tilida kesim (fe‘l) asosan gap oxirida keladi. Ingliz tilida esa doim egadan keyin keladi.



|                                   |                 |                         |                                                                  |                                 |                                 |
|-----------------------------------|-----------------|-------------------------|------------------------------------------------------------------|---------------------------------|---------------------------------|
| 1-darajali bo‘laklar:             |                 |                         | 2-darajali bo‘laklar:                                            |                                 |                                 |
| Ega ( subject), Kesim (Predicate) |                 |                         | To‘diruvchi (Object), Hol (Modifire),<br>Aniqllovchi (Attribute) |                                 |                                 |
| Ega<br>(subject)                  | Kesim<br>(Verb) | To‘diruvchi<br>(Object) | Usul holi<br>(manner<br>modifire),                               | Joy holi<br>(place<br>modifire) | Vaqt holi<br>(time<br>modifire) |

Izoh: Aniqllovchining aniq o‘rni yo‘q.

Masalan: Jack checks the documents very fast at the office every morning. (*Jek har kuni ertalab ofisda hujjatlarni juda tez tekshiradi*).

Gap ma’lum fikrni ifodalab, nutqning bir qismini tashkil etadi. Til, nutq orqali kishilar o‘z fikrlari, maqsadlari, his-hayajonlarini ifodalaydi. Har bir gapda qandaydir bir maqsad, niyat yoki his-hayajoni fodalaniadi. So‘zlovchi biror narsa haqida xabar qiladi yoki o‘ziga noma’lum bo‘lgan predmet, voqea-hodisalar to‘g‘risida ma’lumot olishni istaydi, yoki turli ichki tuyg‘ularni (iltimosi, g‘azabi, shodligi va boshqalarni) ifodalaydi: Shunga ko‘ra, gaplarni to‘rt turga bo‘lish mumkin: 1) darak gaplar; 2) so‘roq gaplar; 3) buyruq gaplar; 4) undov gaplar.

Buyruq gaplar kishining xohishi, iltimosi, maslahati, buyrug‘i kabi turli niyatlarini ifodalab keladi. O‘zbek tilida buyruq gaplar turli yo‘llar, vositalar yordami bilan tuziladi:

1. Buyruq-istak maylining kesim vazifasida kelishi bilan: Oyinga ayt, tezroq chiqsin!

2. Shart maylining kesim vazifasida ishlatilishi bilan: Qani endi, bolaligimga qaytib qolsam.

3. Kerak, mumkin, darkor so‘zlarining harakat nomi bilan birikib kelishi bilan: Bu yerda o‘tirish mumkin emas. . Ko‘rinadiki, yuqdoridagi har uchala misolda ham so‘zlar oatdagi ya’ni to‘g‘ri taribda joylashgan.

**Ingliz tilida** buyruq gaplardan bir yoki undan ortiq kishiga biror nima qilishini yoki qilmasligini aytganimizda foydalaniladi. *Stand up!* – O‘rningdan tur! Doim ega



sen yoki siz so‘zalari hisoblanadi va yo‘naltiriladi. Shuning uchun ham ega tashlab ketiladi, lekin ma’nosidan tushib olinadi. Masalan: *Open the door. Eshingni och.*

**Xulosa:** O‘zbek tili buyruq gaplarida so‘z tartibining joylashishi oldin narsa-buyum ya’ni 2-darajali bo‘laklar, undan keyin esa 1-darajali bo‘lsak kesim joylashadi. Ingliz tilida esa avval 1-darajali bo‘lak ya’ni kesim, undan keyin 2-darajali bo‘laklar joylashadi. Yana bir farq shundaki, ingliz tilida ega doim tushurib qoldiriladi, o‘zbek tili yozma nutqda ega mavjud bo‘ladi. O‘zbek tili og‘zaki nutqda egasiz buyruq gap hosil qilishimiz mumkin. Bu holat esa ikki tildagi o‘xshashlikka misol bo‘la oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. T.S.Yadixanovanning 1954-yil “O‘zbek tilida sodda gaplarning so‘z tartibi” mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasidi.
2. O‘zbek tili grammatikasi. 2-jild. Sintaksis. 95-96, 98-99-bet
3. Shahboz Toshpo‘latov “Step by step”. “Regbooks” nashriyoti, 2020. 6-bet.
4. Grammarway 1. 2008, 40-bet.

## MAKTABGACHA TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISHDA ILG'OR AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR

**Olamova Mamura**

Farg'ona davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

**Ma'murova Diyora Alisher qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Xorijiy tillar fakulteti talabasi

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha ta'lim tizimida ilg'or axborot texnologiyalari sifatida multimediali ta'limni joriy qilinishining ustuvor xususiyatlari pedagogik nuqtai-nazaridan muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar.** Kompyuter texnologiyasi, multimedia, ta'lim, pedagog, didaktika, dastur, vosita, MTT, jarayon.

Yosh avlodni har tomonlama barkamol o'sishi, uning jismoniy, axloqiy va ma'naviy tarbiyasi to'g'risida g'amxo'rlik qilib voyaga etkazish masalasi davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangani, shu maqsadda ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda takomillashtirilib hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Ta'lim tizimidagi islohotlar xalqimiz fazilatlariga, milliy mentalitetimizga mosligi, ayni paytda zamonaviy andozalarga asoslangani, uzluksiz va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani, ayniqsa, ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi bilan ahamiyatlidir.

Maktabgacha ta'lim maskanlarida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, pedagoglarning kasb malakasi va mahoratini oshirish, tarbiyaviy jarayonga zamonaviy pedagogik va kompyuter texnologiyalarni olib kirish muhim dolzarb masalalardandir. Kompyuter texnologiyalari yordamida didaktik ta'minotni yaratish usullari juda ko'pdir. AT asrida kompyuter ishlatilmaydigan biror kasbni ko'z oldimizga keltirib

bo‘lmaydi. Kompyuterni yoki informatika fanini o‘rganishni necha yoshda boshlash kerak va bu fanning aynan qaysi bo‘limlarini birinchi navbatda o‘rganish kerak degan savol tug‘iladi.

L.G.Peterson “Boshlang‘ich sinflarda matematika” dasturi bo‘yicha ishlab, mantiqiy masalalar, yuqori murakkablikdagi masalalarni echish qanchalik muhimligini tushungan. Bolalar tahlil qilish umumlashtirishni o‘rganishlari kerak. Aynan shu malakalar A.V.Goryachevning boshlang‘ich sinflar uchun “O‘yinlar va masalalarda informatika” kursida maqsadli kiritilgan.[1]

Hozirgi davrda gurkirab rivojlanayotgan multimedia texnologiyasi MTT larning ta‘lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan ilg‘or va yangi texnologiyadir. To‘laqonli multimedia 1986 yilda yaratilgan bo‘lib, u o‘z ichiga bira to‘la matnli, tasvirli, ovozli, videoli, animasiyali va grafikli ma‘lumotlarni oladi.[2]

Hozirgi kunda multimedia atamasi turli xil ma‘noda qo‘llanilmoqda, masalan:

- turli xil axborotlarga ishlov berish tartibini yorituvchi;
- ishlov berish vositalarini qo‘llovchi va amalga oshiruvchi moslama texnologiyasi;
- qo‘llanish vositalari;
- mul`timedia texnologiyasiga asoslangan mahsulot;
- mul`timedia dasturi;
- kompyuterning apparat ta‘minoti (kompakt disklarni o‘qish uchun mo‘ljallangan maxsus qurilmalar);
- axborotning umumlashtirilgan turi statik (matn, grafika) va dinamik (nutq, musiqa, video, animasiya)larning umumlashtirilgan maxsus turi.

MTT lar uchun multimediali yangi texnologiyaning tub mazmuni – bu multimediali kompyuter ta‘limidir. Jumladan:

- didaktik vositalari (slydlar, taqdimotlar va boshqa ko‘rgazmali qurollar) kompyuterda tayyorlanadi;

- bilim materiallarini bolalarga o‘rgatish ham kompyuterlardan foydalanib amalga oshiriladi.

MTT larning ta`lim jarayoniga tatbiq etiladigan multimedia texnologiyasi odatdagi an`anaviy metodlarga nisbatan ma`lum bir afzalliklarga ega:

- bolalarda fikrlash qobiliyatini o`stiradi;
- bola bir vaqtning o`zida ham ko`radi, ham eshitadi (miyaning o`ng va chap yarim sharlari bir vaqtda faollik ko`rsatadi);
- an`anaviy usullarga nisbatan bolalarga o`rgatiladigan materialning hajmi ortadi;
- ta`limiy faoliyatlarning samaradorligi taxminan 1,5-2 marta ortadi;
- MTT bolalarining kompyuter savodxonliklarini shakllantirishga yordam beradi;
- bolalarning ta`limiy faoliyatda toliqib qolmasliklari uchun didaktik materiallarni animatsiyalar orqali uzatish imkoniyati mavjud;
- o`rgatilayotgan materiallarni kichik qismlarga ajratgan holda (yoki bo`lib-bo`lib) namoyish etish yoki qayta namoyish etish mumkin.

Multimedia tushunchasining aniq ta`rifi mavjud emas. Odatda multimedia deganda turli shakldagi ma`lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi. Ayni vaqtda bu avvalo tovushlar, video-elementlarni qayta ishlovchi vositalardir. Shu bilan birga multiplikatsiya (animatsiya) va yuqori sifatli grafika hollarida ham multimedia haqida gapirish mumkin. Kelajakda multimedia vositalari ma`lumotning boshqa turlari, masalan, virtual voqe`lik bilan ishlash imkonini berishi ehtimoldan xoli emas. Multimedia usullarida qurilgan elektron ma`lumotnomalar, ensiklopediyalar, tarjimalar va lug`atlar kishini hayratga soladi. Ta`lim sohasida multimedia auditoriyada o`qilayotgan ma`ruzani talabalarning 25%iga yaqini rostman o`zlashtiradi, xolos. Tajribalar shuni ko`rsatadiki, bir vaqtning o`zida ham ma`ruzani eshitish, ham uni kompyuter ekranida ko`rish va ekranga chiqarishni aktiv boshqarish asli o`zlashtirish sifatini oshiradi. Hozir multimedia o`quv programmalaridan Math CAD, PLUS 6.0 kabi kuchli programmalar mahsulotlari tarkibidan foydalaniladi.[3]

MTT larda multimedia texnologiyasining ta`lim sohasidagi asosiy va yetakchi tashkiliy shakli – kompyuterli mashg`ulotdir. Ushbu texnologiya bo`yicha

mashg‘ulotlar 30 daqiqa davomida, kompyuterlardan foydalanib olib borilgani uchun, o‘rtada 15 daqiqadan so‘ng 5-10 daqiqali o‘rganiladigan materialga tegishli o‘yin mashg‘uloti yoki suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Shundan keyin, yana mashg‘ulotning 15 daqiqasi davom ettiriladi.[4]

Hozirgi kunda turli xil multimedia ta’lim-tarbiya vositalarini ishlab chiqish va ularni tatbiq etish jadal rivojlanayapti. Lekin hanz ulardan MTT larning ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish uslubiyoti ishlab chiqilmagan. Shuning uchun, MTT tarbiyachi-pedagoglari multimedia vositalarini multimedia texnologiyasi sifatida qabul qilmoqdalar, hatto ayrim maqolalarda shunday qarashlar yozilmoqda.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib quyidagi xulosaga kelish mumkin:

- maktabgacha ta’limga tegishli o‘ziga xos va mos multimedia texnologiyasidan foydalanish, yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, yaratish va ularning metodikasini shakllantirish;

- MTMLarni imkoniyati boricha yangi kompyuterlar bilan ta’minlash (to‘la kompyuterlashtirish);

- oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilarini MTT da axborot texnologiyalarini, shu jumladan, multimedia texnologiyasini o‘quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga ko‘proq jalb etish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. L.R.Mirjalolva va boshqalar Maktabgacha ta'limda zamonaviy yondashuvlar moduli bo'yicha O'quv-uslubiy majmua T.: 2017y.
2. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2016y.
3. Xalq ta'limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi: [www.multimedia.uz](http://www.multimedia.uz)
4. Maktabgacha ta'lim vazirligi: [www.mtv.uz](http://www.mtv.uz).
5. MU Olamova–Farg‘ona davlat universiteti II–bosqich magistranti RN To‘ychieva–QQPI IV–bosqich talabasi  
<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=1184191814673959234&btnI=1&hl=ru>

## ABDULLA AVLONIYNING YOSH AVLOD TA'LIM-TARBIYASI YO'LIDAGI BUYUK XIZMATLARI

**Ma'murova Diyora Alisher qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Xorijiy tillar fakulteti talabasi

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning hayoti va ijodiy merosi bugungi kunda o'rganilishi zarur bo'lgan dolzarb masala sifatida talqin qilingan.

**Kalit so'zlar.** Jadidchilik, jaholat, ma'rifat, byurokratik qarash, ong, mafkura, ilm, chor hukumati, erkinlik, ma'naviyat.

### THE GREAT SERVICES OF ABDULLA AVLANI ON THE PATH OF EDUCATION AND TRAINING OF THE YOUNGER GENERATION

**Annotation.** The article describes the life and creative heritage of the Uzbek enlightener Abdulla Avlani as a topical issue that needs to be studied today.

**Keywords.** Intensity, ignorance, enlightenment, bureaucratic attitude, consciousness, ideology, knowledge, Tsarist government, freedom, spirituality.

O'zbek xalqi o'ziga xos ma'naviyat va madaniyat ildizlariga ega. Bu mamlakatda yashab ijod qilgan juda ko'p buyuk siymolar mavjudki, ular qoldirgan boy adabiy meros bugungi avlodlar uchun dasturul amal bo'lib xizmat qila oladi. Xususan, bu buyuk allomalar ichida Abdulla Avloniy pedagogik merosi alohida mazmun kasb etishi orqali mavjud manbalardan o'ziga xos tarbiyaviy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Abdulla Avloniy XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma'rifatparvar shoir, dramaturg, journalist, olim davlat va jamoat arbobidir. Turkiston madaniy hayotida yuz bergan inqilobiy o'zgarishlar davrida millatning tom ma'nodagi rahnamosi sifatida jadidlarning yetakchi g'oyalarini

ilgari surgan xalq yetakchisi hisoblanadi. Avloniy butun umri davomida ustozlik bilan shug‘ullanib, ko‘plab o‘zbek xalqi farzandlarini ilm bulog‘idan suv ichishlariga ko‘maklashdi. U yaratgan ta’rixiy asarlarning tarbiyaviy ahamiyati chuqur ma’naviy mazmunga ega. Chunonchi, ushbu she’riy satrlarda ham adibning nechog‘li ilm fidoiysi ekanligi aniq ko‘rinadi:

Topar ilm ila odam o‘g‘li kamol,  
 Yeturmas kamola jamol ila mol,  
 Kerak o‘rtanur ilm uchun sham’dek  
 Tanimoq xudoni ilmsiz maqol...»<sup>4</sup>,

«Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur. To‘g‘ri yo‘lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratdan mas’ul bo‘lishimizga sabab bo‘lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur... Ilmning foydasi shu qadar ko‘pdirki, ta’rif qilg‘on birla ado qilmak mumkin emasdur. Bizlarni ilm jaholat qorong‘ulig‘idan qutqarur, madaniyat, insoniyat, ma’rifat dunyosig‘a chiqarur, yomon fellardan, buzug‘ ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur...»<sup>5</sup>

Avloniy jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi sifatida millat bolalarini savodli qilish bilan birga, ularni ma’naviy-madaniy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiluvchi badiiy-publisistik asarlar ham yaratdi. O‘zining yashash manzilida ochgan “Usuli jadid” maktablarida o‘qitish manbasi sifatida “Adabiyot yoxud milliy she’rlar”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni”, “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi darslik va o‘qish kitoblarini tuzdi.

Ma’lumki, bolalarga ifodali o‘qishni o‘rgatish adabiy o‘qish darslarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunday o‘qish adabiy matnni chuqur tushunishga olib boradi. Badiiy asarni chiroyli, ifodali qilib o‘qish natijasida asar voqealari o‘quvchi ko‘zi oldida namoyon bo‘ladi. Avloniy savod chiqarishga qanchalik katta e’tibor

<sup>4</sup> A.Avloniy. Toshkent tongi. - T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa‘nat nashriyoti, 1979,211-212- betlar

<sup>5</sup> A.Avloniy. Toshkent tongi. - T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa‘nat nashriyoti, 1979, 274-bet



bergan bo‘lsa, tushunib o‘qishga va badiiy asarni his qilishga ham shunchalik ko‘p diqqat qilgan.<sup>6</sup>

Avloniy yo‘qsil bolalarni o‘qitishga ham alohida e‘tibor berdi. 1909 yilda o‘zi boshchiligida “Jamiyati xayriya” tuzib, yetim bolalarni o‘qitdi. Xalqning ongini zaharli g‘oyalardan asrash maqsadida 1913 yilda “Turon” teatr truppasini tashkil etishda faol qatnashdi. Teatrda millat ma‘naviyatini o‘stirishga xizmat qiluvchi ko‘plab asarlar qo‘yilishi uchun bir qancha chet tilidagi adabiyotlarni o‘zbek tiliga tarjima qildi. Ushbu asarlardagi ilg‘or g‘oyalarni tomoshabin yuragiga yetib borishi uchun ta‘sirchan badiiy mushohadalardan foydalandi.

Avloniyning sahna asarlari Toshkent, Farg‘ona, Andijon, Qo‘qon, Xo‘jand kabi shaharlarda qo‘yilgan. Bu asarlarda XX asr boshlaridagi Turkiston hayotining keng manzaralari o‘z ifodasini topgan.<sup>7</sup> Siyosiy va ma‘naviy qaramlik ustunlik qilgan o‘sha davrda odamlar ongiga ta‘sir qilishning yagona yo‘li ularda ma‘rifatni tarkib toptirishdan iborat edi. Shu bois uning she‘riyatida xalqni uyg‘otish kayfiyati ustunlik qiladi:

Har kun o‘luram shomg‘acha men g‘amga giriftor,  
 Har shab yonaram otasha parvona kabi zor,  
 Hech kimsa emas bu meni ahvolima voqif,  
 Men xastayamu millatim o‘lmish nega bemor.<sup>8</sup>

O‘qitishning sinf-dars tizimidagi ko‘rinishi va dunyoviy bilimlarning keng o‘rganilishi chor hukumatining mustamlakachilik paytidan boshlab kirib keldi. Bu haqda o‘zi shunday degan edi: «Maktabimda yer, odamlar, tog‘- Toshlar, daryo, osmon haqida suhbatlar o‘tkazmoqqa harakat qilganimni Mirobod johil kishilari bilishib, meni kofir bo‘lding deb maktabimni yopdilar.»<sup>9</sup> Ko‘rinadiki, rus malaylari bu maktabda tarbiyalanayotgan bolalar istiqbolidan cho‘chiganlar va turli bahonalarni va‘j qilib maktabni yopganlar. Ammo bu qarshiliklar Avloniyni o‘z yo‘lidan qaytara olmagan,

<sup>6</sup> 1U. Dolimov. Abdulla Avloniy va maktab. «O‘zbek tili va adabiyoti», 1990,4-son.

<sup>7</sup> <https://kh-davron.uz> > muborak-kin, Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq, 16.06.2018

<sup>8</sup> L.Xalilov tahriri ostida, A.Avloniy, Turkiy Guliston yoxud axloq, 4 bet

<sup>9</sup> A.Boboxonov, M Mahsumov. Abdulla Avloniyning pedagogik faoiyati va ta‘lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlari. -T.: «O‘qituvchi», 1966,43-bet.

albatta! Keyinchalik Toshkentning Degrez mahallasida ikki sinfdan iborat maktab ochdi. «Maktabda bolalarga jo‘g‘rofiya, tarix, hisob, handasa, hikmat (fizika) kabi fanlar bilan birga ona tili va adabiyot fanlaridan bilim beradi».<sup>10</sup>

Bolalarni xat-savodini chiqarishga ko‘mak uchun yaratilgan “Birinchi muallim” kitobining mantiqiy davomi sifatida “Ikkinchi muallim” kitobini nashr etadi. Bu kitoblarni yaratishda shu paytgacha qo‘llanilgan darsliklardan iqtibos oladi. Bu haqda Avloniy yozadi: «Muhtaram muallim afandilarimizdan rijo qilurmanki, bizning «Muallimi avval» («Birinchi muallim»)imizdan ham olib, tajriba qilib, o‘qutub ko‘rsalar. Chunki har gulning bir isi, har mevaning bir ta‘mi-mazasi bordur, bu ta‘m esa tajriba sohiblarini kashfu ma‘lum o‘lur...»<sup>11</sup>. Darslikning birinchi qismida harfning yozilish shakllari tushuntiriladi, ikkinchi qismida didaktik xarakterdagi kichik-kichik matnlar beriladi.

Avloniyning katta yoshdagi bolalar uchun yaratilgan (o‘z ta‘biri bilan shunday atagan) “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari tarbiya xususidagi mukammal asar sanaladi. Adib asarni fors shoiri Sa‘diy Sheroziyning “Guliston” asaridan ilhomlanib yozganligini qayd etadi: “Ban bu asari nochizonami bir necha muallim birodarlarimning iltijolari ila yozmoq va nashr qilmoqg‘a g‘ayrat va jasorat qilmish edim. Alhamdu lilloh val minna ikkinchi tab‘ihada muvaffaq o‘ldum, chunki Turkiston maktablarida o‘z shevamizda (ya‘ni o‘zbek tilida demoqchi) yozilmish mukammal “Axloq” kitobining shunday asarga tashna va muhtoj ekanlig‘i o‘zum muallimlar jumlasidan o‘ldig‘imdan manga ham ochiq ma‘lum o‘ldi”.<sup>12</sup>

Manbalarda keltirilishicha Avloniy o‘zbek xalqini maorif va madaniyatini rivojlantirish bilan birga qo‘shni afg‘on xalqining ijtimoiy siyosiy hayotida o‘ziga xos rol o‘ynagan. U ma‘lum muddat Afg‘oniston xalq maorifi vaziri, so‘ng Sho‘rolar Ittifoqining Afg‘onistondagi konsul-elchisi vazifalarida xizmat qilgan.<sup>13</sup> Ko‘rinadiki Avloniy dunyoda jamiki insoniyat borki, u xoh o‘zbek bo‘lsin, xoh tojik, hattoki rusiyabon bolalar bilan ham o‘z bilimlarini baham ko‘ra olgan. Avloniy yosh avlodni

<sup>10</sup> A. Zunnunov. O‘zbek viloyati metodikasi tarixidan ocherklar, T.: «O‘qituchi», 1980,11-bet.

<sup>11</sup> U.Dolimov. A.Avloniy va maktab. «O‘zbek tili va adabiyoti», 1990-yil, 4-son.

<sup>12</sup> L.Xalilov tahriri ostida, A.Avloniy, Turkiy Guliston yoxud axloq, 3 bet

<sup>13</sup> <https://tafakkur.net> Abdulla Avloniy hayoti va ijodi

barkamol tarbiyalash orqali kelajakdagi hurlik orzusining ro‘yobini ko‘rgan. Ana shu niyatlarning mevasi bugungi kunda Yangi O‘zbekiston timsolida aniq ko‘zga tashlanmoqda. Avloniy orzu qilgan kelajak mustaqillik tufayli yuksak yangilanishlarga yuz tutmoqda. Jadidchilik maktablari “yangi usul” degan ma’noni anglatganidek, bugungi O‘zbekiston ham yangi rivojlanish yo‘lidan davom etmoqda.

2017-yilning 3-avgust kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Ushbu uchrashuvda madaniyat va san’at sohasida yuzaga kelgan ko‘plab muammolar o‘rtaga tashlandi. Mazkur yig‘ilishda madaniyat, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va san’at sohasini tubdan isloh qilish maqsadida amalga oshiriladigan keng miqyosli ishlar xususida so‘z bordi, yosh iste’dodlar tarbiyasi, madaniyatimiz va adabiyotimizni rivojlantirish maqsadida yangi g‘oya, tashabbus va takliflar bildirildi: “Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o‘ta muhim masala borki, unga alohida to‘xtalib o‘tish zarur deb bilaman, u ham bo‘lsa, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog‘liq. Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun, haqiqatdan ham, yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir.”<sup>14</sup> Shu ma’noda Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o‘zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langanligi adibning boy pedagogik merosi ta’lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni o‘quvchilar qalbida shakllantirishda axloqiy va ma’naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda milliy maktab va qimmatbaho manba bo‘lib xizmat qilishi aniqdir.

Turli xalqlar madaniyatida odob-axloq mezonlari o‘ziga xosdir. O‘zbek xalqidagi odob-axloq mezonlarining tarkib topishida diniy e’tiqod, jamiyatning siyosiy-iqtisodiy holati, xalqning turmush tarzi, tabiiy-iqlimiy sharoit va boshqa shu kabilar ta’sir ko‘rsatgan.<sup>15</sup> Shunday ekan bobomiz Abdulla Avloniy qoldirgan me’ros biz yosh avlod ta’lim-tarbiyasi biz uchun dastak bo‘lomog‘i lozim.

<sup>14</sup> Shavkat Mirziyoyev. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. “Xalq so‘zi”, 2017-yil 4-avgust

<sup>15</sup> “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda loyiha metodining ahamiyati” M. Olamova, D.Ma’urova Oriental Journal of Social Sciences SJIF for 2022:5.908 215-221b. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=8409108218652179359&btnI=1&hl=ru>

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A.Avloniy. Toshkent tongi. - T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va sa'nat nashriyoti, 1979,211-212- betlar
2. A.Avloniy. Toshkent tongi. - T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va sa'nat nashriyoti, 1979, 274-bet
3. U. Dolimov. Abdulla Avloniy va maktab. «O'zbek tili va adabiyoti», 1990,4-son.
4. <https://kh-davron.uz> >muborak-kin, Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq, 16.06.2018
5. L.Xalilov tahriri ostida, A.Avloniy, Turkiy Guliston yoxud axloq, 4 bet
6. A.Boboxonov, M Mahsumov. Abdulla Avloniyning pedagogik faoiyati va ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlari. -T.: «O'qituvchi», 1966,43-bet.
7. A. Zunnunov. O'zbek viloyati metodikasi tarixidan ocherklar, T.: «O'qituchi», 1980,11-bet.
8. U.Dolimov. A.Avloniy va maktab. «O'zbek tili va adadiyoti», 1990-yil, 4-son.
9. L.Xalilov tahriri ostida, A.Avloniy, Turkiy Guliston yoxud axloq, 3 bet
10. <https://tafakkur.net> Abdulla Avloniy hayoti va ijodi
11. Shavkat Mirziyoyev.Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. “Xalq so'zi”, 2017-yil 4-avgust
12. “Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda loyiha metodining ahamiyati” M. Olamova, D.Ma'murova Oriental Journal of Social Sciences SJIF for 2022:5.908 215-221b. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=8409108218652179359&btnI=1&hl=ru>
13. MU Olamova–Farg'ona davlat universiteti II–bosqich magistranti RN To'ychieva–QQPI IV–bosqich talabasi <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=1184191814673959234&btnI=1&hl=ru>

## PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA G'OYAVIY-MAFKURAVIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

**Dadaboyev Suhrob Mansurjonovich**

Farg'ona Davlat Universiteti “Pedagogika nazariyasi va tarixi” yo‘nalishi  
2-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada professional ta'lim muassasasi talabalarida g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish hamda ularda kasbiy, huquqiy, milliy, ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy va madaniy jihatdan talabalarning kompetentligini rivojlantirish masalalari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** “Professional ta'lim”, “g'oya”, “mafкура”, “kompetentsiya”, “kompetentlik”, “g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlik”.

## DEVELOPMENT OF IDEOLOGICAL AND IDEOLOGICAL COMPETENCE IN STUDENTS OF PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

**Annotation:** This article talks about the development of ideological and ideological competence of students of professional educational institutions and the development of professional, legal, national, spiritual-educational, ideological and cultural competence of students.

**Key words:** "Professional education", "idea", "ideology", "competence", "competence", "ideological-ideological competence".

Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni 2020 yil 23 sentyabr<sup>16</sup> kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi

---

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni

ta`lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Mazkur Qonunga asosan ta`lim sohasidagi asosiy printsiplar, ta`lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi.

Qonunga ko'ra, davlat oliy ta`lim, o'rta maxsus, professional ta`lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta`lim tashkilotlari va ularning filiallari prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi.

Prezidentimiz tomonidan 2019 yilning 6 sentyabrida «Professional ta`lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmon<sup>17</sup>, ushbu muhim hujjat ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta`lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi qarori<sup>18</sup> qabul qilinib, professional ta`limni tashkil etish va amalga oshirish tartiblari belgilab berildi.

Bugungi kunda respublikamizda professional ta`lim tizimiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, joriy yilda Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning 2022 yil 16-iyundagi «Oliy va o'rta maxsus ta`lim vazirligi boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-284-son qarori<sup>19</sup> qabul qilingani bunga yaqqol misol bo'ladi. Qarorga ko'ra Oliy va o'rta maxsus ta`lim vazirligining markaziy apparati tuzilmasida Professional ta`lim-o'quv metodik muvofiqlashtirish bosh boshqarmasi negizida Professional ta`lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti tashkil etilgani va oliy va o'rta maxsus ta`lim vazirining professional ta`limni rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimi kiritilishi bugungi kunda ushbu tizimga yanada e'tibor berilayotganidan dalolat beradi.

Bilamizki professional ta`lim mehnat bozoridagi kadrlarga bo'lgan real ehtiyoj, ish beruvchilarning takliflari hamda "Hayot davomida ta`lim olish" printsipli asosida

<sup>17</sup> 2019 yilning 6 sentyabrida «Professional ta`lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmon

<sup>18</sup> Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta`lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi qarori

<sup>19</sup> Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning 2022 yil 16-iyundagi «Oliy va o'rta maxsus ta`lim vazirligi boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-284-son qarori

ta`lim olishga mo`ljallangan bo`lib ushbu tizimda 11-sinfni tamomlagan o`quvchilar va turli o`spirin yoshdagi o`quvchilar taxsil oladi.

Professional ta`lim muassasasi talabalarida g`oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish huquqiy madaniyatning muhim omili xisoblanadi. G`oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, muammoning falsafiy, pedagogik-psixologik adabiyotlarda o`rganilishi keng yoritib berilgan.

Talabalarda g`oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning informatsion-kognitiv komponenti g`oya va mafkuralarga doir axborotlar ustida ishlash, axborotlarni mustaqil tahlil etish va to`g`ri xulosalar chiqarish, kommunikativ ta`sir ko`rsatish usullarini bilish va amaliyotda qo`llay olishni ko`zda tutadi.

Talabalarda g`oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning faoliyatga doir komponenti mustaqil ravishda g`oyaviy-mafkuraviy qarashlarni taqqoslash, o`zining g`oyaviy immunitetini mustahkamlash, g`oyaviy-mafkuraviy targ`ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish, jaholatga qarshi mahrifat bilan kurashishning samarali usullarini qo`llay olishni o`z ichiga qamrab oladi.

Talabalarda g`oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning aksiologik komponenti talabalarda jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarga aksiologik ong, munosabat, yo`nalganlikni tarkib toptirish, bo`lajak kasb egalarida kasbiy faoliyatga qadriyatli yondashuvni ko`zda tutadi.

Talabalarda g`oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish integral tavsifga ega bo`lib, emotsional-motivatsion, informatsion-kognitiv, faoliyatga doir va aksiologik komponentlar birligi va o`zaro aloqadorligini taqozo etib, hamkorlik pedagogikasi, mafkuraviy profilaktika, mafkuraviy pedagogika va faol fuqarolik pozitsiyasining imkoniyatlarini kengaytirishni talab etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni
2. 2019 yilning 6 sentyabrida «Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni
3. Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori
4. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning 2022 yil 16-iyundagi «Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-284-son qarori



## REVIEWS OF PREPARATION OF FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL ACTIVITY

**Juraxanova Saidaxon Akmalxon qizi**

Student of Navai State pedagogical Institute

**Kenjayeva Surayyo Boymurod qizi**

Student of Navai State pedagogical Institute

Scientific adviser: **Burxanova Ma'mura Gulyamovna**

E-Mail: [juraxanovasaida@gmail.com](mailto:juraxanovasaida@gmail.com)

**Annotation:** The article deals with such issues as the preparation of future educators for professional and pedagogical activities, the factors that shape the quality of their competence, the areas of professional development.

**Keywords:** Future educator, Professional and pedagogical activity, competence, information and communication technologies, design, self-education.

In educational system all sectors are being recognized by the international community. Changes in the educational system, in particular, that fits the description of a radical shift are occurring in all areas of business, but they also lay a great deal of responsibility on each individual who works there.

Another indication of serious consideration given to the sector's development is the President of the Republic of Uzbekistan's Resolution No.PP-4963, "On Measures to Support research Activities in the Field of Public Education and the Introduction of a System of Continuous Professional Development". The term "lifelong professional development training" is now being used to describe the yearly training that is provided for employees working in public education. Additionally, it places a number of obligations on institutions of higher learning that train educators.

Since graduates each year should help to enhance quality indicators in addition to expanding the industry’s workforce. To do this, higher education institutions that provide teacher preparation programs should take into account the fundamentals of their operations as well as the training of employees in advanced pedagogy and information technology who are also fully developed and prepared for practice. This is crucial for early childhood education sector, which hasn’t really developed as a separate system.

The cornerstone of development in any field is acknowledge to be a highly competent specialist. “Professional competence does not mean that a specialist has acquired particular knowledge and skills, but rather that a specialist has acquired integrative knowledge and actions in each independent area. The ability to look for a new information, process it, and use it in their work area additional needs for competence. It also requires ongoing professional knowledge expansion.

The incorporation of specialized technology and resources in educational activities, designed in accordance with the needs of the content and methodology of studying and teaching ICT, is the second level (technological, thematic). The third level (psychological-pedagogical, methodological, creative) entails the creation of one’s own electronic educational tools and the use of ICT to the resolution of both professional and private issues. The professional competency of aspiring educators is improved when they possess a sufficient level of ICT training.

The design of the educational process offers the instructor a variety of opportunities. The following processes are used to prepare future educators for project activities: improving information selection and processing skills (selecting and using the right information); developing expert and analytical skills (creativity and critical thinking); developing planning skills (clear formulation of the goal, identification of key steps, deadlines, and means to achieve the goal);

--construction of a positive attitude toward project activities (initiative, dedication, commitment to work in line with the stated plan and schedule); growth of

topic skills (anticipated results of activities). Design and careful preparation have a qualitative effect on enhancing a prospective teacher’s abilities.

Any professional, in general, would benefit from the habit of continually improving oneself. In the area of teaching, it is much more crucial. Future educators should be familiar with these and other professional competency areas so they can work independently on them in their educational activities.

- Professional (complete mastery of science-based subjects, ongoing innovation awareness);

- Psychological and Pedagogical (work with students and parents, relationship-building);

- didactic (pedagogical technologies, methods, forms, tools, and techniques; examples: the potential of didactic games );

- legal (understanding of the law as an individual and citizen, as well as normative documents as a specialist);

- fluency in a foreign language, frequent access to sources in that language, and acceptance of sources from abroad given the circumstances and opportunity in a given location;

- thorough knowledge of computer and information technologies;

- protection of one’s health (health is the foundation for realizing one’s potential in any activity, including education);

- Hobbies and interests that fit into the national mindset; professional ethics.

As a result, a current area of scientific and applied research is the continued study of the training of future educators, particularly the creation of methods for enhancing its pedagogical component.

**References:**

1. Burkhanova M.G. (2021). SOCIO-PHILOSOPHICAL LOOK OF A CULTURAL MAN. ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (104), 422-425. <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2021.02.94.6> Doi:
2. Burkhanova M.G. (2022). AXIOLOGICAL ANALYSIS OF STUDENT MORALITY. European journal of research development and sustainability. Vol 3 N 2. <https://www.scholarzest.com/>
3. Haydarov F.I , Muslimov N Pedagogik kadrlar tayyorlash istiqboli. Pedagogik ta'lim. T. 6 -son. 2009
4. Muslimov N.A, Usmonboyeva M.H, Sayfurov D.M, To'rayev A.B. “Pedagogik komponentlik va kreativlik asoslar” Toshkent. 2015.

## MUSIQA DARSLARIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI

**Nomozova Gulbaxor Nodirovna**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Musiqqa ta'limi fakulteti 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodlari, musiqa ta'limida dars samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullari, interfaol metodlar turlari va maktab o'quvchilarini ham ijroviy, ham ijodiy barkamollikka erishishlari uchun usul va texnologiyalar foydalanish yo'llari o'rin egallagan.

**Kalit so'zlar:** interfaol, texnologiya, klaster, metod, kuy, ohang.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlarga, innovatsion va axborot texnologiyalarga, multimedialarga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bunga sabab, shu davrgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarga faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishga o'rgatilgan edi. Innovatsion texnologiyalar esa egallayotgan bilimlarni yechimini o'zlari qidirib topishlari, mustaqil o'rganib tahlil qilib, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqishlariga o'rgatadi. **Innovatsion texnologiyalar**- pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchi faolliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritadi va uni amalga oshiradi. «**Interaktiv**» **metod** deganda biz jamoa bolib fikrlash degan ma'noni tushunamiz. «**Innovatsiya**» so'zi esa «**Yangilik kiritish**» degan ma'noni anglatadi. **Innovatsion texnologiyalarni** eng asosiy maqsadi o'qituvchi va o'quvchilarni belgilangan maqsadga qaratilgan natijaga hamkorlikda tez va oson erishishidir. O'qituvchi bu jarayonda «Boshqaruvchi», «Yo'naltiruvchi» vazifasini bajaradi. o'quvchilar esa asosiy «bajaruvchilar» vazifasini amalga oshiradilar. O'qitish jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlay olsalar, izlansalar, xulosa chiqara olsalar,

guruhlar esa bir-birlariga baho bera olsalar, bu vaqtda o‘qituvchi ularga bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yaratib bersalar, bu o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Yuqoridan korinib turibdiki, maqsadni amalga oshirishda kafolatlangan natijaga erishish o‘quvchilarni hamkorlikdagi faoliyati ular qo‘ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vosita ya’ni texnologik jarayonga va belgilangan ketma-ketlikka bog‘liq. O‘qituvchi va o‘quvchilarni maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiya tanlashlari ularning ixtiyorida. Chunki ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga qaratilgan. Bunda o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, kompyuter bilan ishlash, tarqatma materiallarni, chizma va slaydlarni, turli adabiyotlardan, axborot texnologiyalardan xohish-istaklariga qarab tanlashga bogliq. Qisqa qilib aytganda ta’limning markaziga olib chiqish kerak. O‘qituvchi har bir darsni yaxlit holatga ko‘ra bilimni va uni tasavvur etish uchun dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo‘lishi uchun oldindan puxta oylab tuzilgan bo‘lishi darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bogliq. Darsning texnologik xaritasini qay korinishda yoki shaklda tuzilishi oqituvchining tajribasi o‘z oldiga qoygan maqsad hamda vazifalariga bog‘liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo‘lmasin unda dars jarayoni «yaxlit» holda aks ettirgan bo‘lishi hamda belgilangan maqsad-vazifalar kafolatlangan natijada dars jarayonida to‘liq o‘z ifodasini topgan bo‘lishi shart. Musiqa madaniyatini kengroq o‘rganish uchun kompozitorning uy muzeylariga, konsertlarga, musiqiy festivallarga, musiqiy tanlovlarga sayohat qilish orqali yoki video tasma yordamida biror mavzuga oid musiqiy sayohat qilsih orqali uyushtirila. Sayohat obyektlari dars mavzusiga bevosita aloqador bolishi muhim shartlardandir. Bu oz navbatida sinfda o‘tilgan darslardan ancha samaraliroq bo‘lib, o‘quvchilar ongida uzoq saqlanib qoladi. Yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda maktabda o‘qitiladigan barcha fanlar qatori nafosat tarbiyasining tarkibiy qismi bo‘lgan musiqa madaniyati darslarini innovation texnologiyalar asosida o‘qitishning ahamiyati katta. Musiqa fani maktabda boshqa fanlarni o‘zlashtirishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Musiqa jonli san’at turi sifatida davr, hayot, tabiat va

inson his-tuygularini, orzu-istaklarini aks ettiradi. Uni quvontiradi, o‘ylantiradi va hayotdan ozuqa olishga xizmat qiladi. Musiqa inson his-tuygularini, orzu-istaklarini o‘ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va bolaning hissiyotlariga faol tasir korsatadi. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu Nasr Forobiy aytganlaridek, «Bu fan tana sog‘ligiga foydalidir». Musiqa madaniy hayotimizda keng o‘rin tutgan, insonni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san‘at turidir. Har bir insonni manaviy shakllanishida oila, jamiyat, maktab, san‘atning ahamiyati katta. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyaning ko‘plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo‘lib, inson atrofdagi go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi. Musiqa — inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniga ega bo‘lib, uni nafosat olamiga olib kiradi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma’naviy ozuqa beradi. Maktabda musiqa o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish, ularni zamon talabiga javob bera oladigan barkamol inson qilib voyaga yetkazishdir.

Maktabda musiqa darslarini innovation texnologiya asosida o‘qitishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- innovation texnologiyalar asosida bo‘shlangich sinf o‘quvchilarni musiqa san‘atiga bo‘lgan qiziqishi va mehr-muhabbatini oshirish;
- musiqiy faoliyatlar jarayonida innovation texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarni musiqiy qobiliyati, musiqiy uquvi, ovozi, diqqat-etibori va ijodkorlik hisularini o‘stirish;
- musiqiy asarlarni badiiy-g‘oyaviy mazmuni vositasida axloqiy ruhda tarbiyalash;
- musiqa darslarida o‘quvchilarni interfaol metodlar vositasida kasb-hunarga yo‘naltirish, mehnatga, tabiatga muhabbat, Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat tuyg‘ularini shakllantirish.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o‘qituvchining kasbiy va pedagogik mahoratiga bog‘liq. Har qanday san‘atkor ham maktabda musiqa

madaniyati darolarini olib borolmaydi. Buning uchun musiqa o‘qituvchisi bolalarni sevadigan, pedagogika, psixologiya, informatika, bolalar fiziologiyasi, musiqa o‘qitish metodikasi kompyuter savodxonligi, interfaol metodlarni, innovatsion ta’lim texnologiyalarini hamda o‘z musiqiy kasbiy fanlarini puxta o‘zlashtirgan inson bo‘lishi kerak. Musiqa o‘qituvchisi o‘z kasbiga vabolalarga mehr qo‘ygan, yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan shaxs bo‘lishi lozim. Donishmand xalqimiz azal-azaldan kuy va qo‘shiqni bola qalbiga tez yo‘l topa olishi, uning ruhiyatiga ijobiy tasir ko‘rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr-oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini anglab yetgan. Oilada farzandni qo‘shiq aytishga, soz chalishga o‘rgatish ota-ona orzusi hisoblangan. Bola musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, musiqadan umrbod ozuqa oladi. Chunki bola ilk yoshidan hali yurishni, so‘zlashni bilmay turib, musiqani eshitib, turli qo‘l harakatlari bilan musiqaga munosabatini bildiradi. Shuning uchun azaldan har bir oilada musiqa cholg‘u asboblardan dutor, doira, rubob saqlash urf-odat bo‘lib qolgan. Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson sof qalb egasi, yuksak ma’naviyatli, go‘zallikni his eta oladigan inson bo‘lishi kerak. Xalqimizning kelajagi, mustaqil O‘zbekistonning istiqboli ko‘p jihatdan o‘qituvchiga, uning dunyoqarashiga, fidoyiligiga, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, ixtisoslarga doir fanlarni o‘qitish va pedagogik mahoratni egallash, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatish bugungi kun talabidir. Uzluksiz pedagogik ta’lim tizimini amalga oshirilishi musiqa bilan o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ularni qayta-tayyorlash ishlari diqqat markazidadir. O‘qituvchilik kasbi sharafli, lekin juda murakkab va mashaqqatli kasbdir. O‘qituvchi musiqa nazariyasini egallashi bilan birga, bolalarni sevishi, pedagogik amaliyotni o‘tagan bo‘lishi kerak. Chunki, maktab hayotidagi pedagogik jarayon juda xilma-xildir. Bu esa musiqa o‘qituvchisidan puxta bilim, amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi kiyinish madaniyati va nutq madaniyatiga ega bo‘lishi kerak. U o‘qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko‘rishi hamda ularni barkamol



inson sifatida kamol topishiga ko‘maklashishi, har bir darsni o‘quvchilarni hayot tajriba bog‘lagan holda olib borishi, turli musiqa o‘qitish metod, innovatsion texnologiyalar, ko‘rgazmali qurollar, kompyuter slayd, tarqatma materiallaridan foydalanishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Avliyoqulov N. H. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. – T.: 2001.
2. Azizxo‘jayeva N.N Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – T.:2006.
3. Ishmuhamedov R va boshqalar Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari tarbiyachi – o‘qituvchilari va guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar) – T.: “Istedod”, 2010.
4. G. Sharipova. Musiqa o‘qitish metodikasi (ma’ruzalar matni). TDPU 2000y.

## SAN’AT NAFOSATGA CHORLAYDI

(Sharq mutafakkirlarining musiqa san’ati haqidagi fikrlari)

**Xolmirzayeva Gulnoza Alijonovna**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Musiqa ta’limi fakulteti 2- bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sharq mutafakkirlarining musiqa san’ati haqidagi fikrlari, ularni musiqa madaniyati darslarida qo‘llash metodlari, musiqa ta’limida dars samaradorligini oshirishda ulug‘ mutafakkirlarning risolalalari ilmiy ishlaridan foydalanish usullari va maktab o‘quvchilarini ham ijroviy, ham ijodiy barkamollikka erishishlari uchun ilmiy meroslaridan, yaratgan asarlaridan foydalanish yo‘llari o‘rin egallagan.

**Kalit so‘zlar:** metod, kuy, ohang, asar, risola, musiqashunos, cholg‘u.

Sharq allomalari musiqa san’atiga yuqori baho berib, uning inson ruhiga ma’naviy quvvat bo‘lib xizmat qilishini alohida ta’kidlaganlar. Musiqa insonga ma’naviy ozuqa bo‘lishi bilan birga uni tarbiyalashda ham ahamiyatlidir. Chunki, ruhi tetik va barkamol kishi o‘zida yaxshi insoniy fazilatlarni mujassam eta oladi.

Farobiy: “musiqa ilmi shu ma’noda foydaliki, u o‘z muvozanatini yo‘qotgan odamlar xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo‘lgan odamlar xulqining muvozanatini saqlab turadi”-degan. Ibn Sino esa : “bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo‘llamoq kerak. Biri, bolani asta-sekin tebratish, ikkinchisi esa, uni uxlatish uchun aytish odat bo‘lib qolgan musiqa va allalashdir”- deya musiqani ta’riflagan. O‘zbek xalqi ma’naviy dunyosining shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatgan ulug‘ zotlardan biri – bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo‘tabar nomi, ijodiy merosining boqiyliqi, badiiy dahosi, zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo

faxrlanib so‘z yuritimiz. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g‘ururi, sha‘nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san‘atkoridir.

Olimlarning guvohlik berishicha, ko‘pincha asarlarida ma‘lum darajada musiqa san‘ati masalalariga e‘tibor qaratgan. Uning “Majolis un-nafois” asarini o‘sha davr musiqiy hayotning qomusi deb atash mumkin. Unda Navoiy o‘z zamoni musiqa san‘atida chuqur iz qoldirgan kishilarga qisqa, lekin juda aniq tasniflar bergan.

Alisher Navoiy nozik ta‘b, yuksak zakovat egasi sifatida musiqani sezib tinglar, chin-dildan zavqlanardi. Shoir iste‘dodli san‘atkorlarga hamisha g‘amxo‘rlik qilardi va yoshlarning kamoloti uchun tinmay qayg‘urardi. Insonning kamolotga yetishuvida asosiy rol o‘ynovchi vositalardan biri- “Musiqa san‘atidan bahramand bo‘lishdir. Musiqani sevmagan shoir – qalbi huvillagan chorbog‘, hazon bo‘lgan bahordir. Musiqani idrok etmagan shoir, nim shoirdir” – deydi Navoiy.

Alisher Navoiyning ta‘kidlashicha, “San‘at ham, san‘atkor ham naqadar to‘g‘ri va haqqoniy bo‘lishi lozim. Chunki , san‘atdagi to‘g‘rilik va haqqoniylik xalqqa chinakam foyda keltirishi mumkin. San‘atkor o‘z san‘atini xalqqa manzur qila olishi uchun o‘z ustida tinimsiz mashq qilishi, bu ishga safarbar etib, doim jon-dili bilan kirishmog‘i va o‘z mahoratini namoyish etishda, ya‘ni san‘at asarini chin qalbdan ijro qilib tinglovchilar ko‘nglini shod etishi lozim”.

Alisher Navoiyni adabiyot ahli turkiy adabiy tilining asoschisi deb bilsalar, san‘atshunoslar uning musiqashunoslikda ham yetuk bilimdon ekanligini e‘tirof etadilar. Jumladan, bevosita Navoiy tashabbusi bilan yetti musiqiy risola yaratilgan. Shuningdek, uning asarlari, g‘azallariyu dostonlarida uchraydigan musiqiy atama va iboralarni musiqa ilmi xazinasiga qo‘shilgan va bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bebaho hissa, deb baholash mumkin. Xususan , Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida “Mutrib va mug‘anniylar zikrida” (cholg‘uchi va ashulachilar to‘g‘risida) nomli fasl mavjud. Bu faslda musiqiy cholg‘ular, ularning tuzilishi, musiqa ilmi bilan bog‘liq boshqa xususiyatlar teran bayon etilgan.

Alisher Navoiyning fikricha, “Dastavval, san’atkorning qalbi ma’no durlariga to’liq bo’lishi, qolaversa, o’sha ma’no gavharlarini faqatgina yurakda saqlash bilan kifoyalaniq qolmay, uni elga taqdim etishda, ya’ni san’at asari sifatida ijro etishda ham o’sha gavharlarni jilolantirib, tinglovchilar ko’ngliga nur-ziyo taratishi lozim”.

Alisher Navoiy san’atkorlardan ana shunday sadoqat, fidoiylikni talab etar ekan, o’z navbatida zarshunos san’atkorlarni munosib ravishda taqdirlaydi, ulug’laydi, qo’llab- quvvatlaydi. Shuning uchun ham Alisher Navoiyning himmati tufayli o’z zamonasining zabardast sozanda va xonandasi Mutaxxar Udiy, tengsiz naychi Ustod Hasan Noiy va mashhur san’atkorlar Ustod Qulmuhammad, bastakor Ustod Muhammad Xorazmiy, Mavlono No‘mon, Mavlono Sohib Balxiy, Shayx Safo Samarqandiy, Xoja Yusuf Andijoniy, Pahlavon Muhammad kabi mo‘tabar zotlarning nomi tarix sahifasida boqiy qoldi. Bu borada A.Navoiyning so‘zlari bag‘oyat ta’sirlidir:

“Otashin yuzluk mug‘anniyki, xilqidin muloyim surud chiqorgay,  
Hol ahlining kuygan bag‘ridin dud chiqorg‘ay”.

Bu yorug‘ olamda tili, dini va urf-odati turlicha bo‘lgan yuzlab millat va elatlar yashaydi, lekin ularning barchasini birlashtiradigan qudratli bir vosita borki, uni boshqa hech narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydi: bu - musiqa, bu - ohang, bu - tarona. Shu bois bizning farzandlarimiz uchun Vatanni sevish, suyib – ardoqlash, bor vujudi bilan jo‘shib kuylash - oliy baxtdir. Musiqa deb atalmish ilohiy bu mo‘jizada shunday bir sehr mujassamki, uni tushunish, ta’sirini sezish uchun hech qanday tarjimonning keragi yo‘q

«Musiqa kishida ulug‘ hislar, jo‘shqin fikrlar uyg‘otadi, uni ruhan boyitadi, pok qiladi, kamolga yetkazadi. Musiqa tufayli kishi o‘zida o‘zgacha yangi kuch sezadi, turmush uning nazarida yangi rang va bo‘yoqlarda jilolanadi» - deydi taniqli rus kompozitori D.Shostakovich.

«Musiqqa ko‘ngilga axloqan muayyan ta‘sir ko‘rsatuvchi quvvatga ega. Musiqqa shunday hislatga ega ekan, u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga qo‘shilmog‘i lozim» - deb ta‘kidlaydi faylasuf Arastu.

San‘at qaysi shakl va ko‘rinishda bo‘lmasin, o‘z ta‘sir imkoniyatlari bilan kuchli ma‘naviy, emotsional va badiiy-estetik tarbiya vositasiga aylanadi. Zero, musiqaning tarbiyaviy ta‘sir kuchi, uning bugungi kundagi ahamiyati beqiyos. Musiqaning hayotbaxsh ta‘sirini o‘z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin. Eng mihimi, bugungi kunda musiqqa san‘ati navqiron avlodimizning yuksak ma‘naviyat ruhida kamol topishida boshqa san‘at turlariga qaraganda kuchliroq ta‘sir ko‘rsatmoqda. Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqqa san‘atisiz erishib bo‘lmaydi. Xalqimiz hayotida musiqqa azaldan beqiyos o‘rin tutib keladi. Samarqand yaqinidagi Muminobod qishlog‘idan 3 ming 300 yil muqaddam suyakdan yasalgan nay cholg‘usi topilgani ham shundan dalolat beradi.

Musiqqa sadolari qaysi xalq, yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy o‘zining «Zafarnoma» kitobida Amir Temur davrida o‘tkazilgan musiqiy anjumanlar haqida to‘xtalib, «Yaxshi ovozli xonandalar kuylashni boshlab, g‘azalu naqsh aytur erdilar. Va turku mug‘ul, xitoyu arab va ajamdin har kim o‘z rasmi bilan nag‘ma aytur erdi», degan ma‘lumotlarni keltiradi. Mustaqillik yillarida, ulug‘ bobolarimizning ana shunday an‘analarini davom ettirgan holda, mamlakatimizda musiqqa san‘atini keng rivojlantirishga karatilgan dastur va rejalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mumtoz musiqiy merosimizni asrab-avaylash va o‘rganish, uni yosh avlodlarga bezavol yetkazish maqsadida ko‘plab ko‘rik-tanlovlar, nufuzli xalqaro musiqqa anjumanlari muntazam ravishda o‘tkazib kelinmoqda. Barchamizga ayonki, kuy-qo‘shiqqa, san‘atga muhabbat, musiqqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doyra yoki boshqa cholg‘u asbobi bo‘lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta‘sirini o‘z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san’ati navqiron avlodimizning yuksak ma’naviyat ruhida kamol topishida boshqa san’at turlariga qaraganda ko‘proq va kuchliroq ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu masalada ayniqsa yoshlar qalbini o‘ziga har tomonlama jalb etadigan estrada san’atining ahamiyati beqiyos ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz. Aytish mumkinki, o‘tgan asrning boshlarida ilk namunalari paydo bo‘lgan o‘zbek estradasi istiqloq yillarida sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Bunday natijalarga erishishda milliy va umumbashariy musiqa san’ati yutuqlarini, jahon estradasining eng yaxshi namunalarini o‘rganish bo‘yicha katta imkoniyatlar ochilgani, bu soha rivojiga ko‘rsatilayotgan doimiy e’tibor, yosh iste’dodlarning o‘zini namoyon etishi uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar muhim rol o‘ynamoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Akbarov I.. Musiqa lug‘ati. O‘qituvchi. T.; 1997-yil.
2. Buyuk siymolar, allomalar (O‘rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar). M.M. Hayrullayev T.: A., 1996-yil.
3. A. Hasanova Musiqa va tarbiya. T.: O‘qituvchi, 1993 yil
4. Ro‘ziyeva D. I. O‘quvchilarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish. – T.: Fan, 2007. – 191 b.
5. G. Sharipova. Musiqa o‘qitish metodikasi (ma’ruzalar matni). TDPU 2000y.

**BAXSHICHILIK AN’ANALARI YUNUS RAJABIY NOMIDAGI O‘ZMMSI  
PROFESSORI BOTIR MATYOQUBOV NAZDIDA**

**Mo‘minova Latofat Nuriddin qizi**

Respublika musiqa va san’at kolleji

“Xalq cholg‘ulari” kafedrası o‘qituvchisi

[muminovalatofat@gmail.com](mailto:muminovalatofat@gmail.com)

**Annotatsiya:** Bola Baxshining bir so‘zi bor edi, Xorazm suvorasi bilan dostonning nima farqi bor deb so‘ralganida, suvora – so‘z aytmoq, doston – voqelik, maqom – soz etmak, degan ekanlar. Qarangki dostonlarda tarixiy faktlarga asoslanib voqealar hikoya qilar ekan, o‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqealarni badiiylashtirib, umumlashtirib ko‘rsatadi. Misol uchun, Go‘ro‘g‘li dostonida Jaloliylarning qo‘zg‘olonini tasvirlashda zolimlarga qarshi kurashadigan xalq qaxramonini ijodkor baxshilar tomonidan improvizatsiyalar orqali to‘qib, badiiylashtirib ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** doston, baxshi, B. Matyoqubov, do‘mbira, masofaviy ta‘lim, prezident qarori, zamonaviy doston.

**Аннотация:** У Бола Бахши однажды спросили, в чем разница между хорезмским суворой и эпосом, они ответили, что сувора - рассказывать, эпос – событие, маком – исполнять мелодию. Посмотрите, как в былинах, рассказывающих о событиях, основанных на исторических фактах, они художественно обобщают и обогащают события, которые произошли в прошлом. Например, в эпосе "Гуругли" при описании восстания Джалалаян показан народный герой, борющийся со злом, сочиненный из импровизаций и художественно воплощенным.

**Ключевые слова:** эпос, бахши, Б. Матекубов, думбира, дистанционное обучение, указ президента, современный эпос.

**Annotation:** Bola Bakhshi was once asked what is the difference between the Khorezm suvorah and the epic, he replied that Suvorah - to tell, epic - an event, makom-to perform a melody. Notice how in the epics that tell about events based on historical facts, they artistically generalize and enrich the events that happened in the past. For example, in the epic "Gurugli", when describing the Jalalyan uprising, a folk hero is shown fighting evil, composed of improvisations and artistically embodied.

**Keywords:** *epic, bakhshi, B. Matyokubov, dombira, distance learning, presidential decree, modern epic.*

O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodiyotidagi eng qadimgi an‘ana baxshichilik sanaladi. Dastlab qo‘shiq shaklida musiqa cholg‘usiz kuylanadigan asarlar yaratilgan. Keyinchalik do‘mbira jo‘rligida aytiladiganlari yuzaga kelgan. Dostonchilikning bunday namunalari Kaspiy va Orol dengizi bo‘ylaridagi qadimiy ko‘chmanchi turkiy qabilalar orasida vujudga kelgan. Epik dostonlarni yaratuvchi va kuylovchi badihago‘ylar ko‘payib borgan sari ustoz – shogird an‘analari vujudga kela boshlagan. Natijada XV–XVI asrlarga kelib ko‘pgina dostonchilik maktablari paydo bo‘ldi. XVII–XVIII asrlar dostonchilik taraqqiyotining jiddiy ko‘tarilish bosqichi, XIX–XX asrlar esa uning eng rivojlangan davri hisoblanadi. Bu davrda baxshilar repertuarida 150 dan ortiq xalq dostonlari bo‘lib, ularni Tilla kampir, Sulton kampir, Jolmon baxshi, Bo‘ron shoir, Juman bulbul, Jassoq, Xonimjon xalfa, Buvi shoira, Suyav baxshi, Yo‘ldosh bulbul, Sulton Murod, Qurbonbek, Yo‘ldosh shoir, Suyar shoir, Sherna yuzboshi kabi mashhur baxshilar kuylab kelganlar. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po‘lkan, Islom shoir, Saidmurod Panoh o‘g‘li, Berdi baxshi, Abdulla Nurali o‘g‘li, Umr baxshi, Bola baxshi, Ahmad baxshi kabi yetakchi san‘atkorlar o‘zlariga zamondosh boshqa baxshilar bilan birgalikda bu epik an‘anani davom ettirdilar.

Ana shunday baxshilar ijodini, doston musiqasini o‘rganib kelayotgan fidoiy olimlarimizdan biri Botir Matyoqubov 20 yil davomida shu soha bilan shug‘ullanib, 2014-2021 yillar mobaynida 7 yil Turkiyada pedogogik faoliyat yuritib, bugungi kunda



Yunus Rajabiy nomidagi milliy musiqa san’ati institutida faxriy professor sifatida “baxshichilik” kafedrasida faoliyat olib bormoqdalar. Uning Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Qoraqalpog‘iston, Turkmanistondagi ekspeditsiya jarayonlarida baxshilarning dostonchilikdagi musiqiy jihatlarini chuqur o‘rganib borishlari bu soha mutaxassisligining yangi qirrasini ochib berdi. B.Matyoqubovdan oldin aynan dostonchilik musiqasi bilan F.Karomatov 1962-yil o‘zining “Узбекская домбровая музыка” asarida baxshilarning do‘mbira vositasida ijro qiladigan kuylarini 49 tasini yozib qoldirgan. Undan keyin ko‘plab ijodkorlar, xususan M.Yusupov, Y.Rajabiy, K.Olimboyevlar ham bu yo‘nalishda ijod qilib, baxshi kuylarini notaga yozib olganlar. Tarixan chuqur ildiz otgan baxshichilik yo‘nalishini davom ettirayotgan B.Matyoqubov dostonlarning barcha turkumlarini yosh talabalarga o‘rgatish borasida o‘z fikrlari bilan ommaviy axborot vositalarida ham ma’lumot berib boryaptilar. Zamonning zayli bilan pandemiya davriga qaramay ustoz professor ustoz-shogird an’analarini masofaviy tarzda olib boryaptilar. Bunday murakkab jarayonda ham tinmay mehnat qilayotgan B.Matyoqubov majburan tashkil etilayotgan masofaviy online ta’limni musiqa sohasidagi ijodkorlar uchun “fonogramma fojeasi”dan ham salbiy oqibatlarga olib kelishi, odatiy offlayn ta’lim tizimiga hech nima teng kelmasligini isbotlab berdi. Masalan, ansamblda onlayn dars jarayonida guruhni 8 nafar talaba tashkil etsa, ashulani bir vaqtda kuylashga to‘g‘ri kelgan paytda har kimga tovushlar har xil vaqtda yetib boradi. Hali bu bitta parda haqida borayotgan gap. Endi, sinfdagi ta’lim jarayonining ahamiyatli tomoni, ansamblda yonida o‘tirgan ijrochi bir birini his etsa, muloqot qilsa, mehr ko‘zda deganlaridek yuz-yuzga, ko‘z-ko‘zga tushib dars olib borganga hech narsa teng kelmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi bir muncha qarorlari bo‘yicha baxshichilik san’ati yo‘nalishi ta’lim tizimiga joriy etildi. Bunday jarayon tarixda ham boshqa bir mamlakatlarda ham kuzatilmagan va ilk marotaba baxshichilik san’ati ta’lim tizimida o‘z o‘rnini topdi. Yurtimizda baxshichilik san’ati keng yoyilgan. Bular Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm dostonchiligi hamda Qoraqalpog‘iston jirovlar baxshichilik

san’ati maktablari shakllangan. Ularning har biri o‘z lahjasida kuylaydi. B.Matyoqubovning ta’rifiga ko‘ra, “bu O‘zbekiston baxshichilik tarmoqlarini bir dasta gulga oxshatadigan bo‘lsak, bu guldastaning ichida turfa xil gullar borki, ularning har birini hidi, tarovati boshqacha. Xuddi shunga o‘xshab tilimizda ham qaysi lahja bo‘lmasin O‘zbekistonning barcha hududida bu lahjalarni tushunishadi. Ana shu umumiy o‘zbek tilimiz bir joyga jamlanganda bir dasta gul tarovatiday o‘zining lahjasi bilan go‘zal”.

Umuman olganda o‘zbek xalqining baxshichilik san’atiga ehtiyoji qay darajada rivojlangan va yoshlarning qarashlari haqida qiziqib ko‘rishimiz darkor. Kelajak yoshlar qo‘lida ekanini inobatga olgan yurtboshimiz juda to‘g‘ri va aniq yo‘l ko‘rsatishni maqsad qildilar va ta’lim tizimiga baxshichilikni rivojlantirishga tegishli qarorlarni qabul qildilar. Bu bilan ajdodlarimiz merosini chuqur o‘rganish, qadimiy qadriyat va an’analarimizni saqlab qolish ko‘zda tutilgan. Dunyoning hamma mamlakatlarida ham bunday san’at mavjud emas. Xususan 28ta turkiy davlatlarida doston ijro qilinsa, 12 ta davlatda maqom ijrochiligi hali hanuzgacha saqlanib qolgan. Aynan O‘zbekiston hududida ikkala yo‘nalish ham rivojlanishda davom etmoqda. Ammo baxshichilik san’ati nisbatan orqada qolgan. Qarangki, 1972-yilda maqom san’ati Toshkent Davlat Konservatoriyasida alohida kafedra sifatida tashkil qilingan bo‘lsa, sal kam 50 yil mobaynida ta’lim tizimida yo‘lga qo‘yilgan maqom musiqasi xalq orasida maqom ijro qilishga va tinglashga ishtiyoqmand yoshlar sonini oshishiga xizmat qildi. Endi baxshichilik san’ati ham ta’lim tizimiga joriy qilinishi boisidan, nafaqat soha ijodkorlari orasida, balki oddiy omma hamda yosh avlod ichida shakllansa ajab emas. Bu sinkretik san’at o‘z ichiga hikoya, nasr, nazm, hofizlik, cholg‘uchilik, aktyorlik kabi barcha go‘zal san’at turlarini mujassamlashtirgan bo‘lib, buni o‘zlashtirgan yosh ijodkor bir tomondan ajdodlar merosini, qadriyatlarini o‘z qalbiga jo qilsa, yana boshqa tomondan professional ta’limni o‘zlashtirib oladi. Kelajakda esa zamonaviy dostonlar ham yaratilishi, bora-bora professional ijrochilarning shakllanishi, yo‘qolib borayotgan ota bobolarimiz merosini bus butunligicha avaylab asarab kelajak avlodlarga yetkazib beradigan olimlar yetishib chiqishiga umid

bog‘laymiz. Zamonaviy dostonlar xususida gap borganda aytib o‘tish joizki, bugungi kunda ham baxshilar, jirovlar tomonidan yangi dostonlar yaratilmoqda. Misol uchun, Erkin Samandar “Polvon Ota” nomli Pahlavon Mahmudga bag‘ishlangan dostonini yaratdi va Otaxon baxshi Matyoqubovning ijrosi radioda yozib olindi. Bundan tashqari ko‘plab mustaqillikka bag‘ishlangan zamonaviy dostonlar yaratilgan. Ammo, bularning targ‘iboti kuchli bo‘lmaganligi sababli xalq orasida keng tarqalmagan.

Baxshichilik san’ati ta’limini olmagan bo‘lsamda, yoshligimizdan dostonlarni quloq qondi bo‘lib tinglaganimiz sabab, maqola muallifi va dutor ijrochisi sifatida zamonaviy doston ijrochiligida ham ilmiy tadqiqot olib borayapman. Bu borada Xorazm doston ohanglari asosida yangi kichik doston yaratdim. Bu dostonda bugungi kunda unutilayozgan Xorazm vohasi an’analari voqeligi tasvirlanadi. Bunda asosan ayollar orasida udum bo‘lgan “Lechak” kiyish marosimi, bosh kiyim kiyishning, ro‘mol o‘rashning ahamiyati hamda yurt muhabbati to‘g‘risida gap boradi. Xorazmda XX asrda laparlar va xalfa qo‘shiqlari bilan mashxur bo‘lgan Ojiza xalfa so‘zlari bilan aytiluvchi “ro‘molim bor”, “lechak” marosimi qo‘shiqlari, qolaversa o‘z ijodimdan “Yangra O‘zbekistonim” she’rimni “Oshiq G‘arib va Shoxsanam” dostonidagi “Ilg‘or” kuyiga dutor jo‘rligida moslashtirdim va dostonlarda dutor ijrochiligini qayta tiklashga intildim.

*Olib qo‘lga dutorim*

*Chertib yorqin musiqa*

*Jo‘shib ketdi ilhomim*

*Kuy yozdim o‘shal onim,*

*Baxshida kuyim, jonim,*

*Baxshida kuyim, jonim,*

*Yangra O‘zbekistonim.*

*Yangra O‘zbekistonim.*

*Bag‘ishladim yurt uchun,*

*Mustaqillik jahonim*

*Qiz baxshiman el uchun*

*Istiqlol aziz onim*

*Baxshida kuyim, jonim a,*

*Asrlar osha yana yey*

*Yangra O‘zbekistonim.*

*Yangra O‘zbekistonim*

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.05.2019 yildagi PQ-4320-son
2. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. “Xorazm musiqa tarixchasi”. Toshkent.1927
3. B.Matyoqubov “Doston navolari” Toshkent. Ilmiy nashr. 2009.
4. ЎзМЕ. Биринчи жилд. Тошкент, 2000.

## ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАРДА ЎСИМЛИК ХОМ АШЁСИНИ ХАРИД ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ

**Боронов Бобур Фарходович**

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис интитути докторанти, и.ф.ф.д (PhD),

e-mail: [bobur-boronov@mail.ru](mailto:bobur-boronov@mail.ru)

**Аннотация.** Мақолада ёғ-мой саноати корхоналарида ўсимлик хом ашёсини харид қилиш ҳамда унинг таннархига таъсир этадиган харажатларнинг тавсифи ва ҳисоби масалалари ёритилган.

**Калит сўзлар:** ўсимлик хом ашёси, ёғ-мой саноати корхоналари, товар-моддий заҳиралар, бухгалтерия ҳисоби миллий стандартлари.

## ISSUES OF PROCUREMENT OF PLANT RAW MATERIALS IN ECONOMIC SUBJECTS

**Abstract:** The article covers the issues of purchase of plant raw materials in oil and fat industry enterprises and the description and calculation of costs affecting its cost.

**Key words:** plant raw materials, oil industry enterprises, inventories, national accounting standards.

Бугунги кунда, ёғ-мой саноати корхоналарида ишлаб чиқариладиган ёғ-мой маҳсулотларининг турларини кўпайтириш, уларнинг рақобатбардошлигини таъминлаш бир қанча омилларга боғлиқ. Мисол, ёғ-мой маҳсулотларини ишлаб чиқариш технологияси, асбоб-ускуналари, қолаверса, хом ашё турлари ва унинг сифатига ҳам боғлиқдир. Бу эса, ёғ-мой саноати корхоналарида ишлаб чиқариш жараёнларини тўғри ташкил этишга, хом ашё ва материалларни тайёрлаш ҳамда ушбу жараёнларнинг ҳисобини тўғри юритишга бевосита боғлиқ бўлиб, ёғ-мой

маҳсулотлари ишлаб чиқариш корхоналари олдида муайян вазифаларни белгилаб беради.

Ўзбекистон Республикаси 4-сон “Товар-моддий захиралар” бухгалтерия ҳисоби миллий стандартида товар-моддий захираларни харид қилиш билан боғлиқ бўлган ҳамда ушбу маҳсулотларнинг таннархига киритиладиган харажатлар таркибига қуйидагилар киритилган:

\* божхона божлари ва йиғимлари;

\* товар-моддий захираларни харид қилиш билан боғлиқ бўлган солиқ ва йиғимлар суммалари (агар улар қопланмаса (ҳисобга олишга қабул қилинмаса);

\* товар-моддий захиралар таъминотчи ва воситачи ташкилотлар орқали харид қилинганда уларга тўланадиган тўловлар (воситачилик ҳақи);

\* товар-моддий захираларни харид қилиш билан боғлиқ бўлган товар-моддий захираларни сертификатлаш ва уларни техник шартларга мувофиқ синаш бўйича харажатлар;

\* товар-моддий захираларни тайёрлаш ва уларни айти пайтдаги жойлашиш ёки фойдаланиш жойига етказиб бериш бўйича транспорт-тайёрлов харажатлари. Улар тайёрлаш, юклаш-тушириш ишлари ва товар-моддий захираларни барча турдаги транспорт билан уларни айти пайтдаги жойлашиш ёки фойдаланиш жойига транспортда ташиш учун (фрахт) тўловларни амалга ошириш бўйича харажатлар, шу жумладан товар-моддий захираларни транспортда ташишда хатарларни суғурталаш бўйича харажатлардан ташкил топади<sup>20</sup>.

Олиб борилган тадқиқотлар ёғ-мой саноати корхоналарида харид қилинган хом ашёларнинг таннархига таъсир қиладиган харажатларни ўрганиб чиқишни тақозо этди. Тадқиқотлар натижасида маълум бўлдики, ушбу саноат корхоналарида хом ашёни харид нархига хом ашёнинг сотиб олиш нархидан ташқари, яна бошқа харажатлар жумладан, ЯМР таҳлили, брокерлик хизмати, транспорт харажатлари, биржа хизматлари ва бошқалар кирди.

<sup>20</sup> 4-сон БХМС “Товар моддий захиралар” // АВ томонидан 30.06.2020 й. 3259-сон билан рўйхатга олинган. <https://lex.uz/docs/4890446>

Ёғ-мой саноати корхоналарида хом ашёларни харид қилиш билан боғлиқ бўлган юқоридаги харажатлар бўйича бухгалтерия операциялари 1510-“Материалларни тайёрлаш ва харид қилиш” счётининг дебитида тўпланади. Харид қилинган хом ашё корхонанинг асосий омборига кирим қилинганда ушбу счётининг кредитида олиниб, хом ашёнинг таннархига олиб борилади.

Ёғ-мой ишлаб чиқариш корхоналарида хом ашёлар бўйича қилинган транспорт-тайёрлов харажатлари бир неча усуллар орқали ҳисобга олинади. Жумладан:

\* хом ашёнинг тўғридан-тўғри таннархига киритилади;

\* дастлаб, 1510-“Материалларни тайёрлаш ва харид қилиш” счётига олиб борилади ва корхонанинг асосий омборида фойдаланишга тайёр ҳолатда бўлганида хом ашёнинг таннархига киритилади;

\* 9430-“Бошқа операцион харажатлар” счётига тўғридан-тўғри олиб борилади.

Ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш корхоналарида хом ашёнинг таннархига киритилган транспорт-тайёрлов харажатларининг ушбу усуллари билан бири танланади ва корхонанинг ҳисоб сийёсатида кўрсатилади.

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида айтиш мумкинки, бугунги кунда ёғ-мой саноати корхоналарида ишлаб чиқариш жараёнлари ва уларнинг ҳисобини юритиш хом ашё материаллари ҳисобини тўғри ташкил этишга боғлиқ бўлиб, ушбу жиҳатлар товар-моддий захиралар ҳисобини юритишга ҳамда уларни ҳисоб ва ҳисоботда тўғри акс этиришга хизмат қилади, деб ҳисоблаймиз.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. 4-сон БҲМС “Товар моддий захиралар” // АВ томонидан 30.06.2020 й. 3259-сон билан рўйхатга олинган. <https://lex.uz/docs/4890446>

2. 21-сон БҲМС “Хўжалик юритувчи субъектларнинг молия-хўжалик фаолияти бухгалтерия ҳисоби ҳисоботлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқномани тасдиқлаш тўғрисида” // АВ томонидан 23.10.2002 й. 1181-сон билан рўйхатга олинган.

## O‘ZBEKISTONDA QUYOSH ENERGIYASIDAN SAMARALI FOYDALANISH

**Otabek Xayrullayev Nurbek o‘g‘li**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti talabasi

Email: [OtabekXayrullayev2003@gmail.com](mailto:OtabekXayrullayev2003@gmail.com)

**Og‘abek Axmedov Xamza o‘g‘li**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti talabasi

(O‘zbekiston, Navoiy)

**Annotatsiya:** Saxovatli Quyosh milliard yillardan buyon o‘z nurini Yerga sochib turadi. Quyosh nuri ham energiya. Odamlar uni elektr tokiga aylantirishni o‘rganib oldilar. Buning uchun maxsus yarimo‘tkazgichli asboblari — fotoelementlar yaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Quyosh, kuchlanish, elektr, o‘zgartirgich agregat, kuchlanish, o‘zgaruvchan tok, inverter.

**Abstract:** the generous Sun has been scattering its light on Earth for billions of years. Sunlight is also energy. People have learned to convert it into electric current. For this, special semiconductor devices are created — photoelements.

**Keywords:** solar, voltage, electric, modifier aggregate, voltage, AC, inverter.

Quyosh radiatsiyasi energiyasini amalda foydalanish uchun qulay bo‘lgan energiya turlariga aylantirib berish masalalari bilan shug‘ullanadigan texnika sohasi geliotexnika deb ataladi. Geliotexnika yordamida elektr energiyasi yetib bormagan joylar (masalan, chorvadorlar istiqomat qiladigan joylar) ni elektr toki bilan ta‘minlash, uylarni elektr nurlari yordamida isitish, issiq xonalarni isitish va boshqa ko‘pgina ishlar amalga oshirilgan.


Yerga uzatiladigan Quyosh energiyasining miqdori, hozirda dunyoda ishlab chiqarilayotgan energiya miqdoridan taxminan, 20 marta ko‘pdir. Ammo, Quyosh nurlari oqimining zichligi kam bo‘ladi, shu sababli bu energiya juda qimmat turadi.



Hozirgi vaqtda Quyosh energiyasi quyi potentsialli (harorati 100 gradusga qadar bo‘lgan) issiqlikkka aylantirladi va undan kommunal xo‘jalik issiq suv ta‘minotida, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini (mevalar) quritishda foydalaniladi.

Yoz oylarida suv ta‘minoti uchun mo‘ljallangan quyoshli qurilmalar ayniqsa, asqotadi. Ulardan qishloq joylarida foydalanish katta samara beradi. Chunki maishiy qulaylikni shahar sharoitiga yaqinlashtiradi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyoda 2 milliondan ortiq quyosh issiqlik tizimi ishlab turibdi. AQShda quyosh kollektorlarining umumiy maydoni 15 million kvadrat metrni, Yaponiyada 12 million kvadrat metrni, Yevropa Ittifoqi davlatlarida esa umumiy maydoni 20 million kvadrat metrga yaqin quyosh kollektorlari hamda Isroilda mamlakat issiq suv ta‘minotining 75 foizini ta‘minlaydigan 1millionga yaqin quyosh moslamasi ishlayapti.



1-rasm. Quyosh fotometriyasi.

Respublikamiz Quyosh energiyasini o‘zlashtirish uchun dunyoda qulay bo‘lgan hududlar sirasiga kiradi. Bizda, O‘zbekistonda quyoshli kunlar yiliga 2200 dan 3000 soatgacha davom etadi. Bu vaqt ichida Quyosh energiyasi “jala’si yiliga har kvadrat metrga 1200 dan 1700 kilovatt soatni tashkil qiladi. Bu quyosh nurlanishi Portugaliya ko‘rsatkichlariga tengligini yoxud mamlakat yoqilqi-energitika hajmida munosib o‘ringa ega bo‘lgan Yaponiya ko‘rsatkichlaridan ikki barobar yuqori ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonning qayta tiklanadigan energiya manbalarining salohiyati 51 million tonna neft ekvivalentiga teng.(1-rasm) Agar qayta tiklanuvchi energiya manbalarining texnikaviy salohiyatidan to‘liq foydalanilsa, atmosfera havosiga chiqariladigan 450 million tonnage yaqin is gazining (uglerod ikki oksidi) bartaraf

qilinishiga sharoit yaratiladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda energiya resurslarining asosini uglevodorodlar: tabiiy gaz va neft tashkil qiladi. Umumiy energiya quvvatlari 11000 MVt dan ortiqroq bo‘lib, Markaziy Osiyo birlashgan energiya tizimi quvvatlarining 50% i mamlakatimiz hissasiga to‘g‘ri keladi. Respublikamizning yalpi quyosh energiyasi salohiyati 50973 mln.t.n.e., texnikaviy salohiyati esa 176,8 mln.t.n.e. Lekin, hozirgi kunda quyosh energiyasining faqatgina 3% i o‘zlashtirilgan xolos.

Hozirgi kunda quvvati 100 dan 12000W gacha bo‘lgan fotoelektr stansiyalar ishlab chiqarilib, amalda qo‘llanilmoqda. Navoiy viloyatining Uchquduq shahri hududida quyosh elektrostansiyalari faoliyat ko‘rsatmoqda, parniklar isitilmoqda, oziq ovqat mahsulotlari quritilib xalqimizning kori holiga yaramoqda. Bu masalani rivojlantirishning to‘g‘anoq bo‘lgan tomonlari ham mavjud bo‘lib, quyosh nurini elektr energiyaga aylantiradigan fotoelementlarning yuqori temperaturaga bardosh bera olmasligi, fotoelementlar narxining qimmatligidir. Bu sohada esa butun dunyo olimlari qatori o‘zbek olimlari ham ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

Natijada hozirgi kunda fotoelementlardan Kremniy (Si) FIK 15% dan 20 % gacha, Arsenet galliy (SaAs) fotoelementining FIK 30% dan 40% gacha orttirildi. Shu bois ularning sirtini tashqi muhitdan himoyalash hisobiga uning FIK yana ko‘paymoqda. Shuning uchun ham olimlar fotoelementni kamroq ishlatish maqsadida konsentratorlardan foydalanishni ham bir necha variantini tavsiya etdilar. Quyida yuqori temperturalar hosil qilinadigan konsentratorlar tasvirlangan.



2-rasm. Quyosh paneli.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof muhit muhofazasi va taraqqiyot xalqaro komissiyasining hisobotida "Kelajak rivojlanishi, ravnaqi shunday energiyalardan foydalanish formasi, ya'ni, atrof muhit xolatiga zarar yetkazmaydigan, xavfsiz, tiklanadigan, kafolatlangan, doimiy o'sib, tiklanib boruvchi va foydalanish imkoniyati mavjud bo'lgan energiyalarga bog'liq bo'lib qoladi", deya qayd etilganligini e'tirof etish joiz deb hisoblaymiz.

Tiklanadigan energiya manbalaridan biri quyosh energiyasi hisoblanib, yilning asosiy qismi ochiq va issiq kelishi tufayli O'zbekiston quyosh energiyasidan foydalanishning barcha iqtisodiy yo'nalishlari bo'yicha afzalliklarga ega.(2-rasm)

**Xulosa.** Yuqorida qayd etilganlardan va hozirgi iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqib bugungi kunda asosiy energiya manbai bo'lgan tabiiy resurslarning vaqti kelib tugashini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi tomonidan davlat unitar korxonasi - "Eko-Energiya" ilmiy tadqiqot markazi tashkil etilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Salimov J.S., Pirmatov N.B. Elektr mashinalari. Texnika oliy oquv yurtlarining «Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari» yonalishi talabalari uchun darslik – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011. – 408 b.

2. Салимов Ж.С., Пирматов Н.Б., Бекчанов Б.Э. Трансформаторлар ва автотрансформаторлар. Техника олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. «VEKTOR-PRESS» нашриёти. – Т.: 2009. – 224 б.

3. Бертинов А.И., Алиевский Б.Л., Илюшин К.В. и др. Сверхпроводниковые электрические машины и магнитные системы. Учеб.пособие для вузов. -М.: Изд-во МАИ, 1993.

## URBAN PLANNING CATEGORIES OF INDUSTRIAL AREAS.

**Zakirova Munisa Shukhrat qizi**

doctoral student of Tashkent Institute of Architecture and Civil Engineering

E-mail: [womunis11@gmail.com](mailto:womunis11@gmail.com)

***Abstract:** This article describes the categories of industrial areas in urban planning, the main requirements for their placement, proper design from the point of view of aesthetics, as well as the need to take natural and climatic factors into account.*

***Key words:** industrial zone, urban industrial area, industrial hub, industrial complex, site of an industrial enterprise, composition.*

The production zone can occupy one or several different parts of the city, but in all cases it must be formed as a single territorial planning system of the city based on national economic, urban planning and technological requirements for the location and operation of enterprises and facilities that are part of the production zone.

When planning industrial areas of a settlement, the following urban planning categories are distinguished:

- *industrial zone* (industrial zone of the city) - part of the territory of the city, where the city-forming industrial enterprises are concentrated;

- *urban industrial district* administrative district (districts) of the city where the city-forming industrial enterprises are concentrated;

- *production center* - a part of the territory of land use of the enterprise, on which large production complexes are located, which have large sanitary and hygienic restrictions in the distance to residential areas of populated areas and veterinary restrictions in the distance to other production complexes;

- *industrial hub* - a group of enterprises with common auxiliary production or infrastructure facilities;

- *an industrial complex* is a group of industrial buildings and structures located in a compact area, connected by a technological process and common transport and energy devices;

- *site of an industrial enterprise* - a part of the territory where a manufacturing enterprise is located [2,3].

According to the totality of urban planning classification features - territory, number of workers, sanitary classification and freight turnover - urban industrial areas are divided into three categories with different accommodation conditions:


*I - away from the residential area.* In these areas, enterprises of classes I and II according to the sanitary classification of industries, emitting a large number of industrial hazards, as well as explosive, fire and radioactive industries, should be located. This category includes large industrial complexes of metallurgy, oil refining, chemistry, powerful coal mines, and nuclear power plants. They have a large turnover and require railway sidings. The number of workers and the territory of the largest regions reach: in metallurgy - up to 50 thousand people and 2000 hectares, in chemistry - up to 40 thousand people and 4000 hectares. The distance from residential areas is set depending on the capacity of enterprises, the level of technology and the degree of purification and capture of hazardous waste;

*II — on the border with the residential area.* In these areas, enterprises of III, IV and V classes according to the sanitary classification of production, as well as enterprises that do not emit industrial hazards, but require railway access roads or have a traffic turnover of more than 40 vehicles per day in one direction, should be located. This category includes large industrial complexes of mechanical engineering (in the largest of them there are up to 60-90 thousand people working and up to 2000-3500 hectares of territory), metal structures, construction industry, textile industry, etc.;

*III — within the residential area.* These areas are intended to accommodate enterprises that do not emit industrial hazards, as well as enterprises of IV and V classes according to sanitary classification with non-flammable and non-explosive hazardous industries that do not create noise in excess of the norm, do not require railway access



roads and have a traffic turnover of road transport of not more than 40 vehicles. / day in one direction. This category includes enterprises of precision mechanics, instrument making and the food industry. The size of an industrial region ranges from 5-15 to 100-200 hectares or more and employs 5-10 thousand or more workers [1,4].



*Fig.1. Compositional interaction of the industrial zone and the residential area in various town-planning situations.*

*Accounting for the relief when placing industrial complexes.* When locating industrial complexes as part of the industrial zone of a settlement, significant attention is paid to the relief of the entire industrial zone, which is considered from the point of view of observing the convenience of territorial and technological relations, both between the complexes and between the buildings in the complexes. It should be borne in mind the main thing - the slopes of the relief should not exceed 3%.

*Accounting for winds when placing industrial complexes.* When placing industrial complexes, the direction of the prevailing winds is taken into account in order to ensure sanitary-hygienic and fire-fighting conditions. Complexes with more harmful industrial impact are located on the leeward side of complexes with less harmful industrial impact.

*Other requirements.* On the territory of industrial zones, transit traffic of general purpose should not be allowed. A green area is being designed around the center of the

production zone, where recreation and sports grounds, elements of visual agitation and small forms of architecture are placed [5].

The main urban planning requirements for the location of industry are as follows:

- industrial enterprises that emit soluble harmful substances are located downstream of watercourses in relation to the residential area and lower along the terrain;

- industrial enterprises that emit gaseous substances harmful to human health are located on the leeward side in relation to the residential area.

Urban planning requirements are set by the city for the location of its industry, determine the general order and structure of the industrial zone - the types, number and location of industrial areas of the city, scientific and technical complexes and industrial infrastructure facilities based on the interests of the city.

#### REFERENCES:

1. Бутягин В.А. —Планировка и благоустройство городов // Москва, Стройиздат, 1974.
2. Лейкина Д.К. Ландшафтная организация промышленных узлов // Москва. Стройиздат, 1984.
3. Авдоткин Л.Н., Лежава И.Г., Смоляр И.М. Градостроительное проектирование // Москва. Стройиздат, 1989.
4. Adilov Z. K., Zakirova M. S. Urban Planning and Industrial Territories Landscape Analysis //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2022. – Т. 17. – С. 111-116.
5. <https://ppt-online.org/147034>

## **ISTE’MOL BOZORINI BARQARORLASHTIRISH, BOSOR RAQOBATI MAZMUNI VA UNING XUSUSIYATLARINING NAZARIY TAHLILI**

**Nasirova Nargiza Tursunpulatovna**

Namangan muhandislik-qurilish instituti

E-mail: [nargizan1975@gmail.com](mailto:nargizan1975@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada hozirgi sharoitlardagi bozor raqobati mazmuni va xususiyatlarini nazariy tahlil etishga urinib ko‘rilgan.

**Kalit so‘zlar:** bozor, bozor munosabatlari, bozor iqtisodiyoti, raqobat, xususiy manfaatlar, talab va taklif, baholar.

## **STABILIZATION OF THE CONSUMER MARKET, THEORETICAL ANALYSIS OF THE CONTENT OF BOSOR COMPETITION AND ITS CHARACTERISTICS**

**Annotation:** The article attempts to theoretically analyze the content and characteristics of market competition in current conditions.

**Keywords:** market, market relationship, market economy, competition, private interest, supply and demand, price.

Ma’lumki, bozor munasabatlari to‘laqonli ravishda aholi farovonligi maqsadlariga xizmat qilishi va o‘z afzalliklarini namoyish eta olishi uchun raqobat muhiti va erkin raqobat zarur. Bozor raqobati iqtisodiy resurslarni qo‘lga kiritish va resurslarga egalik qilish uchun kurash sifatida ifodalangani uchun, tashqaridan qaraganda, u deyarli doim iste’molchilarning pullari uchun, ya’ni cheklangan hajmli to‘lov layoqatiga ega bo‘lgan talab uchun kurash sifatida namoyon bo‘ladi. Sotuvchilar arzonroq narxda sifatliroq tovar va xizmatlar taklif etib, xaridorlar esa – qimmatroq



narx taklif etib, bir-biridan o‘zib ketishga intilishida o‘z ifodasini topadi. Tovar uchun pul to‘lanishi amalda mahsulot yoki xizmatning jamiyat uchun qadrilik darajasini belgilab beradi. Bunda ishlab chiqaruvchining boyligi yoki farovonligi uning mahsuloti jamiyat uchun qanchalik qimmatli ekanligiga bog‘liq bo‘ladi. Ishlab chiqaruvchining jamiyatdagi o‘rni u ishlab chiqargan mahsulotning xaridori (iste‘molchisi) tomonidan belgilanadi. Bozorda iste‘molchilarning roli asosiy bo‘lib qoladi, chunki aynan ular, so‘m bilan ovoz berib, u yoki bu ishlab chiqarish faoliyati turini kengaytirishni iqtisodiy ma‘qullaydilar yoki rad etadilar. Xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt uchun iqtisodiy natija, foyda hajmi ishlab chiqarishning maqsadigina emas, mohiyatiga ko‘ra, raqobatbardoshlik ko‘rsatkichi hamdir. Ishlab chiqaruvchining raqobatbardoshligi uning nima ishlab chiqarishidan tashqari o‘z mahsulotini bozorda maksimal narxda sota olishi va shu orqali ishlab chiqarish qobiliyatini saqlab qolishi bilan belgilanadi. Raqobat tushunchasi iqtisodiy ma‘noda alohida firmalarga ham, butun davlatlarga ham, iqtisodiy rivojlanishning turli modellari va kontsepsiyalariga ham qo‘llanadi. Bunda raqobatbardoshlik birlamchi qadamda korxonadan, bozor jarayoni qatnashchilaridan, raqobatlashuvchi kompaniyalar yoki shaxslardan boshlanishini, ularning o‘zlariga nisbatan yaxshiroq sharoitlar ta‘minlash qobiliyatini ifodalashini hisobga olish zarur.

Bozor iqtisodiyotidagi tanlash erkinligi resurslarga xususiy mulk huquqi ustunlik qilishini nazarda tutadi. Sub‘ektlarning mulkka jumladan, ishlab chiqarish kapitaliga egalik qilish foydalanish va tasarruf qilish huquqi nafaqat e‘lon qilinihgina qolmay, balki davlat tomonidan kafolatlanishi lozim. Demak, bozordagi erkin raqobat mamlakatda bozor iqtisodiyoti talablariga mos keluvchi huquqiy asoslar mavjudligini nazarda tutadi. Umuman, raqobat muhitining yaratilishi va rivojlanishi mulkchilik huquqining tartibga solinishini va rivojlanib borishini nazarda tutadi. Shuningdek, mulkchilik huquqining bir shaxsdan boshqa shaxsga bozor qoidalari asosida o‘tishi mexanizmi yaratilishi ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur mexanizm resurslarni samarasiz mulkdorlardan samarali mulkdorlar foydasiga qayta taqsimlashni ta‘minlaydi. Bozor iqtisodiyoti va undagi erkin raqobat shartlariga amal qilishda

xususiy manfaatlar sub’ektlar xulq-atvorida asosiy undovchi rag‘bat hisoblanadi. Biroq raqobatchilar sonini cheklaydigan institusional to‘siqlar sub’ektlarga bozorning tegishli sektorida raqobat qilishga imkon bermasligi mumkin. Bunday vaziyat bozorda cheklangan sonli raqobatchilarni qoldiradi va monopolizm ko‘rinishlariga olib keladi.

Ishlab chiqarishning individual xarajatlarini pasaytirish hisobiga raqobatda ustunlikka ega bo‘lish ishlab chiqaruvchiga yoki o‘z mahsuloti narxini pasaytirish va bunda ishlab chiqarish hajmini oshirish yoki mahsulotni raqobatchilar bilan bir xil narxda sotish va ikkala holatda ham foydani oshirishga imkon beradi. Pastroq xarajatlarda etakchilik bu – mohiyatiga ko‘ra, narx bilan bog‘liq raqobat bo‘lib, standart tovarlar butun bozoriga xizmat ko‘rsatishni nazarda tutadigan bo‘lsa, differentsiatsiya siyosati standart mahsulotlarni modifikasiyalashga yo‘naltiriladi. Bu narx bilan bog‘liq bo‘lmagan raqobatdir. U jamiyatdagi iste‘mol bilan bog‘liq ijtimoiy farqlarni yaxshiroq e‘tiborga oladi. Differentsiatsiya siyosati bu, eng avval, mahsulotda o‘ziga xos iste‘mol sifat belgilarini mujassamlashtirishdir. Bunda hal qiluvchi rolni mahsulot sifati, uning yangiligi, dizayni, firma uslubi, o‘rovi, servis xizmatlari va shu kabilar o‘ynay boshlaydi.

Bozor narxining vujudga kelishida asosiy rolni xaridor va sotuvchi o‘rtasidagi kurashgina emas, balki talab taklifdan yuqori bo‘lganda xaridorlar o‘rtasida kurash va taklif talabdan katta bo‘lganda sotuvchilar o‘rtasida kurash o‘ynaydi. Tovarlar narxining pasayishi oqibatida foyda hajmi ham pasayadi. Bu taklifning talabdan ortiq bo‘lishi kuzatilgan tarmoqlarda ro‘y beradi. Kapitalni talab taklifdan katta bo‘lishi natijasida narx o‘sadigan tarmoqlarga kiritish foydaliroq bo‘ladi deb taxmin qilish mantiqan to‘g‘ri hisoblanadi. Oqibatda kapitalning taklif ortiqcha bo‘lgan tarmoqlardan tovar va xizmatlar taqchilligi kuzatila boshlagan tarmoqlarga oqib o‘tishi ro‘y beradi.

Ishlab chiqarish faoliyati yo‘nalishini o‘zgargan sharoitlarga moslashtirish shunga asoslanadiki, har fil faoliyat turlari uchun olinadigan daromad o‘zgaradi. Doimiy o‘zgarib turadigan muhitda hatto erishilgan farovonlik darajasini oddiy qo‘llab-quvvatlash ham ayrim odamlardan uzluksiz ravishda faoliyat yo‘nalishini

almashtirishni talab qiladi. Albatta, bu faoliyat turlarining biri uchun to‘lanadigan haq o‘sib, boshqasida pasayadigan hollarda ro‘y beradi.

Turli tarmoqlarda talab va taklif o‘rtasidagi nisbat birinchidan, ularda qo‘llanadigan kapital hajmining o‘zgarishi bilan, ikkinchidan, jamiyat ehtiyojlari tuzilmasining o‘zgarishi bilan o‘zgarib turadi. Ko‘proq foyda tomon intilar ekan, tadbirkor narx kamroq foyda keltirayotgan bo‘lgan tarmoqlarda taklifni pasaytiradi va narx ko‘proq foydaga imkon berayotgan bo‘lgan tarmoqlarda uni oshiradi. Shunday qilib, bozor raqobati orqali ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibi doimiy ravishda ijtimoiy ehtiyojlar tarkibiga moslashib boradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Sirojiddinov I.Q. Moliyaviy menejment. Darslik. Namangan, “Usmon Nosir media”,2022. 216 bet
2. Сирожиддинов И.К. Развитие экспортной направленности сельскохозяйственного производства. Материалы форума «Перспективы евразийской экономической интеграции», посвящ.10-летию Евраз.экономической комиссии, в рамках 18-го Междунар.науч.семинара «Мировая экономика и бизнес-администрирование»:XX Междунар.науч.-техн.конф. «Наука- образованию, производству, экономике»;Республика Беларусь, Минск, 16-17 марта 2022.ISBN 978-985-581-527-4. С 83-84
3. Сирожиддинов И.Қ. Коронавирус пандемияси шароитларида худудларнинг иқтисодий ривожланишини молиявий қувватлашнинг асосий йўналишлари. “Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning dolzarb masalalari” mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari II- to‘plami NamMQI, 29-30 sentyabr,2022 yil, Namangan shahri.

## QURILISH SANOATIDA KERAMZIT BETON TO‘SQICHLAR TAYYORLASH INNOVATSION TEXNOLOGIYASI

**Assistant, Askarov Xasanjon Abduqaxorovich.**

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

**t.f.d.Professor, Maxmudov Said Maxmudovich.**

Toshkent arxitektura va qurilish instituti.

**Assistant, Askarova Muxlisaxon Baxromjon qizi.**

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

### **2- Конструкциян ва композицион материаллар олишнинг замонавий усуллари ва технологиялари.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola qurilish materiallarini yangi kompazit strukturaga ega bo‘lgan beton maxsuloti ishlab chiqarish bino inshootlarini mustaxkamlik ga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** keramzit, poydevor, bino, inshootlar, beton, tuproq, devorbop, materiallar, kampazitsion materiallar.

**Аннотация:** В данной статье приведены конструкционные материалы для производства ЖБИ с новой композиционной структурой для обеспечения долговечности строительных конструкций.

**Ключевые слова:** керамзит, фундаменты, здания, сооружения, бетон, грунт, кладка, материалы, походные материалы.

**Abstract:** This article provides construction materials for the production of concrete products with a new composite structure for the durability of building structures.

**Key words:** expanded clay, foundations, buildings, constructions, concrete, soil, masonry, materials, camping materials.

### **Asosiy qisim.**

Bugungi kunda qurilish materiallari energiyaning turli tuman toifalari orasidan faqatgina issiqlik energiyasining eng qimmat energiya sinfiga kiritilishi bejizga emas, chunki issiqlik energiyasi boshqa energiyalardan farqli o‘laroq bir turdan ikkinchi turga o‘tmaydi, umuman qayta tiklanmaydi, u faqat yonadi va tugaydi. Aynan shuning uchun ham biz rivojlangan deb tan olgan yevropa qit‘asi mamlakatlari bugungi kunda issiqlik izolyasion qurilish materiallaridan foydalanmay turib bino yoki inshoot qurishni qonun normativlari bilan taqiqlab qo‘yishgan.

Bino yoki inshootlar qurilishida qurilish uchun ketadigan muddatni kamaytirish, qurilayotgan bino yoki inshoot tashqi va ichki devorlarini issiqlikdan himoyalash, buning uchun samarador sinfga kiruvchi qurilish materiallari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish zarurdir. Samarador sinfga kiruvchi qurilish materiallari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishning resursbop yo‘llaridan biri bu g‘ovak to‘ldiruvchili yengil betonlardan samarali foydalanish eng ma‘qul yo‘nalishlardan biridir. Bir necha yillar muqaddam keramzit bino qurilishining asosi hisoblanib, qurilish hajmining ortishi, mehnat sarfining kamayishi hamda qurilish muddatlarining qisqarishiga olib kelganligi ilmiy izlanuvchilar tomonidan ko‘p bora e‘tirof etilib kelingan. So‘nggi yillarda keramzitni bino yoki inshootlar qurilishida qo‘llash doirasi kamayib ketdi. Bunga asosiy sabab, keramzit ishlab chiqarish uchun xom ashyo bazasining kamligi asosiy faktor sifatida e‘tirof etiladi. Shunga qaramay so‘nggi yillardagi ilmiy izlanishlar keramzit uchun xom ashyo bazasi O‘zbekiston hududida yetarli ekanligini va bu borada ayniqsa Navoiy viloyatida keramzit ishlab chiqarish uchun asosiy hom ashyo sanalgan bentanit qumining yetarlicha uchrashini ko‘rsatibgina qolmay balki shu bilan birga uning ekologik sof material ekanini ham yana bir bor isbot qila oldi. Ayniqsa, ushbu materialning issiqlik izolyasion xarakteristikasi respublikamiz iqlim sharoiti uchun muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Issiqlik va sovuqdan izolatsiyalash keskin iqlimli O‘zbekiston hududida katta ahamiyatga egadir. Chunki, yozning jazirama kunlarida havo harorati 42–48°C, qishda esa 20–30°C haroratgacha

sovuq bo‘lishi bino, konstruksiyalar hamda agregatlarni samarali va ishonchli materiallar bilan izolatsiyalashni taqozo etadi.

### **Xulosa.**

Bugungi kunga kelib qurilish ishlab chiqarish hajmlarining ortishi, bino va inshootlar qurilishida samarali sinfdagi issiqlikdan himoyalashni yaratish bilan bir qatorda, binolarining havfsizligiga ham alohida e‘tibor berish lozim. Chunki keramzit betondan barpo qilingan bino yoki inshoot odatdagi og‘ir betondan qilingan binodan vazn jihatdan ancha yengil bo‘ladi, birgina shu sababning o‘zi ham bino yoki inshootlarning zilzilabardoshlik koeffisientini bir necha barobarga oshirishi isbotlangan faktdir.


Keramzit aosidagi betonning yuqorida keltirib o‘tgan bir qancha jihatlari bilan boshqa turdagi materiallarga nisbatan samarali bo‘lishiga asosiy sabab bu uning g‘ovak strukturasi.



### ***1-rasm. Keramzit to‘ldiruvchili beton na‘munasining ko‘rinishi***

Hozirgi paytda qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida materiallarning o‘rtacha zichliklarini kamaytirish ikki xil bosqichda amalga oshiriladi va bu usullar bir biridan tubdan farq qiladi: birinchi bosqich mahsulotni qoliplash jarayonida mahsulot xajmida g‘ovakliklar hosil qilish yo‘li bo‘lsa; ikkinchi usulda materialni bir nechta texnologik usullar orqali g‘ovaklikini oshirish orqali erishiladi. Yana shuni ham aytish joizki ichki havo konveksiyasi tufayli mahsulotning hajmiy strukturasi juda katta bo‘shliqlarni hosil qilish mumkin ammo bu jarayon faqat materialning issiqlik o‘tkazuvchanlik xususyatlariga yomon ta‘sir o‘tkazishiga olib kelishi ham mumkin. Amalyotda 40% dan ortiq bo‘shliqli materiallarni olish mumkinligi lekin bu jarayon katta texnologik qiyinchiliklar bilan amalga oshirilishi isbotlangan. Aynan shuning

uchun ham yengil beton ishlab chiqarish uchun to‘ldiruvchi sifatida aynan keramzitning tanlanishi biz yuqorida keltirib o‘tgan o‘rtacha zichlikni kamaytirish vazifani yechish uchun xizmat qiladi Aynan keramzitning bo‘shliqli ichki strukturasi orqali biz yengil beton ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.



**2-rasm. Keramzitning ichki strukturasi**

Shu bois keramzitning qo‘llanilish sohasi juda keng qamrovli bo‘lib, uning zichligi, mustahkamligi, granulometrik tarkibi kabi xossalarini o‘zaro mujassamlantirib, qurilish sohasida undan turli-tuman buyumlar tayyorlash imkonini beradi

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N.A. Samig‘ov “Qurilish materiallari va buyumlari” darslik. Toshkent Cho‘lpon 2013-yil.
2. A.I. Adilxodjaev, F.F. Karimova, U.J. Turgunbaev “Qurilish materiallari” darslik, Toshkent: -2017-yil.
3. H.M.Bekchanov “Mahalliy hom ashyo asosida devorbop g‘ishtning tarkibi va xossalarini tadqiq qilish” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi. TAQI 2020.



## CHIQUINDILAR BILAN ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH, EKOLOGIK HOLATNI YAXSHILAYDI

**Baratova Sitora Ro‘yob qizi**

Qar MII 1- bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muallif tomonidan tobora ekologiyaga salbiy ta’sir ko’rsatayotgan, butun dunyoni tashvishga solib, o’ylashga majbur etayotgan, global muammo darajasiga ko’tarilgan chiqindilar muammosinini bartaraf etish orqali, prezidentimizning “yashil makon” barpo etish go’yasi ilgari surilgan.

**Tayanch so‘zlar:** yashil makon, global muammo, chiqindi paligoni, chiqindilar muammosi.

Yoshligimizdan bilamizki, ota – onalarimiz hovlini atrofni pok saqlash kerakligini aytardi. Xalqimiz azaldan tuproqni, suvni, tabiatni muqaddas deb bilgan. “Birni kessang, o’nni ek” degan dono maqol ham bejiz aytilmagan. Daraxt ekkan odamga savobi tegib turadi, deyilgan. Oilada farzand dunyoga kelsa, unga atab nihol ekilgan.

Dunyo miqyosida sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI Asrda ekologiya bilan bog‘liq muomalar birinchi darajali muammo sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Avlodlarimiz bizdan keyin ham munosib tabiiy muhitda yashashi kerak. Buning uchun biz tabiatga e’tibor berishimiz, faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelajakni o’ylab ish tutishimiz zarur.

Eng muhim masala - aholining ekologik madaniyatini oshirish. Bugun ko‘chaga yoki istalgan joyga qarang. Hamma joyda odamlar tashlab ketgan chiqindilarni ko‘rasiz. Biz ona yurtimizni muqaddas deymiz. Nima uchun uni toza - ozoda saqlamaymiz ? Ahir muqaddas kitoblarda ham “Poklik iymondandur” deyilgan.



Nega bu masalada ommaviy axborot vositalari, mahalla faollari bong urmayabdi? Qani nuroniylarimiz, jamoatchiligimiz ? [1]

Albatda , bunday muommlarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi. Bunga yosh avlod qalbiga ona tabiatga daxildorlik hissini tarbiyalash, ular qalbida tabiatga muhabbat uyg'otish, ekologik madaniyatni shakllantirish orqali erishishimiz mumkin. Tashlab ketilgan bir paket chiqindi shunchalik katta muommlarni keltirib chiqaradimi? – bo'lmagan gap deyishingiz mumkin . Lekin siz o'ylab ko'ring shu yaqin atrofda faqat siz yashamasiz – ku, sizning shaxringiz yoki qishlog'ingizda qancha aholi istiqomat qiladi? Ular ham huddi shuncha ahlatni hohlagan joyiga uloqtirib ketaverishsa nima bo'ladi? Butun bir mamlakat aholisi bir hovuchdan chiqindilarni ko'chaning istalgan joyiga tashlab ketishsa atrofda yaxshigina chiqindilar uyimi hosil bo'ladi. Inson yashar ekan harakatlanadi, oziqlanadi va yana bir qancha vazifalarni bajaradi. Hech qachon to'xab bir joyda qotib qolmaydi. Bu jarayonlarning barchasida chiqindilar hosil bo'ladi va to'planib boradi. Bu esa chiqindilarni to'plash va qayta ishlash zaruriyatini o'z –o'zidan keltirib chiqaradi.

BMT ma'lumotiga ko'ra, dunyo aholisi 8 milliardga yaqinlashmoqda va bu raqam 2050 – yildan 9, 7 milliardga, 2100 – yilda esa 11, 2 milliardga yetishi kutilyapti . Aholining 55 % shaharlarda istiqomot qilayotgan bo'lsa, 2050 yilga borib bu raqam 70 foizga boradi. Bu esa katta – kichik shaharlarda chiqindilar bilan bog'liq muommlarni keltirib chiqarmoqda. Mayishiy chiqindilar aholi jon boshiga har yili 1% ga oshayotgani e'tiborga olsak, demak muammoni hal qilish bo'yicha tezkor choralar ko'rilmagan ekan, bu dunyo ekologiyasiga yanada jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. [2]

Lekin ularni yig'ish, saralash, qayta ishlash va utilizatsiya qilish ahvoli qoniqarli emas . Misol uchun, Qoraqalpog'istonda 10% , Farg'ona va Qashqadaryoda 20% chiqindi qayta ishlanadi. [3] Chiqindilar muommosi dolzarb bo'lsada, hali bu muommo to'laligicha hal etilgani yo'q. Biz chiqindi hosil bo'lish jarayonini qisman kamaytirishimiz yani chiqindisiz tehnologiyalardan foydalanishimiz mumkin, lekin bu ham muammoni bartaraf eta olmaydi. Chiqindilarni 100% utilizatsiya qilish imkoni bormi? rivojlangan davlatlar tajribasiga tayyangan holda aytish mumkinki mayishiy

chiqindilarning 80% ni qayta ishlash mumkin. Chiqindi juda arzon homashyo hisoblanadi, chiqindi tarkibidagi qog‘oz, yogoch, metall plastmasa mahsulotlarini qayta ishlab arzon hom ashyoga ega bo‘lishimiz mumkin. Chiqindining tarkibiga qaraydigan bo‘lsak organik moddalar 85 %ni tashkil qiladi va buni qayta ishlasak kattagina energiya manbayiga ega bo‘lamiz.

Chiqindixonalar oldidan o‘tganimizda yoqimsiz havoni sezishimiz mumkin ayniqsa bu yoz oylarida yaqqol seziladi. Buning sababi to‘planib qolgan chiqindi uyumlari vaqt o‘tishi bilan bijg‘ib o‘zidan yoqimsiz gaz chiqara boshlaydi. Bu gaz tarkibining asosini metan gazi tashkil etadi. Yoz oylarida, bu hidni yaqqolroq sezishingizga sabab havo haoratining ko‘tarilishi natijasida, bijg‘ish jarayoni tezroq kechadi va gaz ajralish jarayoni ham tezlashadi. Shu sababdan ko‘p qavatli uylar oldida chiqindixonalar qurilgan bo‘lib, to‘plangan chiqindilar o‘z vaqti bilan olib chiqib ketiladi. Aholi turar joylaridan chiqan chiqindilar ma‘lum bir belgilangan kunlarda chiqarib tashlanadi.



Malum qilinishicha, ayni aqtda respublikada 13 ta sanitar jihatdan tozalashga ixtisoslashtirilgan davlat unitary korxonalarini hamda ularning tuman va shaharlarda 174 ta filali, shuningdek, “Maxsustrans” DUK hamda 101 ta xususiy korxonalar faoliyat yuritmoqda. [2]

Prezidentning 2019- yil 17 – apreldagi qrori bilan, 2019-2028-yillarda O‘zbekistonda qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish

strategiyasi “ tasdiqlangan. Unda, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlashning samarali va zamonaviy tizimini yaratish ko‘za tutilgan. Bugun biz qancha qaror chiqarmaylik , tozalash ishlari uchun milyonlab mablag‘ ajratmaylik aholining ekologik madaniyatini shakillantirmasak barcha qilinayotgan ishlar yetarlicha samara bermaydi. Ko‘cha hovlimiz atrofi chiroyli, obod bo‘lsa ham ko‘zimiz quv naydi ham sog‘lig‘imiz uchun foydali.

Kuni kecha shahrimiz ko‘chalarida chang shunaqangi ko‘tarildiki mashinalar harakatiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Nafas olish qiyinlashib bir qancha noqulayliklarni keltirib chiqardi . Bularning barchasi bizning tabiatga nisbatan vahshiyona munosabatda bo‘lganimiz sabab b‘lmadimi? Daraxt va butalarni qirqib tashlab o‘rniga yangilarini ekmadik . Yantoq shuvoq va shunga o‘xshagan but ava yarim butalar qishda issinish yoki o‘tin sifatida yoqish uchun kesib kelindi . B u o‘simliklarni ham tabiatda o‘z amaliy ahamiyati bor ular cho‘llarda qumlarining shamol tasirida havoga ko‘tarilishini oldini olardi , lekin biz bu haqida o‘ylab ko‘rmadik ham keyin tabiat ham bu qilgan ishlarimizga , o‘z javobini berdi . Bugun ekologiya buzilib ketgan turli kassalliklar ko‘paygan havo harorati yildan –yilga ko‘tarilgan deymiz bunga sabab avolo o‘zimiz va ko‘r –ko‘rona qilayotgan ishlarimiz sabab deb hisoblaymiz .

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki tabiatda barcha narsa bir biri bilan uzviy bo‘langan , hususan biz ham tabiatning bir bo‘lagimiz. Bugun muammo darajasiga ko‘tarilgan chiqindilar muammosi yoki ekologik holat har birimizni etiborimizdan chetda qolmasligi darkor . Atrofimizni toza saqlasak, boshqalarning ham nomaqbul harakatlariga be etibor qaramasak ahvol bundanda jiddiy tus olmaydi . Aslida barcha muammolar etiborsizlikdan kelib chiqadi . Biz bugun ozod va obod vatan barpo etaylik toza, musofo havomizni, go‘zal tabiatimizni, kelajak avlodlarimizga ham tortiq etaylik.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. Shavkat Mirziyoyevning 2 – fevraldagi chiqindilar bilan ishlash tizimi va ekologik holatni yaxshilash , “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish borasidagi videoselektrdagi nutqi .
2. Kun.uz sayti
3. Yuz.uz sayti

## **BIOLOGIYA DARSIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI**

**Rashidova Xurshida Halimovna**

Navbahor tuman kasb-hunar maktabi biologiya fan o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada umumiy o'rta ta'lim tizimida dars samaradorligini oshirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish zaruriyati hamda interfaol darslar ta'lim sifatini ko'tarishdagi asosiy vazifalari xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** hujayra, moddalar va energiya almashinuvi, evolyusion rivojlanish, odam genetikasi, biologik tushuncha, genlarning o'zaro ta'siri, irsiyat, o'zgaruvchanlik, genetik simvollar.

### **KIRISH**

Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va ular egallagan bilimlarni o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borishlari lozim. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim-tarbiyani tubdan isloh qilish ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish; «Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalari, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash»ga bog'liqligi ko'rsatiladi.

Biologiya fanini o'qitish jarayonida o'qituvchi ayrim muammolarga duch kelishi muqarrar.

Barcha o'quvchilarni dars jarayoniga to'la jalb qilish muammosi, chunki o'quvchilar darsda to'la qatnashishlari mumkin, ammo darsda barcha o'quvchilar tushuna olayotganligini hech kim to'la kafolatlay olmaydi, mana shu joyda o'qituvchining darsda qanday pedagogik texnologiyalardan foydalanishi asosiy ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

R.Ishmuhammedovning ta’kidlashicha, pedagogik texnologiyalar qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat’iy nazar, quyidagilarni o‘z ichiga olmog‘i lozim:

- pedagogik faoliyat (ta’lim-tarbiya jarayoni)ning samaradorligini oshirishi;
- o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g‘oyalarning ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Ma’lumki, o‘quvchilarning bilish faoliyati o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashgan darslar didaktik o‘yinli darslar deyiladi. Biologiya darslarida didaktik o‘yin texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishga imkon beradi. Didaktik o‘yinli darslarning syujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, anjumanlar va o‘yin mashqlar kabi turlari bor, bunda, masalan, biologiya darslarida matbuot anjumandan foydalanish yo‘llari ishlab chiqilishi mumkin. Muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanishda o‘qituvchi tomonidan darsning quyidagi bir necha bosqich asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

I bosqich. Psixologik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan o‘quvchilardan teng sonli, deyarli teng kuchli kichik guruhlarni shakllantirish kerak.

II bosqich. Kichik guruhlarga muammoli savollardan iborat bo‘lgan o‘quv topshiriqlarini tarqatish va topshiriqning didaktik maqsadi bilan tanishtirish lozim.

III bosqich. O‘quvchilarning bilish faoliyatini o‘quv muammolarini hal etishga yo‘naltirish.

Bu dars jarayonida «Aqliy hujum»dan foydalanilsa, o‘quvchilar avval o‘zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo‘llab, bilimlari kengaytiriladi, chuqurlashtiriladi, aqliy faoliyat usullari egallanadi.

«Aqliy hujum» darslari dasturdagi muayyan bir mavzuni o‘rganishga bag‘ishlanadi.



Muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanib darslarni tashkil etishning didaktik maqsadi:

- o‘quvchilarning bilish faoliyatini faol- lashtirish orqali chuqur bilim egallash va fanga qiziqishlarini orttirish, bilimlarini kengaytirish;
- o‘quvchilar bilimidagi mavhum tushunchalarni aniqlash va ularga barham berish, bilim olishga bo‘lgan intilishni rivojlantirish;
- o‘quvchilarning nutqini o‘stirish, o‘z fikrini lo‘nda va mantiqan to‘g‘ri bayon etish, ularni dalillash ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa qilib aytganda, biologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchilarni o‘zlashtirishida qiyinchiliklar tug‘diruvchi mavzu larni o‘qitishda turli metodlardan foydalanib darslar sifatini oshirish bilan birga yosh avlodni mustaqil fikrlovchi, fanga oid savollarga o‘zi tushungan holda mustaqil javob beradigan, atrof-muhitni sevuvchi, o‘z organizmi haqida batafsil fikrga ega, atrofmuhitda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga o‘z fikrini bildiradigan insonlar etib tarbiyalashda samara beradi, o‘quvchilarning fan asoslarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlari va ehtiyojlarini rivojlantirish imkonini beradi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. - T.: RBIMM, 2018.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiya- lar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: «Iste’- dod», 2018.
3. Tolipova J.O., G‘ofurov A.T. Biologiya o‘qitish metodikasi. O‘quv- metodik qo‘llanma. – T.: «Bilim», 2014.
4. Tolipova J.O. Biologiyani o‘qitishda pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – . Nizomiy nomidagi TDPU, 2015.

**VOLEYBOL SPORT TO‘GARAGINING 10-11 YOSHLI UMUMTA’LIM  
MAKTAB O‘QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIGIGA  
TA’SIRI**

**Boltabayev A’zamjon Sidiqjon o‘g‘li,**

**Imomaliyeva Gullola Rahmonali qizi**

Namangan davlat universiteti magistrantlari,

*Annotatsiya:* 10-11 yoshli maktab o‘quvchilar uchun umumta’lim maktablarida tashkil etiladigan sinfdan tashqari ishlar va uning tarkibiy qismi bo‘lgan Voleybol sport to‘garaklarining ahamiyati hamda o‘quvchi bolalar jismoniy sifatlariga, ya’ni chaqqonlik, tezkorlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik ta’siri haqida nazariy ma’lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

*Kalit so‘zlar:* sinfdan tashqari ishlar, Jismoniy sifatleri, chaqqonlik, tezkorlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik Jismoniy rivojlanish, Sport o‘yinlari.

**THE EFFECT OF THE VOLLEYBALL SPORTS CLUB ON THE  
PHYSICAL FITNESS OF 10-11-YEAR-OLD GENERAL SCHOOL  
STUDENTS**

*Annotation:* The importance of extracurricular activities organized in general education schools for 10-11-year-old schoolchildren and the importance of volleyball sports clubs, which are part of it, and physical qualities of schoolchildren, i.e. agility, quickness, strength, endurance, theoretical information and practical recommendations about the effect of elasticity are presented.

*Key words:* extracurricular activities, Physical qualities, agility, speed, strength, endurance, flexibility Physical development, Sport games.



O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirishga katta etibor qaratildi. Ma’naviy-marifiy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va an’analar tiklandi, ayniqsa jismoniy tarbiya va sport bilan bog‘liq ko‘pgina tadbirlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24- yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risidagi 5924-sonli farmoni<sup>21</sup> buning yorqin dalili sifatida keltirish mumkin. Umumta’lim maktablarida olib borilayotgan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining o‘rni juda ham ahamiyatli bo‘lib, ushbu mashg‘ulotlar maktab o‘quvchilariga bazaviy tayyorgarlikni yo‘lga qo‘yish uchun xizmat qilmoqda. Sport to‘garaklari sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakli ekanligini hisobga olib, sport to‘garaklari ichida biz yuqorida keltirib o‘tgan “Voleybol sport to‘garaklari”ning o‘quvchilar jismoniy tayyorgarligiga ta’sirini ushbu tadqiqot ishimiz orqali ilmiy asoslashga urindik.

Asosiy qism. Umumta’lim maktablaridagi „*Sinfdan tashqari ishlar*” faoliyati juda ham keng qamrovli bo‘lib, uning o‘ziga xos tarifi „Umumiy ta’lim maktablarida o‘quv kuni yakunlanganidan so‘ng sinfdan tashqari vaqtda o‘tkaziladigan jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish mashg‘ulotlari, sport hamda sog‘lomlashtirish tadbirlari tizimini sinfdan tashqari ishlar (STI) deb atash qabul qilingan. Bundan tashqari Sinfdan tashqari ishlarni amalga oshirishda, „Maktab jismoniy tarbiya jamoasi” asosiy vazifalarni bajaradi va quydagicha tariflanadi.

**Maktab jismoniy tarbiya jamoasi** (keying qatorlarda MJTJ deb yoziladi) bu o‘quvchilar jismoniy tarbiyasini amalga oshirishda maktab va oilaga yordam beradigan o‘quvchilarning ko‘ngilli, o‘zlarining xohishi va tashabbusi bilan faoliyat ko‘rsatadigan jamoatchilikka asoslangan tashkilotidir.

Biz mazkur faoliyatni amalga oshirishda Maktab jismoniy tarbiya jamoasining asosiy uch kengashi mavjud. *Ular:*

---

<sup>21</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24- yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risidagi 5924-sonli farmoni

1. *Ommoviy tashkiliy ishlar kengashi.*
2. *O‘quv –sport ishlari kengashi.*
3. *<<.Alpomish>> va << Barchinoy>> salomatlik testi kengashi.*

Asosan mazkur kengash faoliyati ko‘pgina sog‘lomlashtiruvchi tadbirlarni o‘zida jamlaydi.

**Maktab sport musobaqalari sinfdan tashqari ishlarning ommaviy shakli sifatid. Sinfdan tashqari ishlarning musobaqa shakli.** Umumiy ta’lim maktabida olib boriladigan jismoniy tarbiya jarayoni va bu jarayon tarkibidagi barcha jismoniy tarbiya ishlariga yakun rolini bajaradi, ommaviy tarzda uyushtiriladigan tadbirlardan biri sanaladi. Albatta musobaqalarni tashkillash va o‘tkazish o‘ziga xos quydagicha ketma -ketlikda amalga oshiriladi. Dastlab o‘tkaziladigan musobaqaning nizomi yoziladi va uni o‘tkazish dasturi tuziladi. Har qanday musobaqa nizomi bir necha bo‘limlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Musobaqaning mazmuni yoki dasturi, musobaqaning turi va qo‘yilgan vazifalari bilan belgilanadi.

Yuqoridagi barcha malumotlar sizga ommoviy tashkiliy ishlar faoliyatini tanishtirib o‘tish uchun bayon etildi.

Sport to‘garak mashg‘ulotlari sinfdan tashqari ishlari asosiy ko‘rinishi deb hisoblashimizga quydagi asosiy sabablarni keltirdik. *Ular:*

1. *Maktablarda sport to‘garaklarining ko‘lamining kengligi.*
2. *O‘quvchilarning ko‘pchiligi sport to‘garaklariga qatnashishi.*
3. *Sport to‘garalari turli kasalliklarga va zararli odatlarga nisbatan imunitet ekanligi.*
4. *Sport to‘garaklari o‘quvchilar jismoniy tayyorgarligiga ta’sirini yuqoriligi va kelgusida sport faoliyati bilan muntazam shug‘ullanishlari uchun ba’za ekanligi bilan izohlash mumkin.*

Mazkur faoliyatni tashkil etishni biz maktab jismoniy tarbiya fani dasturidan chetlashmagan holda sport fanlari qatoriga kiruvchi Voleybol sport to‘garak mashg‘ulotlari misolida ko‘rib chiqamiz.

*Tajriba qismi.* Biz quyda Namangan viloyati Chust tumani XTB ga qarashli 9-umumta’lim maktabida tashkillangan Voleybol sport to‘garaklariga muntazam qatnashuvchi 12 nafar o‘g‘il bolalarni tajriba hamda Namangan viloyati Chust tumani XTB ga qarashli 75-maktabning shu yoshdagi 19 nafar Gandbol sport to‘garagi a’zolarini nazorat guruhi sifatida tanlab oldik. O‘quvchilarni jismoniy sifatlarining rivojlanishini kuzatish davomida quydagi natijalarni 1-jadvalda qayd etdik.

***Maktab o‘quvchilarning (10-11 yosh) tajribadan keyin bo‘lgan jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari***

***1-jadval***

| <i>Nº</i> | <i>Sinov turlari</i>                                | <i>Sinaluv<br/>chilar<br/>Soni</i> | <i>Tajriba</i>      | <i>Nazorat</i>      | <i>t</i>    | <i>P</i>        |
|-----------|-----------------------------------------------------|------------------------------------|---------------------|---------------------|-------------|-----------------|
| <i>1</i>  | <i>Yuqori startdan<br/>yugurush (30m)</i>           | <i>19-n</i>                        | <i>5,7 ± 0,09</i>   | <i>6,3 ± 0,05</i>   | <i>1,23</i> | <i>&gt;0.05</i> |
|           |                                                     |                                    | <i>6,4 ± 0,06</i>   | <i>6,8 ± 0,04</i>   | <i>1,02</i> | <i>&gt;0.05</i> |
| <i>2</i>  | <i>3x10 mokisimon<br/>yugurish</i>                  | <i>19-n</i>                        | <i>7,7 ± 0,15</i>   | <i>8,3 ± 0,06</i>   | <i>1,23</i> | <i>&gt;0.05</i> |
|           |                                                     |                                    | <i>7,9 ± 0,16</i>   | <i>9,0 ± 0,07</i>   | <i>1,02</i> | <i>&gt;0.05</i> |
| <i>3</i>  | <i>Arg‘amchidan<br/>sakarash (30 soniya)</i>        | <i>19-n</i>                        | <i>38,3 ± 1,46</i>  | <i>32,6 ± 0,71</i>  | <i>1,38</i> | <i>&gt;0.05</i> |
|           |                                                     |                                    | <i>45,5 ± 1,19</i>  | <i>39,2 ± 0,84</i>  | <i>1,25</i> | <i>&gt;0.05</i> |
| <i>4</i>  | <i>Turgan joydan<br/>uzunlikka sakrash<br/>(sm)</i> | <i>19-n</i>                        | <i>143,4 ± 0,72</i> | <i>137,3 ± 0,77</i> | <i>2,43</i> | <i>&gt;0.05</i> |
|           |                                                     |                                    | <i>133,5 ± 1,63</i> | <i>126,6 ± 1,66</i> | <i>2,04</i> | <i>&gt;0.05</i> |
| <i>5</i>  | <i>150 gr koptokni<br/>uloqtirish (sm)</i>          | <i>19-n</i>                        | <i>26,7 ± 0,51</i>  | <i>22,5 ± 0,34</i>  | <i>1,79</i> | <i>&gt;0.05</i> |
|           |                                                     |                                    | <i>23,2 ± 0,49</i>  | <i>18,8 ± 0,33</i>  | <i>0,94</i> | <i>&gt;0.05</i> |

Yuqoridagi jadvalda ko‘rinib turibdiki tajriba va nazorat guruhi o‘rtasida sezilarli darajada tafovut ko‘zga tashlanadi. Tajriba guruhidagi natijalar yaxshilanganiga guvoh bo‘lish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24- yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risidagi 5924-sonli farmoni
2. A.Abdullayev, R.Rasulov, A.Xasanov UMUMIY O‘RTA VA KASB-HUNAR TA’LIMI TIZIMLARIDA JISMONIY TARBIYADAN SINFDAN TASHQARI ISHLAR Toshkent 2009. -200. b.
3. Bondarevsky E .YA. Xankeldiyev SH. X. O‘quvchi yoshlarning jismoniy tayyorgarligi. Meditsina –T.: 1986.-204. b.
4. A.Abdullayev. Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2018. -410.b.
5. R.Abdumalikov ,T.T. Yunusov. va boshqalar. «O‘zbekistonda jismoniy tarbiya taolimining rivojlanishi», metodik tavsiyanoma. T.,

## YOZUVCHI ORZU QILGAN ASAR

**Abdusalamova Dilafruz Raxmat qizi**

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Email: [Abdusalomovadilafruz4@gmail.com](mailto:Abdusalomovadilafruz4@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada urushning inson taqdiriga qanchalik ta’sir qilgani va o‘ylanmay qilingan ishlar bir necha avlod hayotini izdan chiqarigani haqida fikr yuritilgan. Tinchlikni qadriga yetishimizga undovchi, fikrlash dunyomizni o‘stiruvchi asar haqidagi mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** internet, telefon, urush, zilzila, ko‘koldosh, sabr timsoli, taqdir.

*“Bu kitob jism-u fig‘onimdir mening,  
Bu asar jon-u jahonimdir mening.”*

*G.Narikatsin*

Yigirma birinchi asr soniyalarda yillarga teng kashfiyotlar bo‘lgan davr. Bir muddat chalg‘isangiz insoniyatdan orqada qolayotgandeksiz. Internet yosh-u qarni birdek o‘z komiga tortayotgan bir paytda telefonini bir chetga surib qo‘yib butun vujud bilan his-hayojonga berilib, o‘z tashvishlarni ham unitib kitob o‘qiyotgan insonni ko‘rish qaysiki ma’noda qoshtirnoq ichidagi topilmadek gap.

Zilzila. Shaharni ko‘z ochib yumguncha barbod qilib yuborgan, shu bilan birga bir qiz o‘limini bo‘yniga olgan ofat. Munavvar devor ostida yotibti. Bu dunyoni tark etib yengil tortgandek go‘yo. Yo‘q uni bu ofat halokat qilmadi. Qalbidagi hayotga ishonchsizlik, afsus-nadomat zilzilasi halok qilmagandimi? Axir, zilzila bo‘lishidan oldin o‘z qalbi zilzilasiga chiday olmay dori ichgan Munavvar emasmidi? Bu shunaqa asar savollar paydo qiladigan angelay olsangiz qaysidir bir jumlada shu savolga javob berkitilgan asar.

Nega aynan ikki eshik orasida deb nomlanishiga ham asar rivojida Oqsoqol tilidan aniq javob berilgan. Asarni o‘qir ekansiz shu ikki eshik orasidagi inson taqdirilarini, hayot saboqlairni, sabr, ona mehrini ko‘rib inson zoti nimalarga chidamaydiya deb yuborasiz.

Kimsan urushdan qaytishga ishonar. Shu ishonchi sabab ham to‘y boshlattirib qo‘ygandi. Robiya esa hayot tashvishlardan ortib charchagan holida ham shirin to‘y tashvishini qilib Kimsan uchun ro‘molcha to‘qir edi. Mana shu joyda Kimsaning urushdan qaytishiga, hayotga bo‘lgan ishonchi barq urib turadi. Lekin taqdir charxpalagi hammasini o‘zgartirib yubordi.

Muzaffar baxtini Munavvar ko‘rdi. Ammo sevgi shu ikki samimiy, bolalarcha qalb egalariga ham tatimadi. Chunki ular aka-singil, ko‘koldosh, bo‘lib chiqqandi. Bunga sababchi Ra‘nomi, Umar Zakunchimi yoki millionlab kilometr uzoqda bo‘layotgan urushmi? Urushning achchiq shamoli, tafti bir necha avlod taqdiriga ta‘sir etmasdan qolmadi. Misol tariqasida yana o‘sha Muzaffar va Munavvar taqdirini ko‘raylik. Ikkisi ham urushdan keyingi avlodlar edi. Lekin urush davridagi voqealar yillar o‘tsada yosh avlodning hayotiga, oppoq orzulariga qora dog‘ tushirib, taqdir yo‘llarni ayro qilib yubordi. Shomurod urushga ketmaganda Ra‘no unga xiyonat qilmasdi, Muzaffar yetim o‘sib, ko‘ngil qo‘ygan qiziga aka bo‘lib chiqmasdi.

The methodological condition of speech development is to create a broad system of speech activity, that is, to understand a good speech pattern, and secondly, to create conditions for the expression of ideas using the means of language learned. Improving students’ speech in school is considered to be one of the main tasks of mother tongue teaching. Speech formation is a key task not only in native language and reading lessons, but also in all subjects in the curriculum (mathematics, science, technology, fine arts, music, etc.) as well as in extracurricular and extracurricular activities.

Competence ~ (Latin: compete - to achieve. Knowledge, experience, education in this or that field. lim success, professional orientation, and the like. Competency is a term widely used in modern education to include education, performance appraisal, educational success, professional orientation, and the like. Today, in terms of meaning, it is considered to be incompletely defined and unsubstantiated. Competence ~ the ability to do something effectively, to perform according to the standards applicable to a particular profession. Verbal competence consists of listening comprehension, speaking, reading, and writing, and achieves the objectives of the lesson. The formation of verbal competencies has long been carried out using known rules, methods and tools. Today, new approaches imply the formation and development on the basis of innovative technologies.

The word "innovation" comes from Latin and means "innovation". Concepts such as innovation in education, innovative activity, innovative pedagogy, innovative technology, and innovative process management first emerged in the 1960s, when the concept of “educational technology” was first recognized in the United States and Western Europe. At the same time, the European Center for Pedagogical Innovation and the Institute were established. General and specific aspects of innovative activity K.Angelovsky, G.I.Gorskaya, V.A. Scholars such as Kan-Kalik, S.L.Kuzmina, V.A.Slastenin, L.M.Friedman have covered this in their research work. Pedagogical scientists N.Azizhojajev, B.Farberman, R.Mavlonova, U.Nishonaliev,

N.Sayidahmedov, M.Ochilov have conducted research on the problems of development of pedagogical innovation in our country. Innovation is a matter of urgency, a new approach formed in a system. They are born on the basis of initiatives and innovations and are promising for the development of educational content, as well as have a positive impact on the development of the education system as a whole. Innovation is the end result of a technology, form, or method in a particular field of activity or production, a new approach to solving a problem, or the application of a new technological process that is known to lead to success. The goal of innovation is to get the most out of ~ the money or effort expended. Unlike a variety of other emerging innovations, innovation involves controlled and controlled mechanisms. The concept of innovative technology implies increasing the efficiency of education by providing information in a new way, in a new way.

Technology Greek: "techne" means craft, art, skill, learning, master, and "logos" means science, education. The use of innovative technologies in the classroom today increases the effectiveness of the lessons several times. It is advisable to try all new methods so that students can better understand and apply today's new knowledge. The use of innovative technologies in the formation of students' speaking competencies means expanding the horizons of students, educating each student to acquire knowledge in accordance with today's international assessment programs. Because we need modern youth, with whom we can create our place in the world community.



**References:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T: O‘zbekiston. 2017-yil.
2. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. T: 2018-yil.
3. Qosimova M., Matchonov M., G‘ulomova H. Ona tili o‘qitish metodikasi darslik. 2009-yil.
4. Mavlonova R., Rahmonqulova M. Boshlang‘ich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiyasi. T: G‘afur G‘ulom. 2019-yil.
5. Omonov H.T., Xattabov M.B. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2016-yil.

## MURAKKAB VA SHAKLDOR DETALLARNI LOYIHALASHDA SIEMENS NX KOMPYUTER DASTURIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI

**Ruzaliyev Xojiakbar Shermahammad o‘g‘li**

Farg‘ona politexnika instituti

E-mail: [xojiakbarruzaliyev@gmail.com](mailto:xojiakbarruzaliyev@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Siemens NX kompyuter dasturining imkoniyatlari va murakkab va shakldor detallarni loyihalashda ushbu dasturning afzalliklari haqida so‘z boradi

**Kalit so‘zlar:** Dastur, detal, loyihalash, texnologiya, model, CAD, CAM, CAE.

### ADVANTAGES OF USING SIEMENS NX COMPUTER SOFTWARE IN DESIGNING COMPLEX AND SHAPED PARTS

**Annotation:** This article discusses the capabilities of the Siemens NX computer program and its advantages in the design of complex and shaped parts.

**Keywords:** Program, part, design, technology, model, CAD, CAM, CAE.


Siemens NX avtomatlashtirilgan loyihalash tizimi detallarni 2 va 3 o‘q bo‘ylab prizmatik va erkin shakllarini qayta ishlash uchun juda keng imkoniyatlarni ochadi.

Siemens NX dasturi qisqa vaqt ichida yuqori sifatga ega bo‘lgan detallarni ishlab chiqishni hal etishdagi eng qulay dasturiy mahsulot hisoblanadi. Detalni loyihalashtirishdan boshlab, uni ishlab chiqarishgacha bo‘lgan jarayonning bitta tizimda amalga oshirilishi dasturning yutuqlaridan biridir.

Siemens NX dasturiy paketining har bir funksiyasi imitatsion modellashtirishdan tortib, dasturlashning qo‘shimcha imkoniyatlarigacha ustunlikka ega.

Sanoatlashtirilgan vositalarning asosiy vazifalaridan biri Siemens NX dasturida shakllarning yuzalarini modellashtirish, ularni viziullashtirish, avtomobil dizaynini yaratish, avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari, uning texnologiyalari va injenerlik analizi vositalarini yaxlit holga keltirishdan iborat.

Konstruksiyalash. Siemens NXning konstruksiyalash ilovalari tarkibiga detallarni loyihalash, yig‘malar (сборка) bilan ishlash, foydalanuvchining konstruktiv elementlarini yaratish, truboo‘tkazgichlarni loyihalashtirish, chizmachilik kabilar kiradi.



1-rasm. Siemens NX dasturida 2D chizma bilan ishlash.

Siemens NX o‘zida raqamli dastur bilan boshqarishda dasturlash uchun to‘liq vositalar jamlamasini ifoda etadi. Bundan tashqari, yaxlitlangan dasturiy ilovalar paketi bitta tizimdan chiqmagan holda detallar ishlab chiqarishni ta‘minlaydi. Bu ilovalar detallarni modellashtirish, modellashtirilayotgan asboblarning geometriyasini tanlash va dasturning texnologiyalari asosida nazorat qiluvchi dasturlarni yaratish imkonini beradi.


Detailarni loyihalash va ishlab chiqarish uchun dasturiy ta‘minotning effektivligi bilan birgalikda yangi kontrollerlar, stanlar va boshqa qurilmalar sanoat korxonalarini maksimal darajada ishlab chiqarishini ta‘minlaydi.

Injenerlik tahlili. Siemens NX Digital Lifecycle Simulation injenerlik tahlili paketi Siemens NX dasturining asosiy tahlil tizimi hisoblanadi. Bu paket Siemens NX Design ilovasi bilan birlashtirilgan.

Siemens NX Nastran loyihalashtirilayotgan mahsulotning kompyuterdagi injenerlik tahlilini olib borish uskunasi hisoblanadi. U mahsulot yaratishdagi ko‘plab statistik, chiziqli va chiziqli bo‘lmagan dinamik injenerlik tahlili vazifalarini hal etish imkoniyatini beradi. Siemens NX Nastran kuchlanish va yemirilish, tebranish, chidamlilik, issiqlik uzatish, shovqinlar ustida tahlil o‘tkazishni ta’minlaydi.

Siemens NX Tooling uskunasi loyihalash-texnologik uskunalarni loyihalash, ishlab chiqarishning texnologik tayyorgarlik jarayonida foydalaniladi. Uskunalar avtomatik tarzda detallarning modellari bilan bog‘lanadi hamda shtamplar, turli xildagi asboblarni tez va aniq loyihalashtirishni ta’minlaydi.

Siemens NX da ko‘p koordinatali tizimlarda ishlash yuqori aniqlikdagi murakkab detallarni qisqa vaqtda o‘rnatish va ishlov berish jarayonlarini amalga oshirishni ta’minlaydi va ishlab chiqarish jarayonini tezlashtiradi. Bunday qayta ishlash bilan asbobning boshqarilayotgan hududdagi harakatini aniq ta’riflash mumkin. Bu esa detallarning ishlov berilishini boshqarishni ta’minlaydi.



2-rasm. Siemens NX dasturida 3D modellashtirish va CAM tizim bo‘yicha ishlov berish dasturini tuzish.

Qoralama (*chernovoy*) va birlamchi (*chistovoy*) tez va aniq ishlash berish usuli asosan aviakosmik sanoatda foydalaniladigan murakkab shakldagi detallarni tayyorlash imkonini beradi.

Siemens NX dasturidagi avtomatlashtirilgan loyihalashning yangi texnologiyalari istalgan avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarida yaratilgan detallarning modellari yuqori tezlikda tahrirlash uchun xizmat qiladi. Dastur qo‘shimcha ilovalarni o‘z ichiga

oladi. Loyihalash uskunalari moduli va boshqarish dasturlarini yaratish ilovalarini bunga misol qilishimiz mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamadjonov, A. M., & Ruzaliyev, X. S. O. G. L. (2021). SIEMENS SIEMENS NX 12.0 DASTURI YORDAMIDA RAQAMLI DASTUR BILAN BOSHQARILADIGAN DASTGOHLAR UCHUN TEXNOLOGIK JARAYONLARNI LOYIHALASH. *Scientific progress*, 1(6), 397-401.
2. Mamadjonov, A. M., & Ruzaliyev, X. S. O. G. L. (2021). RAQAMLI DASTUR BILAN BOSHQARILADIGAN DASTGOHLAR UCHUN DETALLARGA ISHLOV BERISH DASTURINI ISHLAB CHIQISH. *Scientific progress*, 2(1), 11-17.
3. Юсуфжонов, Отабек Файратжон Ўғли, Рўзалиев, Хожиакбар Шермамад Ўғли, & Турғунбеков, Ахмадбек Махмудбек Ўғли (2022). ОБЗОР И АНАЛИЗ РЕГЕНИРАЦИИ АСФАЛЬТОБЕТОНА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (4), 528-540.
4. Ruzaliyev, Khojiakbar Shermakhamad Ugli (2022). ANALYSIS OF RESEARCH ON THE TREATMENT OF DETAILS ON THE INNER CYLINDRICAL SURFACE LAYER. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (4), 281-290.
5. Yusufjonov Otabek, Ro‘Zaliyev Xojiakbar, & Turgunbeqov Axmadbek (2022). EXPERIMENTAL STUDIES OF THE TECHNOLOGICAL PROCESS OF PROCESSING CONCAVE SURFACES OF COMPLEX SHAPES. *Universum: технические науки*, (5-10 (98)), 48-50.
6. Ruzaliyev, X. S. (2022). Analysis of the Methods of Covering the Working Surfaces of the Parts with Vacuum Ion-Plasmas and the Change of Surface Layers. *Eurasian Scientific Herald*, 9, 27-32.
7. Сардорбек Маъруфович Юсупов, Жасурбек Файратжон Ўғли Файратов, Асилбек Файратжон Ўғли Назаров, Отабек Файратжон Ўғли Юсуфжонов КОМПАЗИЦИОН МАТЕРИАЛЛАРНИ БОРЛАШ // *Scientific progress*. 2021. №4.

URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kompazitsion-materiallarni-borlash> (дата обращения: 13.10.2022).

8. О. Ф. Юсуфжонов, Ж. Ф. Файратов ШТАМПЛАШ ЖАРАЁНИДА ИШЧИ ЮЗАЛАРНИ ЕЙИЛИШГА БАРДОШЛИЛИГИНИ ОШИРИШДА МОЙЛАШНИ АҲАМИЯТИ // *Scientific progress*. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/shtamplash-zharayonida-ishchi-yuzalarni-eyilishga-bardoshliligini-oshirishda-moylashni-a-amiyati> (дата обращения: 13.10.2022).

9. Юсупов, С. М., Файратов, Ж. Ф. Ў., Назаров, А. Ф. Ў., & Юсуфжонов, О. Ф. Ў.(2021). КОМПАЗИЦИОН МАТЕРИАЛЛАРНИ БОРЛАШ. *Scientific progress*, 1(4).

10. Otabek G‘Ayratjon O‘G‘Li Yusufjonov SHTAMPLARNI TA‘MIRLASH USULLARI TAHLILI // *Scientific progress*. 2021. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/shtamplarni-ta-mirlash-usullari-tahlili> (дата обращения: 13.10.2022).

11. Yusufjonov, O. G. o‘g‘li, & Ruzaliyev, X. S. o‘g‘li. (2022). THE ROLE COMPUTER AIDED DESIGN (CAD) IN MEDICINE. *INTERNATIONAL CONFERENCES*, 1(8), 151–155. Retrieved from <http://researchedu.org/index.php/cf/article/view/157>

12. Yusufjonov, O. G. o‘g‘li, & Ruzaliyev, X. S. o‘g‘li. (2022). MODERN MEASURING METHODS AND EQUIPMENTS. *INTERNATIONAL CONFERENCES*, 1(8), 87–93. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/139>

**PROFESSIONALLY- ORIENTED APPROACH IN TEACHING THE  
RUSSIAN LANGUAGE IN GROUPS WITH THE UZBEK LANGUAGE OF  
TEACHING IN MEDICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

**Irbutaeva Nigora Dilshodovna,**  
Samarkand State Medical University  
E-mail: [irbutayevanigora@gmail.com](mailto:irbutayevanigora@gmail.com)

*"The art of medicine is to entertain  
the patient while nature treats the disease."*

*Voltaire.*

**Annotation:** This article raises the question of the need to study the Russian language in medical universities. This necessity is argued by the obligatory possession of doctors not only by professional, but also by communicative competence.

**Keywords:** medicine, speech, doctor, patient, skeleton.

The process of assimilation of the language system and, in particular, vocabulary, is a complex activity that includes perspective, mental and practical actions.

The assimilation of a non-native language goes through several stages: first, receptive possession of this language material is carried out, that is, speech perception occurs through listening (oral speech) and reading (written speech), then reproductive possession comes, that is, a human reproduces the memorized heard, written, read, as a result, a productive possession is developed.

When you speak a language creatively, it can be considered in two ways: in terms of the ability to understand the thoughts of another person, expression in oral the literary language and grammatical norms.



In the Russian language classes at our university, teachers, as a rule, pay special attention to dialogic and monologue speech, taking into account the specialty, which will contribute to the further professional growth of specialists, strengthen the ability to conduct a dialogue with the patient, and activate acquaintance with scientific information in the field of medicine.

For this purpose, we select text materials that correspond to the interests of students. They are not saturated with unfamiliar words and complex structures. To successfully achieve our goals, we offer the following recommendations:

- highlight the grammatical basis in the sentence;
- identify secondary members of the proposal and others. For example:

### ***1. What bones make up the skeleton of the head?***

*The skeleton of the head is the skull. It has two sections - brain and facial. The medulla contains the brain, organs of vision, hearing and balance. The facial region forms the bony basis of the respiratory apparatus (upper respiratory tract) and the alimentary canal (oral cavity). The structure of the brain section includes two paired and four unpaired bones connected with sutures. They create reliable protection for the brain. In particular, the occipital bone forms the basis of the skull. It has a hole that connects the cavities of the skull and the spinal canal. On both sides of the hole there are two articular outgrowths, with the help of which the skull is connected to the first cervical vertebra. Other bones of the brain are: parietal, temporal, frontal, sphenoid and others.*

*The bones of the facial section include six paired and three unpaired bones. These are, in particular, paired maxillary, zygomatic, nasal, etc. The lower jaw is the only movable bone of the skull. In the upper and lower jaws there are cells in which the roots of the teeth are located.*

*The bones of the base of the skull have small openings through which blood vessels and cranial nerves pass.*



## **2. Cellular structure of the body**

*The main component of the body is the cell. The cell as a biological structure is the result of a long process of development of nature. The cell has a complex structure. All major life processes take place in it.*

*However, a living organism is not a simple collection of cells. All cells, tissues and organs are closely interconnected and form a single whole. The discovery of the cell is an achievement of natural science.*

Memorizing such short texts contributes to the development of the pace of speech, memorization of vocabulary, necessary constructions, and develops language skills.

Also in the classroom, students act out dialogues on the topics: "Doctor and patient", "Call an ambulance", "At the pharmacy" and others.

Here it is proposed to “play” the role of another person or “play out” this particular situation. This contributes to the development of the imagination of the student’s creative thinking, the ability to clearly and clearly express their thoughts and attitudes, as well as the formation of the ability to solve certain professional problems in practice. After all, the word "doctor" comes from the old Russian "lie", which meant "to speak", and every linguist knows this.

The methodological expediency of a specially directed system of texts, exercises and tasks, compiled taking into account the above factors, makes it possible to stimulate the speech activity of medical students.

### **LITERATURE:**

1. Kabardov M. K. Language and communication skills and competence / M. K. Kabardov, E. V. Artsishevskaya // Vopr. psychology. -1996. -No. 1. -Page. 43–48.
2. Irbutayeva N.D., SIGNIFICANCE AND USE OF MEDICAL TERMINOLOGY IN RUSSIAN LESSONS FOR UZBEK STUDENTS OF MEDICAL UNIVERSITIES //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 3. – C. 590-592.

3. Irbutayeva P.X Irbutayeva N.D. ,AVICENNA IS THE KING OF SCIENTISTS, THE LIGHT FROM THE EAST FOR THE CULTURE OF THE WEST,

<https://doi.org/10.55620/ujcr.2.sp2.2022>

4. N. D. Irbutaeva, P. Kh. Irbutaeva, S. Sh. Mukhitdinovna, Latin as international scientific, professional language of a doctor p.1026-1027, ,

<https://sammu.uz/frontend/web/upload/content-files/60a516e6551a2.pdf>

5. Irbutaeva N.D., Sultanmuradova F.A., ACADEMICIA journal: International multidisciplinary. Development of active and passive vocabulary of students. Methods for extracting an active dictionary from a text., 2021., p.945-948, v.11, No. 5,

<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=5&article=156>

6. The fundamental core of the content of general education / ed. V.V. Kozlova, A.M. Kondakov. – M.: Enlightenment, 2011. – 59 p.

## **AGROIQTISODIYOT TIZIMINI MODERINIZATSIYALASH BO‘YICHA INNOVATSIYALAR QO‘LLANILISHINI KELAJAKDAGI O‘RNI**

**Sh.X.Shokirov,**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
Qarshi filiali talabasi

**Sh.T.Turamuradov**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
Qarshi filiali talabasi

**Annotatsiya:** O‘zbekistonda qo‘llanilayotgan zamonaviy agroiqtisodiy yechimlar. Yetakchi mamlakatlar tajribalari hamda hamkorlik ishlarini amalga qo‘llanilishi va yechimlari. Su‘niy sug‘orish tizimlarining tadbiq etilishi hamda ulardan olingan natijalarning olidingi natijalardan foyda yoki zararini ko‘rsatib berish.

**Kalit so‘zlar:** Agroiqtisodiyot, agrar, sun‘iy sug‘orish, agrar munosabat.

Agroiqtisodiyot sanoati bu qishloq xo‘jalik mahsulotlari etishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste‘molchilarga etkazib berish bilan shug‘ullanuvchi iqtisodiyot tarmoq. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalarning amal qilishi iqtisodiyotning barcha sohalari, tarmoqlari va bo‘g‘inlari uchun umumiy bo‘lsada, lekin ulardagi tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga bog‘liq holda o‘ziga xos xususiyatlar ham kasb etadi. [1]

Mamlakatimizda agroiqtisodiyot yo‘nalishi mustaqillikka erishgandan beri etakchi marralarda iqtisodiyotga asosi ro‘lda qolib kelmoqda. Hozirgi kunda kelib jahon, ko‘plab rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslangan holda mamlakatimizda ham qo‘llanilishi bo‘yicha ko‘plab ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-iyuldagi PQ-4410-son qarori[2] bo‘yicha hozirgi hozirgi kunda O‘zbekistonda Turkiya, Germaniya tajribalari, texnikalari asosida sun‘iy

sugʻorish va yerning hosildorligini koʻpaytirish ishlariga keng investitsiya va keng sarmoya jalb qilinmoqda. Bundan tashqari davlat korxonalar, xususiy korxonalar, xorijiy korxonalar bilan sherikchilik hamda korporativ ishlar ham amalga oshirilib kelmoqdaligi, avvalo “Agroiqtisodiyot”imizda tub burilish boʻlishi kelib chiqmoqda. Bundan kelib chiqib endilikda sunʼiy sugʻorish tizimlaridan foydalanish davomiyligi boʻyicha koʻp yillik mahsulot va foydalanish imkoni kelib chiqadi. Ayniqsa, bu oʻziga xos xususiyat agrar sohada yaqqol namoyon boʻladi. Chunki bu yerda takror ishlab chiqarish koʻp jihatdan tirik organizm (hayvon, oʻsimlik va boshqalar) bilan ham bogʻliq. Agrar sohada ishlab chiqarish koʻp jihatdan yer bilan bogʻliq boʻladi. Yerga egalik qilish, tasarruf etish va undan foydalanish bilan bogʻliq boʻlgan munosabatlar agrar munosabatlar deyiladi. Qishloq xoʻjaligida takror ishlab chiqarishning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, bu yerda ishlab chiqarish jarayoni bevosita tirik mavjudotlar- yer, oʻsimlik, chorva mollari bilan bogʻliq boʻladi va tabiiy qonunlar iqtisodiy qonunlar bilan bogʻlanib ketadi. Bunda yer mehnat quroli va mehnat predmeti sifatida qatnashadi. Yerning boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqi shundaki, undan foydalanish jarayonida u yeyilmaydi, eskirmaydi. Aksincha, agar undan toʻgʻri foydalanilsa, uning unumdorligi oshib boradi. Shuning uchun hozirda lalmikor va shoʻrxok yerlarni ekin va meloratsiyaga tayyorlashga katta ahamiyat berilmoqda. Hozirgi dunyodagi yuzaga kelayotgan yer, suv va iqlimiy muammolarda tabiatni asrashga qaratilgan har qanday islohatlar butunjahon olididagi asosiy mavzulardan hisoblanib kelinmoqda.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda zamonaviy texnika, bilim, koʻnikmalarga ega boʻlgan holda zamon bilan birga dadil odimlash bizni keljakda Oʻzbekistonning kelajagini aniq oʻylangan rejalarga muvofiq yetakchi davlatlar qatoridan joy olishida agroiqtisodiyot oʻrni alohidaligi yaqqol misol holatida koʻrishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar;**

1. “Agroiqtisodiyot” jurnali 3/2017
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-iyuldagi PQ-4410-son qaror.

## POMIDORNING MEVA SHAKLLARIGA SUV VA TUPROQNING TA’SIRI QANDAY?

**G‘ofurova Shoira Qandahar qizi**

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

**Arzibayeva Sevara Boburjon qizi**

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolamizda Pomidor mevalari shakllanayotgan davrida tuproqning namligi xavoning nisbiy namligini bo‘lishini aniqlash bilan bir qatorda,

Ko‘chatidan yetishtiriladigan pomidorning ildiz tizimi tuproqning yuza qatlamiga joylashishi va suvni ko‘p parlantirishi, uni mutazam ravishda suv bilan ta’minlanishi o‘rganishdan iborat..

**Kalit so‘z:** pomidor, tomatdosh, urug‘, nav, suv, par, ildiz, havo, tuproq, kasallik, iqlim.

**Annotation.** During the period of formation of tomato fruits, soil humidity is 75-80%, relative air humidity is 45-60%. Excessive air humidity has a negative effect on the pollination process, the formation of knots and the increase of damage by fungal disease.

When grown from a seedling, the root system is located in the surface layer of the soil and requires a lot of water, it needs to be regularly supplied with water.

**Keywords:** tomato, tomato, seed, variety, water, feather, root, air, soil, disease, climate.

**Аннотация.** В период формирования плодов томата влажность почвы 75-80%, относительная влажность воздуха 45-60%. Чрезмерная влажность воздуха негативно влияет на процесс опыления, образование узлов и увеличение поражения грибковыми заболеваниями.

При выращивании из саженца корневая система находится в поверхностном слое почвы и требует много воды, ее необходимо регулярно снабжать водой.

**Ключевые слова.** помидор, томат, семя, сорт, вода, перо, корень, воздух, почва, болезнь, климат

**Kirish.** Respublikamiz qishloq xo‘jaligi vazirligining bergan tezkor ma’lumotiga ko‘ra 2021 yilda sabzavotdan 11 mln. 275 ming tonna yalpi hosil yetishtirilib, ular bir iste’molchiga 325 kg dan to‘g‘ri keladi. Bu, albatta marra emas, chunki respublikamiz axolisi tobora ko‘payib borishi bilan birga qayta ishlash korxonalari hamda mamlakatimiz eksport potentsiali jadal sur‘atda rivojlanishi sabzavot ishlab chiqarishni ko‘paytirishni taqozo etmoqda. Shuning uchun sabzavot yetishtirish-ishlab chiqarish hajmi yil sayin ko‘payib bormoqda.

Sabzavot ekinlaridan olingan yalpi hosil tarkibida pomidordan olingan mahsulotning ham uz urni bor.

Pomidordan jaxonda 4 mln. 72 ming ga maydonda yetishtirilib undan 159 mln. 23 ming tonna yalpi hosil olinadi. Hosildorligi 27,2 t/ga ni tashkil etadi deb xabar qiladilar X.X.Kimsanboyev va boshqalar (2007).

Mutasaddi tashkilotlarning tavsiyasiga ko‘ra o‘rta yoshdagi inson yil mobaynida pomidor mevasidan 25 kg iste’mol qilishi kerak.

**Tadqiqot materiallari va metodologiyasi.** Pomidorni yetishtirishda oziqlanish maydoni, ekish sxemasi va ekish muddati hamda mahsuldorlik belgilarini taqqoslab o‘rganish. Tadqiqot jarayonida dala tajribalari natijalarini taxlil qilishda mavjud metodik materiallar qo‘llanildi. Dala tajribalarida fenologik kuzatuvlar, biometrik o‘lchamlar olib borildi, mevalarining texnik va biologik yetilishi o‘rganildi.

Pomidorni serhosil navlarini tanlash hamda ekish sxemasini aniqlash ishning nazariy va amaliy ahamiyati hisoblanadi.

**Tadqiqot natijalari.** Tadqiqot jarayonida dala tajribalari natijalarini taxlil qilishda mavjud metodik materiallar qo‘llanildi. Dala tajribalarida fenologik

kuzatuvlar, biometrik o‘lchamlar olib borildi, tuproq iqlim sharoitiga qanday moslashib borilishi hamda sabzavot ekinlarining texnik va biologik yetilishi o‘rganildi.

Asosiy ekinda pomidorning hosildorligi yuqori formalarini ajratib olish, ekish sxemalarini qiyosiy baxolash orqali yetishtirish texnologiyasini ilmiy asoslash tajribaning natijalariga o‘z tasirini ko‘rsatadi

**Muhokama.** O‘simlikni suvga bo‘lgan talabini qondirishda ildiz tizimi faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi. O‘suv davrining birinchi yarmida pomidor ildizi jadal rivojlanib, tuproqning chuqur qatlamiga o‘sib kiradi. Bu xususiyati 4-5 gulshodasidagi g‘unchalari gullay boshlagunicha va o‘simlikni pastki gulshodada hosil bo‘lgan mevalari pishguncha davom etadi. Shu davrdan so‘ng ildizlari umumiy xajmini faol ishlashi susayar ekan. Ammo, pastki qismidagi pishgan mevalari yig‘ib olinganidan so‘ng, ildiz tizimini faoliyati yana kuchayar ekan.

Pomidor mevalari shakllanayotgan davrida tuproqning namligi 75- 80%, xavoning nisbiy namligini 45-60% bo‘lishini yoqtiradi. Havoning namligini me‘yordan ortib ketishi changlanishi jarayoniga salbiy ta‘sir etib, tugunchalari tugiladi va zamburug‘ kasalligi bilan zararlanishi kuchayadi.

Ko‘chatidan yetishtirilganda ildiz tizimi tuproqning yuza qatlamiga joylashishi va suvni ko‘p porlantirishi, uni mutazam ravishda suv bilan ta‘minlanishi talab etadi.

Pomidor tuproqdan oziq moddalarni ko‘p o‘zlashtirish jixatidan, sabzavot ekinlari qatorida birinchi o‘rinlardan birini egallaydi. U gektardan 100 ts hosil bersa, u o‘zi bilan 33 kg azot, 10-11 kg fosfor va 50 kg kaliyni olib ketadi.

**Xulosa.** Pomidor o‘suv davri uzoq muddat davom etadi. Uni uzun yoki qisqa bo‘lishi pomidor o‘stirilayotgan viloyat yoki tumanda sovuqsiz davrga bog‘liqdir. Shular sababli pomidor yetishtirilganida uni o‘stiriladigan mintaqaga sharoitidan kelib chiqqan holda ertaki yoki kechpishar navlarni tanlab ekish, tabiiy sharoitdan oqilona foydalanishni ta‘minlaydi.



## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston respublikasi prezidentining respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug‘chiligini yanada rivojlantirish to‘g‘risidagi 2020-yil 6-maydagi PQ-4704- son qarori.

2. Ostonaqulov TE, Zuyev VI, Qodirxo‘jayev OK. Sabzavotchilik; Darslik.Navro‘z.- Toshkent; 2018 (2020)- 552 bet

3. Ostonaqulov. O‘zbekistonda tugunak mevali ekinlar. Monografiya; Navro‘z-Toshkent: 2020- 324 bet

## AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA AFFIKSOIDLARNI AJRATISH MASALASI

**Shoniyozova Gulshoda**

Qarshi davlat universiteti 2-kurs magistranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada an’anaviy va zamonaviy tilshunoslikda affiksoidlarni ajratish masalasi haqida fikr-mulohazalar bildirildi va misollar bilan tahlil qilindi.

**Kalit so‘zlar:** affiksoid, fors-tojik, yevropa, izohli lug‘at, avto, anti, makro, gidro

Affiksoidlar ham boshqa birliklar kabi o‘zbek tiliga o‘zlashgan. Fors-tojik tilidan o‘zlashgan affiksoidlar tilimizda yetarlicha topiladi. Bundan tashqari sof turkiy affiksoidlar ham o‘zbek tili o‘zqatlamida mavjud. Texnika taraqqiyoti davrida bugungi kunda tilimizga Yevropa tillaridan juda ko‘p birliklar o‘zlashmoqda. Shu jumladan, affiksoidlar ham.

Bu kabi affiksoidlar miqdor jihatidan ikkinchi o‘rinda turadi. Bu affiksoidlar shu jihatdan ahamiyatliki, fors-tojik tilidan o‘zlashgan affiksoidlar tobora iste’moldan chiqib ketayotgan bo‘lsa, bu affiksoidlar tilimizga shiddat bilan o‘zlashmoqda va yil sayin soni ortib bormoqda. O‘zbek tili izohli lug‘atida bu kabi affiksoidlar baynalmilal so‘zlar tarkibida o‘zlashgan birliklar sifatida beriladi. Bu kabi affiksoidlar bizning tilimizga, asosan, rus va ingliz tillari orqali o‘zlashsa-da, ularning ko‘pchiligi grek tili leksikasidagi so‘zlardir. Hozirgi globallashuv va fan-texnika zamonida yuqoridagilar kabi affiksoidlar ko‘pchilik tillarga shiddat bilan kirib bormoqda va bu jarayonni to‘xtatishning iloji yoq. Yaqin yillarda bu affiksoidlar son jihatidan o‘zbek tilida yetakchi o‘ringa chiqishi kutilyapti.

Yuqorida to‘xtalib o‘tganimizdek, hozirgi fan-texnika davrida dunyoning barcha tillariga fan-texnika bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlar o‘zlashmoqda. Bu, asosan, o‘sha

texnika yoki qurilma yaratilgan davlatning tili bilan bevosita bog‘liq. Ya’ni o‘sha yaratilgan texnikaga nomning qaysi tildan olib qo‘yilganligi bilan bog‘liq. Yaratilgan texnikaga mahalliy tildagi so‘zlardan nom qo‘yilsa, o‘sha texnika boshqa davlatlarda ham ommalashishi bilan o‘sha tildagi so‘z yoki so‘zlar guruhi ham boshqa tilga transfer bo‘ladi. Mustaqillikdan keyin kurash milliy sport turi jahon darajasida ommalashdi. Shuning barobarida mazkur milliy sport turimizga daxldor bo‘lgan qator atamalar ham jahon arenalarida yangradi. Masalan, dakki, yonbosh, halol, chala kabi. Umuman, olganda bu hozirgi zamon qoniyatlaridan biridir. Tilimizga yunon va lotin tillaridan o‘zlashgan affiksoidlar bunga misol bo‘ladi. Yunon va lotin tillaridan o‘zlashgan affiksoidlarning aksariyati tarixiy so‘zlar bo‘lishiga qaramay, bugungi kunda jahonning ko‘pchilik tillarida ishlatiladi va so‘z yasalişhida ham faol qismlardir. O‘zbek tili izohli lug‘atida mazkur affiksoidlar baynalmilal so‘zlarning tarkibiy qismi sifatida berilgan. Quyida mazkur turkum affiksoidlarning “O‘zbek tili izohli lug‘ati”ga asoslangan holda tuzilgan leksiksemantik, etimologik tavsifini keltirib o‘tamiz:

**avto-** (yun. autos o‘zim) o‘zlashma so‘zlar tarkibida kelib, o‘z qo‘li bilan, o‘zi harakatlanadigan, avtomatik, avtomobilga oid kabi ma’nolarni beradi: avtohamroh, avtopark.

**agro-** (yun. agros dala, qishloq) o‘zlashma so‘zlar tarkibining old qismida kelib, qishloq xo‘jaligi va dehqonchilikka oid bo‘lgan ma’nolarni bildiradi: agrosanoat, agrotexnika.

**anti-** (yun. qarshi, zid) baynalmillal o‘zlashma so‘zlarning old qismida kelib shu so‘z ifodalagan narsa, belgi, xususiyatning qarshisini, ziddini bildiruvchi qo‘shimcha: antiqahramon, antiterror.

**avia-** (lot. avia qo‘sh) o‘zlashma so‘zlar tarkibida kelib, aviatsiya so‘zi o‘rnidan va shu so‘zga aloqador ma’nolarda qo‘llaniladi: aviachipta, aviaparvoz.

**bio-** (yun. bios hayot) baynalmillal yasama so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, shu so‘zning hayotga, hayotiy jarayonlarga va biologiyaga aloqadorligini ko‘rsatadi: biohayot, biojarayon.

**geo-** (yun. ge yer) o‘zlashma baynalmilal so‘zlar tarkibida kelib, so‘zning yerga, yer sayyorasiga aloqadorlik ma’nosini ifodalaydi: geokimyoy, geoxarita.

**gidro-** (yun. hydor suv, suyuqlik namlik) baynalmillal so‘zlar tarkibida kelib, suvga va suv havzalariga aloqadorlik ma’nolarini bildiradi: gidroqurilish, gidrosanoat.

**makro-** (yun. macros, uzun, katta) o‘zlashma baynalmillal so‘zlarning birinchi qismida kelib, uzun katta va katta o‘lchamga ega buyumlarning o‘lchovini bildiradi: makrobiznes, makroiqtisodiyot.

**mikro-** (yun. micros kichik, kichkina) baynalmilal so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib juda kichik, kichkina va eng kichik o‘lchamli birliklarni ifodalash bilan

bog‘liq ma’nolarda keladi: mikroiqtisodiyot, mikrojarayon.

**mono-** (yun. monos bir, yakka, yagona) o‘zlashma baynalmillal so‘zlarning birinchi qismi, bir, yagona, yolg‘iz ma’nolarini bildiradi: monografiya, monosemiya.

**multi-** (lot. multum ancha, ko‘p) baynalmillal qo‘shma o‘zlashma so‘zlar tarkibiy qismi bo‘lib, biron narsaning ko‘pligini ko‘p karraliligini bildiradi: multimillioner.

**narko-** (yun. narkotikos dong qotiruvchi, gangituvchi) o‘zlashma so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib narkotiklar va narkozga oid kabi ma’nolarni ifodalaydi: narkobozor, narkobiznes. **neo-** (yun. neos yangi) o‘zlashma baynalmillal so‘zlarning tarkibiy qismi bo‘lib, yangi, yangicha ma’nolarini bildiradi: neologizm **poli-** (yun. poly ko‘p, ancha, ko‘pgina) baynalmillal o‘zlashma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, biron narsaning ko‘pligini xilma-xilligini, murakkabligini ko‘rsatadi: polisintetik, polisemiya.

Bundan tashqari tilimizda mini-, mega-, media- kabi yana affiksoidlar mavjud bo‘lib, ular “O‘zbek tili izohli lug‘atida alohida ko‘rsatilmaganligi tufayli, ularni mazkur etimologik tavsifga kiritmadik. Garchi bu affiksoidlar “O‘zbek tili izohli lug‘ati” ga kiritilmagan bo‘lsa-da, o‘zbek tili leksik qatlamining boyishida ishtirok etmoqda. So‘z yasashida faol qo‘llanilmoqda: miniavtobus, mediahaftalik,

megamaydon kabi. Shuningdek mazkur affiksoiodlar o‘zbek tili doirasida, xalq tilida, adabiy tilda ham faol ishlatilmoqda.

Ulardan biri –xo‘r(tojikcha xo‘rdan “yemoq” fe‘lidan) qo‘shimchasi bo‘lib,u o‘zi qo‘shilgan so‘z anglatgan yegulik, ichimlik turlarini doim iste‘mol qiluvchi yoki dam-badam iste‘mol qilishni yaxshi ko‘ruvchi shaxs oti yasaydi:

norin + xo‘r, araq + xo‘r, may + xo‘r, choy + xo‘r, qatiq + xo‘r kabi.

Nafaqaxo‘r,poraxo‘r, g‘amxo‘r, qonxo‘r, tekinxo‘r, ziyofatxo‘r, so‘zlari ham -xo‘r affiksining xuddi shu ma‘nosi asosida yasalgan: Aziz mehmonlar! Kaklikxo‘rlar-kaklikdan, bedanaxo‘rlar bedanadan, qirg‘ovulxo‘rlar- qirg‘ovuldan tanovul qilinglar.( Sh. Sa‘dulla .)

Keyingisi esa -parast ( tojikcha parastidan itoat qilmoq, ta‘zim qilmoq fe‘lidan) affiksidir. U oraqli bir asosdan anglashilgan hodisaga e‘tiqod qiluvchi, shunga berilgan shaxs oti yasaydi: but + parast, shaxsiyat + parast, maishat + parast kabi.

Navbatdagi izohtalab bo‘lgan affiks esa ham qo‘shimcha ham so‘z sifatida qo‘llanilmoqda. U - furush ( tojikcha furo‘xtan- sotmoq fe‘lidan) affiksi bo‘lib, asos anglatgan narsa predmetni sotish bilan shug‘ullanuvchi shaxs oti yasaydi: chit + furush, meva + furush, paxta + furush, choy+ furush kabi. Lekin ba‘zi o‘rinlarda biz - furush affiksini yakka o‘zini so‘z sifatida qo‘llaymiz. Asosan og‘zaki nutqimizda ko‘p uchrashi mumkin bo‘lgan misol hisoblanadi.Kuni kecha dehqon bozorida bir gala furushlar yo‘limni to‘sib, olma solingan idishni ham qo‘limdan yulib olishdi.Bu misolda furushlar “sotuvchilar” ma‘nosini beradi va shaxsni anglatadi.

Va izoh talablarning hozircha oxirgisi hisoblangan “ham-” affiksoid( ya‘ni tilda ham qo‘shimcha ham so‘z ma‘nosida qo‘llaniladi) asosdan anglashilgan ish, narsaga birga aloqador ma‘nosidagi shaxs oti yasaydi: hamshahar, hamsuhbat,hamkurs, hamkasb.

Xona-, noma-, goh- kabi forscha leksemalar, o‘zbek tilida mustaqil ishlatilishdan tashqari, ishxona-, oshxona-, taklifnoma-, ma‘lumotnoma-, sayohatnoma-, sayrgoh-, oromgoh- kabi leksemalarning tarkibida yasovchi qism sifatida qatnashadi; bir qancha leksemalarga qo‘shiluvchi qism bo‘lib kelgani sababli mustaqil leksemalik holatidan

affiksoidlik holatiga o'tgan. Bular qatnashuvi bilan hosil qilingan leksemalar fors-tojik tilida tuzma leksema deb qaraladi, lekin o'zbek tilida yasama leksemalarga tenglashtiriladi.

Xullas, yasama leksemalarda yasalish asosi bo'lib leksema xizmat qiladi, leksema yasovchi vazifasini affiks (asosan suffiks, qisman prefiks), ba'zan affiksoid bajaradi, hosila esa leksemaga teng bo'ladi: ish + chi ishchi-, be+ ish- beish-, ish+-xona ishxonona kabi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Сенько Е. В. [Префиксоиды как сложившаяся система современного русского словообразования](#) // Современные проблемы науки и образования, № 6, 2014. Владикавказ.
2. Аффиксоиды, полуаффиксы и аффиксы в научном стиле и литературной норме: Сб.статей. // Под ред. Ознобихина Н.А. - Владивосток: ДВНЦ АН СССР, 1980.-175 с.
3. Григорян Э.А. Суффиксоиды в системе современного русского языка: автореф. дис. ... канд. филол. наук: 10.02.01 / Э.А.Григорян - М., 1981. -24 с.
4. Лопатин В.В. Аффиксоид / В.В. Лопатин // Русский язык: Энциклопедия. 5. М.: Советская энциклопедия, 1979. - С. 26-27.
6. Лопатин В.В. Аффиксоид / В.В. Лопатин / Русский язык: Энциклопедия / Гл. ред. Ю.Н. Караулов. Большая Российская энциклопедия. - М.: Дрофа, 2008,-С. 721.

## **SHIRINMIYA O‘SIMLIGI POPULYATSIYASINING MORFO-EKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA XALQ XO‘JALIGIDAGI AHAMIYATI**

**Yuldasheva Nasiba Abdunazarovna**

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti,

Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrasida o‘qituvchisi

### **KIRISH**

Gammerman A.F (1957) shirinmiya o‘simligini shifobaxshlik xususiyatlariga asosan “Jen-shen” o‘simligiga tenglashtiriladi. Shirinmiya o‘simligi dorivor o‘simlik hisoblanishi bilan bir vaqtda ozuqabop, yem-xashak, bo‘yoqbo‘y , oshlovchi va tolali o‘simliklar sifatida qo‘llaniladi. Shuning uchun ham bu o‘simlikning turli ekologik hududlarda tarqalgan ekoforma va populyatsiyalarini ekologik-biologik xususiyatlarini o‘rganish va ularning xo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan belgilarni aniqlash, formasevtika sanoatida dorivor o‘simlik resurslariga bo‘lgan talabini qondirishda o‘ziga xos ahamiyatga egadir.

### **TADQIQOT METODLARI VA OLINGAN NATIJALAR**

Shirinmiya o‘simligini tabiiy sharoitda o‘rganishda qabul qilingan geobotanik va resursshunoslik metodlaridan foydalanildi. Har bir populyatsiyada o‘ntadan o‘simlik tanlab olinib, alohida morfologik belgilari aniqlaniladi, bu belgilarning madaniy holda ekilishi o‘rganilib, taqqoslash maqsadida urug‘ va qalamchalar olinadi, hamda maxsus geobotanik blankalarda shu o‘simlik jamoasi izohlanadi, dominant va subdominant o‘simliklar gerbariy qilinadi [1]

Har bir populyatsiyadagi shirinmiya o‘simligining zichligi zahiralari aniqlaniladi. O‘rganilayotgan o‘simlik gabatusi, poyasi, bargi, poyaning tuklanishi va antatsion bo‘yoqlari, to‘pgullar shakli, uzunligi undagi gullar soni va sifati kabi

belgilari o‘rganilib, taqqoslanadi, so‘ngida bu belgilarning o‘zgaruvchanligi yoki o‘zgarmaslik xususiyatlari o‘rganilib, tegishli xulosalar beriladi.[2]

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘rganilayotgan o‘simliklarning morfo-biologik belgilari o‘simlik o‘sayotgan hududning tuproq tuproq tarkibiga, yer osti suvining yuza yoki chuqur joylashganligiga bog‘liq ekan.[3]

Bo‘stonliq tumanida turli ekologik sharoitlarda tarqalgan shirinmiya o‘simligi populyatsiyalarini o‘rganishdan maqsad ularning morfologik, ekologik va xo‘jalik ahamiyatiga egasi bo‘lgan belgilarini, o‘zgaruvchanlik xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.[2]

Shirinmiya o‘simligi dukkakkdoshlar (burchokdoshlar) - Fabaceae oilasining Glycyrrhiza turkumiga mansub turkum 1753 yili K.Linney tomonida aniqlangan bo‘lib, uni 3 ta turga ega ekanligi ko‘rsatiladi. G.Glabra L, G. echinata L, G.hirsuta L. Glycyrrhiza turkumining barcha turlari Buass‘ya (Boisser, 1872) tomonidan 2 ta seksiyaga: Eugycyrrhiza Bois va Meristotropis Bois. Keyinchalik esa Engler (Engler, 1894) uchunchi seksiya sifatida Glycyrhizopsis Boiss.et Bal turkumini qo‘shgan.[1]

Glycyrrhiza turkumi sistematikasi bo‘yicha uzoq yillar ilmiy izlanishlar olib borgan E.A.Krughanova (1955) Buass‘e tomonidan ajratilgan Meristotropis va Glycyrhizopsis turkumini mustaqil turkum sifatida ajratadi. Eugycyrrhiza seksiyasini ikkita: Eugycyrrhiza va Pseudoglycyrrhiza Krug. Seksiyalariga bo‘ladi.[2]

E.A. Krughanova Glycyrrhiza turkumining 13 turidan 5 tasini (glitserizin kislota saqllovchi) Eugycyrrhiza seksiyasiga va qolgan 8 turni esa (glitserizin kislotasiga ega bo‘lmagan) Pseudoglycyrrhiza seksiyasiga kiritgan.[3]

Biz o‘rganayotgan shirinmiya (g.Glabra) turi Eugycyrrhiza seksiyasga mansub. Shirinmiya o‘simligi to‘qay o‘simligi bo‘lib, tog‘ mintaqasining 2000-2200 m balandligigacha bo‘lgan hududlarda ham uchraydi. Chirchiq daryosi suv havzasida olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, shirinmiya o‘simlik turi nihoyatda polimorf tur bo‘lib, bir-biridan keskin farq qiladigan populyatsiyalarga ega.[1]



Bu populyatsiyalar o‘simliklarning balandligi, shoxlanish tartibi, barglarining bo‘yi bilan enining nisbati, to‘pgullarining kalta-uzunligi, gullarining zichligi va katta-kichikligi, rangi kabi belgilari bilan farqlanishi aniqlandi.[3]

Dukkagining tuklanishi esa asosan tuproq namligiga bog‘liq bo‘lib, yer osti suvlari chuqurda joylashgan quruq janubiy qiyaliklarda kuchli tuklangan formalari aniqlandi.[1]

Bu belgilari nasldan-naslga berilishi yoki saqlanmaslik holatlarini aniqlash maqsadida har bir populyatsiyadan qalamchalar (ildizpoyasidan) olinib, O‘zRFA BIChM qoshidagi (Botanika bog‘i) tajriba maydoniga o‘tkazildi.[2]

Quyidagi jadvalda Ugam suv havzasida tarqalgan populyatsiyalarning o‘shish va rivojlanishiga oid ba’zi bir ma’lumotlar berilgan.

### POPULYATSIYALARNING O‘SISHI VA RIVOJLANISHI

| Populyatsiya nomi | Vegetatsiya oxiridagi poya bo‘yi (sm) | Mevaga ega bo‘lgan o‘simlik (%) | To‘pgul uzunligi(sm) |         |
|-------------------|---------------------------------------|---------------------------------|----------------------|---------|
|                   |                                       |                                 | Bandi                | To‘pgul |
| Chirchiq          | 78                                    | 22                              | 3,5                  | 7       |
| Konsoy            | 60                                    | 17                              | 3                    | 5       |
| Keragilsoy        | 46                                    | 2                               | 2,3                  | 3       |

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ushbu hududda bir turga (G.glabra) mansub bo‘lgan populyatsiyalar bilan bir vaqtda G.glabra bilan G.uralensis kabi ikki tur o‘rtasidagi gibrid formalar ham mavjudligi aniqlanildi. Ural miya O‘z R florasida berilmagan, lekin arealining eng chetki (g‘arbiy) chegarasi O‘zR janubiy-sharqiy qismdan o‘tadi [1].

Izlanishlar natijasida topilgan bu gibrid yoki G.uralensis turi dengiz sathidan 1000-1200 m balandlikda, faqatgina ma’lum bir joyda ( maydoni-0.6-1 ga yaqin) o‘shishi aniqlandi. Janubiy-sharqiy qiyaligida joylashgan bu bir tur miya - taktak

assotsiyatsiyasida dominantlik qiladi. Qiziqarli joyi shundaki, bu o‘simlik ko‘p belgilari jihatdan Qozog‘iston, Qirg‘iziston hududida keng tarqalgan ural miyasiga mos keladi. To‘pguli, gulining kattaligi, gulbandda zich joylashganligi va boshqalar, yaxshi gullaydi, ammo meva tugish darajasi o‘ta past. Bu hol ko‘p yillik kuzatishlar natijasida aniqlandi. Ehtimol bu hol tur arealining eng chekka qismida o‘ssishi bilan bog‘liq bo‘lishi ham mumkin. Asosan vegetativ yo‘l bilan ko‘payishi kuzatiladi, bu esa barcha miya turkum vakillariga xos belgi.[3]

Keyingi yillarda bizlar kuzatish olib borayotgan qirliklar mahalliy xalqlar tomonidan o‘z boshimchalik bilan o‘rab olinib, pichan tayyorlash maydonlariga aylantirilmoqda. Bu esa hududdagi ba‘zibir noyob o‘simliklarni kamayib ketishiga olib kelishi mumkin.[2]

## XULOSA

Xalq xo‘jaligining turli sohalarida keng qo‘llaniladigan, eksport mahsuloti hisoblangan xom-ashyo o‘simliklarini o‘rganish va ulardan oqilona foydalanish bugungi kunimizning dolzarb masalalaridan biridir. Shunday xom-ashyo o‘simliklardan biri hisoblangan shirinmiya o‘simligiga (*Glycyrriza globra f*) bo‘lgan talab meditsina, oziq-ovqat, tog‘-metallurgiya, kimyo, farmasevtika kabi sanoatlarda va tashqi bozorda talab yildan-yilga ortib bormoqda [2].

Keyingi yillarda inson faoliyati natijasida, o‘simliklarni reja asosida ishlatmaslik hisobiga ba‘zibir xom-ashyo o‘simliklari O‘zR “Qizil kitob”iga kiritilishiga yoki butunlay yo‘qolib qolishiga sabab bo‘lmoqda [1].

Biz o‘rganayotgan shirinmiya o‘simligi tog‘li hududlarda farmasevtika sanoati uchun tayyorlanmaydi, chunki bu yerlarda ildiz yer ostiga chuqur ketgan, hamda bu hududlarda ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan maydonlar mavjud emas, lekin mahalliy aholi tartibsiz ravishda giyohlar tayyorlab sotmoqda.[1]

Tabiatni muhofaza qiluvchi tashkilotlar, o‘rmon xo‘jaligi xodimlari yashil boyliklarimizni himoya qilishga, ulardan oqilona foydalanisga alohida e‘tibor berishlari lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Prator U.P. O krasnoy kniga Respublika Uzbekistan. V sb. “Aktualniye problemi biologii, ekologii i pochvovedeniya” Respublika ilmiy-amaliy Anjumani. Toshkent, 2006.
2. Tashmuhamedov R.I. Resursi nekotorig poleznix rasteniy yuga Uzbekistana. Xalqaro ilmiy-amaliy konf. materiallari. Andijon, 2007.
3. Yuldashev A. S. K primeneniyu senopopulyatsionnogo podxodo pri izuchenii lekarstvennix rasteniy. Xalqaro ilmiy-amaliy konf. materiallari. Andijon 2007.

## KEMIRUVCHILAR (RODONTIA) TURKUMINI O‘RGANISH BO‘YICHA OLIB BORILGAN TADQIQOTLARNING QISQACHA SHARHI

**Tursunov Olim Toshtemir o‘g‘li**

Chirchiq davlat pedagogika universitetining Biologiya kafedrasida o‘qituvchisi

[tursunovolim04@gmail.com](mailto:tursunovolim04@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Kemiruvchilar (*Rodentia*) turkumi vakillari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va ularning qisqacha sharhlari to‘g‘risidagi materiallar yoritilgan.

**Аннотация:** В статье представлены материалы исследований, проведенных на представителях семейства Rodentia, и их краткие комментарии.

**Annotation:** The article presents the materials of studies conducted on representatives of the Rodentia family, and their brief comments.

**Kalit so‘zlar:** Kemiruvchilar, tur, turkum, kalamush, sichqon, yumronqoziq, parazit, fauna.

**Ключевые слова:** Грызуны, вид, род, крыса, мышь, суслик, паразит, фауна.

**Key words :** Rodents, view, genus, rat, mouse, gopher, parasite, fauna.

Hayvonot dunyosi tabiatning ajralmas qismi sifatida tabiatda va insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega. Kemiruvchilar -Rodentia turkumi sut emizuvchilar-Mammalia sinfiga mansub bo‘lib, turkumning ayrim turlari Yer yuzida keng tarqalgan va hozirgi vaqtda o‘z arealini kengaytirib borayotgan turlar sanaladi. Bu turkum vakillarining morfologiyasiga xos xususiyatlarlarga ularning tanasini g‘o‘lasimonligi, uzunligi 5-130 sm. Ko‘pchilik kemiruvchilarning oyog‘ida yer kavlashga moslashgan tirnoqlari bor. Boshi uzunchoq, tepasi yassi. Ko‘zi turtib chiqqan, ba’zilarida esa rivojlanmagan (ko‘rsichqonlarda). Labida qilsimon mo‘ylovi bo‘lib, qoziq tishlari ko‘rinib turadi. Nutriya, ondatra va boshqa ayrim turlari sanoat miqyosida mo‘ynasi

uchun ovlanadi. Kemiruvchilarning orasida ayrim turlari qishloq xo‘jaligi zararkunandalari sanaladi. Markaziy Osiyoda uchraydigan eng yirik kemiruvchilardar jayra (*Hystrixhirsu tirostus* Vg.) va sariq yumronqoziq (*Citellus falvus oxianus* Thorns.) beda ekiniga, g‘allaga, tokzorlarga, mevali bog‘larga zarar keltiradi va o‘lat kasalligini tarqatadi. Relikt yumronqoziq (*Citellus relectus* Kaschk.) qir-adirlardagi bug‘doy, arpa ekinlarini shikastlaydi.

Dunyo miqyosida, jumladan O‘zbekistonda kemiruvchilar faunasi, ekologiyasi va epidemiologik ahamiyatini o‘rganishga doir bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan Xamroqulova Z.X. (2020) o‘zining “O‘zbekistonning shimoli-sharqiy mintaqasi kemiruvchilar (Rodentia) turkumining gelmintofaunasi, ekologiyasi va ahamiyati” mavzusidagi dissertatsiyasida Toshkent, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida 12 turga mansub 1057 ta kemiruvchilar gelmintofaunasi o‘rganilgan [1; 47]. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Tabiat fanlar kompleks instituti tadqiqotchisi R.Reymovning ilmiy natijalari “Опыт экологического и морфофизиологического анализа фауны млекопитающих южного Приаралья” monografiyasida aks ettirilgan. Monografiyada O‘rta Osiyoning Shimoli-G‘arbiy Qizilqum cho‘llarida kemiruvchilarning turli taksonomik va ekologik guruhlarining o‘ziga xosligi, biologiyasiga doir (tarqalishi, ko‘payishi va boshqalar) ma’lumotlar keltirilgan [2]. G.A.Asenov o‘zining ilmiy izlanishlarida qumsichqonlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida o‘rgangan. Qumsichqonlarning ektoparazitlari, shuningdek, tabiiy o‘choqlarning ekologik jihatlari va o‘lat epizootologiyasi asosida tavsiyalar ishlab chiqilgan [3]. Andreychev A.V. (2011) tadqiqotlarida Mordoviyada uchrovchi kemiruvchilarning ekologik va faunisticheskiy tahlili keltirilgan. Unga ko‘ra mazkur hududda kemiruvchilarning 27 turini uchrashi qayd etilgan. turlarning zichligi region doirasida odatdagi, kam sonili va noyob turlarga ajratilgan [4]. Zolina N.F. (2012) o‘zining “Melkopitayushiye urbanizirovannix territoriy Srednego Povoljya na primere goroda Penzi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida Penza shahrida uchrovchi sut emizuvchilar faunasini o‘rgangan. Tadqiqotlar natijasida mazkur shaharda 6 turkum, 16 oilaga mansub 52 turdagi sut

emizuvchilarning uchrashi qayd etilgan. Sinatroplikka moyilligi bo‘yicha ushbu turlar 3 ta guruhga ajratilgan: haqiqiy sinantrop (evisinantrop), gemisinantrop va ekzoantrop [5].

Keltirilgan ma’lumotlarga asoslangan holda, kemiruvchilarni o‘rganishga bag‘ishlangan oxirgi tadqiqotlarning aksariyati ularning ektoparazitlarini tadqiq etishga tegishli bo‘lib, ular asosan tabiiy landshaftlarda (Qizilqum, Ustyurt va boshq.) olib borilgan. Oxirgi yillarda kemiruvchilar arealining o‘zgarish oqibatida ularning ayrim turlarini inson bilan yonma-yon yashashga o‘tishi, uning xo‘jalik yuritish maskanlariga kirib kelishi kuzatilmoqda. Shu asosda aytish mumkinki, endilikda kemiruvchilarni madaniy landshaftlar kesimida o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xamroqulova Z.X. O‘zbekistonning shimoli-sharqiy mintaqasi kemiruvchilar (Rodentia) turkumining gelmintofaunasi, ekologiyasi va ahamiyati. B.f.f.d. dissertatsiyasi avtoreferati. Nukus, 2020.-47 b.  
Реимов Р. Р. К экологии большой песчанки в условиях трансформации ландшафта Южного Приаралья. //Ж. Вестник ККО. АН РУз. –Нукус, 1996. №4. – С. 14-20.
2. Асенов Г.А. Значение большой песчанки (*Rhombomys opimus*) в природной очаговости чумы на территории Республики Каракалпакстан // Автореф. дисс. ... докт. биол. наук. - Ташкент - 1999. – С. 52.
3. Андрейчев А.В. Эколого-фаунистический анализ населения грызунов и насекомоядных млекопитающих Республики Мордовия. Автореф. дисс. на соис.канд. биол. наук. Саранск, 2011. 23 с.
4. Золина Н.Ф. Мелкопитающие урбанизированных территорий Среднего Поволжья на примере города Пензы. Автореф. дисс. на соис.канд. биол. наук. Саранск, 2012. 20 с.

## FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TIPOLOGIYASI

**Vaziraxon Maxmudjon qizi Utanova**

Andijon davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

[utanovavazira@gmail.com](mailto:utanovavazira@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada frazeologik birliklarning tipologiyasi, ya’ni obyektlar tizimini qismlarga ajratish va ularni umumlashma model yoki tip yordamida guruhlashtirishdan iborat ilmiy metodlardan foydalangan holda tahlil qilish, frazeologik birikmalarni turlari, ular haqida mashhur tilshunos olimlar bildirgan fikrlar haqida so‘z boradi.

***Kalit so‘zlar:** Frazeologik, pozitsiya, ekvivalent, leksik, leksikologiya, tushuncha, semantik, ekspressiv, tenglik nazariyasi, turg‘un, takrorlanuvchi.*

### TYOLOGY OF PHRASEOLOGICAL UNITS

#### ANNOTATION

This article talks about the typology of phraseological units, that is, the analysis using scientific methods of dividing the system of objects into parts and grouping them using a generalized model or type, the types of phraseological compounds, the opinions expressed by famous linguists about them.

***Keywords:** Phraseological, positional, equivalent, lexical, lexicology, concept, semantic, expressive, equivalence theory, stable, repetitive.*

Phraseology is a branch of linguistics that studies the current state and historical development of the phraseology system. Phraseological units are the subject of the study of phraseology. As a branch of linguistics, phraseology is engaged in the study of categorical signs of phraseological units, on the basis of which the main signs of phraseology are distinguished and the question of the essence of phraseological units

as special units of speech is solved. It is also important to determine the laws of expressive units in speech and the processes of their formation. Despite the fact that there are many studies on the main issues of phraseology, there is still no unified approach to determining the phraseological unit of speech.

There are many definitions of the term "phraseological unit". According to Mokienko, a phraseological unit is a relatively stable, repetitive, expressive combination of lexemes with a unified meaning.

The equality of phraseological units with words is that "the phraseological unit has two properties characteristic of a typical word: semantic integrity and its presence in speech as a finished unit repeated in speech." In addition, the scientist notes that phraseological units can be included in the domain of vocabulary, "but it is more correct to distinguish the system of phraseological units as a separate field in the lexical system of language" . Thus, the separate formation of phraseological units is an important difference from the whole word, which is characterized by their integral formation. The main feature that distinguishes phraseological units from words and phrases that occur in the course of speech is idiomatics. At the same time, it must be borne in mind that "phraseological units should be distinguished from a special type of idioms, which can be called appropriate idioms".

Phraseological turns are such language units that have certain differential properties with a certain proximity to words and free word combinations:

- 1) these are ready-made speech units that do not arise in the process of communication, but generally come from the memory of the speakers;
- 2) these are linguistic units characterized by constancy of meaning, content and structure;
- 3) from an accentological point of view, as well as sound complexes, the components of which have two or more main stresses;
- 4) These are formations divided into parts, the components of which are perceived by speakers as words.



Phraseological units are therefore only units that share the properties listed. Thus "any meaningful unit consisting of two or more accented components of a verbal sign, repeated in complete form, is a phraseology unit."

Therefore, based on the analysis of the views of various scholars, we believe that the equivalence of phraseology units to words can be recognized from the point of view of their relationship to speech and speech; Phraseologism and word are language units used as nominative units in speech.

The main features of phraseology. In order to distinguish phraseology units from other language units, especially words and free phrases, it is necessary to determine the specific properties of phraseology units.

1. Repetition of phraseology units in speech as complete units. Fixed combinations exist in language as a collection of previously formed language combinations that we need to remember, just as we remember words.

2. The integrity of the meaning of phraseology units That they have a generalized-holistic meaning despite the division of the structure is usually a revision of the phrase due to a specific semantic content. Stable compounds, one of which is obsolete and not used in modern language outside of that phrase, serve as good examples that the meaning of a phraseology does not consist of the values of its components. However, the speaker is not unfamiliar with this word because he knows the common, inseparable meaning of all linguistic units. Generalized - integral meaning are also expressions in which the relationship between the general meaning of a stable combination and the values of its components can be observed.

3. Consistency and stability of component structure distinguish phraseological units from free phrases. A distinctive feature of stable connections is that they are usually permanent and structural, i.e. they contain certain words arranged in a fixed order. The exchange of the components of phraseology units occurs only in linguistic variants, i.e. in stable compounds that have the same meaning, have the same figurative structure, but differ in lexical and grammatical content.

4. The equivalence of phraseology and a word means that a stable connection has much in common with a word. This linguistic unit is repeated like a word in its finished form and is not created anew each time, has its own meaning and grammatical context, which means that the linguistic unit, like a word, belongs to a certain part of speech. Nominal phraseological expressions can be distinguished (a sparrow shot is an experienced person), adjectives (there are not enough stars in the sky - about an ordinary, unrecognizable person) verbs (fall into a dead state - stay in a difficult situation) ; adverbial (tireless, diligent, tireless), mixed (do you know ours! - praise about yourself). Many phraseological units correspond to one word (carry both shoulder blades - win). Stative phrases are similar to words in a syntactical task in that they play the role of a single member of sentences.

The main feature of phraseologisms is their wholly or partially rethought meaning. Some lexemes have only part of the phraseological units defined, but most can only be defined by a phrase or a detailed description. The semantic peculiarity of the phraseology unit lies in the uniqueness of the combination of components such that they function not only as the main semantic components of the phraseology unit, but also as connecting links between them. These constituents are the minimal units of the semantics of phraseological units and fulfill meaning-determining or meaning-giving functions.

### **References:**

1. Kunin A.V. About phraseological nomination // Phraseological semantics: Sat. scientific Tr. - M., 1983rd edition. 211. pp. 88-100.
2. Amosova N.N. Basics of English phraseology. - L.: Leningrad publishing house. Flour, 1963. 208 p.
3. Rahmatullayev Sh. An explanatory phraseology dictionary of the Uzbek language. - Publishing house "Teacher". Tashkent-1978.
4. Shansky N.M. Phraseology of the modern Russian language: textbook. Ed. 6. - M.: Bookhouse "LIBROKOM", 2012. 272

## KOREYS TILIDAGI EMOTSIONAL BO‘YOQDORLIKKA EGA GAPLARNING TUZILISHI

**Yorbekova Mohidil Ulug‘bek qizi**

O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish:koreys tili 1-bosqich talabasi

E-mail: [mohidilyorbekova8@gmail.com](mailto:mohidilyorbekova8@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqola koreys tilidagi emotsional bo‘yoqdorlikka ega gaplarning tuzilishiga bag‘ishlanadi. Unda koreys tilida emotsional bo‘yoqdorlikka ega gaplarning qanday yasalishi, nimalar asosida yasalishi va qanday ma’no anglatishi chuqur tahlil qilinadi. Koreys tilida emotsional bo‘yoqdorlikni ifoda etuvchi undov so‘zlar va undov qo‘shimchalar turlari, ularning gapda joylashish o‘rni, qaysi so‘zlar bilan birga qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Koreys tilidagi emotsional bo‘yoqdorlikni ifodalovchi so‘z va qo‘shimchalarni gapdagi sintaktik o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, koreys tilida undov gaplarning yasalishining o‘ziga xos xususiyatlari va boshqa tillardan farqi yoritiladi. Shu qatorda, koreys tilidagi emotsional bo‘yoqdorlikka ega gaplardagi so‘z va grammatik qo‘shimchalarni o‘zbek tilida aynan ekvivalenti bor yoki yo‘qligi, tarjimada uning o‘rnini qanday grammatik qo‘shimcha yoki yuklama bosa olishi haqida tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** emotsiya, bo‘yoqdorlik, his-hayajon gap, undov so‘z, grammatik qo‘shimcha.

Hozirgi kunda g‘arb tillari bilan bir qatorda sharq tillarini o‘rganishga bo‘lgan talablar kundan kunga ortib bormoqda. Ushbu ilmiy maqola koreys tilining ajralmas qismi bo‘lgan his-hayajon gaplar va ularning grammatik xususiyatlariga, ya’ni koreys tilida emotsional bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan gaplarning tuzilishiga bag‘ishlangan. Ma’lumki, har bir tilda shu tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniyati, turmush tarzi va

qadriyatlari bevosita o‘z aksini topadi. Emotsional bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan gaplarni o‘z navbatida his-hayajon gaplar deb ham yuritiladi. Koreys tilida undovlar gap turlaridan biri sifatida o‘rganiladi. His-hayajon gaplar so‘zlashuv nutqida ko‘p ishlatiladi. Uning yordamida nutqimiz jonliligi, ishonchliligi ortadi, nutqdagi his-tuyg‘u bo‘yog‘ini beradi.

Boshqa tillardan farqli o‘laroq, koreys tilida so‘zlovchi hissiyotini ifodalashda undov so‘z va qo‘shimchalardan keng foydalaniladi. Boshqa tillarda bu hissiyotlar ifodasi so‘z yoki so‘z birikmasi tarzida berilishi mumkin. Natijada esa, tarjima jarayonida undov so‘z bilan ifodalanishi kerak bo‘lgan voqelik mazmuni qisman o‘zgaradi. Shu sababli koreys tilida undov gaplarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish masalasi bugungi kunda dolzarblik kasb etadi.

Koreys tilida gaplar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

- 1) Gapning ma’nosiga ko‘ra (darak gap, so‘roq gap, buyruq gap).
- 2) His-hayajon ishtirokiga ko‘ra (undov gap va undov bo‘lmagan gap).
- 3) Gap bo‘laklari ishtirokiga ko‘ra (bir bo‘lakli va ko‘p bo‘lakli)
- 4) Tuzilishiga ko‘ra (sodda va murakkab).

Boshqa tillarda bo‘lgani kabi koreys tilida ham undovlar ayrim so‘z sifatida ma’lum bir predmet yoki uning belgisini ifodalamaydi, balki his-hayajon kabi inson tuyg‘usining so‘zlarida bevosita in’ikosidir. Undovning ma’nosi ma’lum bir vaqt, sharoit va o‘rinda aniqlanadi. Shu jihatdan undovlar boshqa so‘zlardan ajralib turadi. Koreys tilidagi matnlarda undovlar quyidagi ma’nolarda qo‘llanishi mumkin:

1. Darak gap ma’nosida:

싱거운 일이다! - Ajoyib voqea bo‘ldi!

2. Buyruq gap ma’nosida:

얘, 위스키 병으로 가져와! - Hoy, viski olib kel!

3. So‘roq gap ma’nosida:

아세요! 노여십니다.- Bilasizmi?! Xafasiz.

이 집은 협착해서 어떡해살어! - Bu uy tor, qanday yashayman!

저놈들이 또기어 들어와! - Ana u yaramaslar yana tiqilib kirib keldimi-a?

4. Taklif gap ma'nosida:

나부터 하자!-Mendan boshlaylik!

Undov gaplar hissiyotni ifodalovchi grammatik qo'shimchalar orqali ham yasalishi mumkin. - 구나,-군(요),-규려,-아/어라,-누나,-노라,-도다, -야 kabi tugallanma qo'shimchalarni qabul qiladi. Undov gaplarning talaffuzi gapdagi kesimga qo'shilgan qo'shimchalar orqali hosil qilinadi. Koreyalik mashhur tilshunoslardan biri Li Mi Ji ning «한국어 감탄 표현 교육 연구» ( “ *Koreys tilida undov gaplarning ifodalanishi haqidagi tadqiqot* ” nomli ilmiy ishida ham koreys tilida qo'llaniladigan emotsional bo'yoqdorlikni beradigan grammatik qo'shimchalar haqida keng to'xtalib o'tilgan. Unda quyidagi grammatik qo'shimchalar berilib, har birining ma'nosi va qo'llanilish o'rni yoritib berilgan. Ritorik so'roq gaplarda ham undov so'zlarni kuzatishimiz mumkin. Ular quyidagicha ifoda etiladi:

이렇게 멋있

그런 말도 안 되는 경우가 있다니 !

이렇게 맛있을 수가 있나요 !

Izlanishlar natijasida quyidagicha xulosaga kelindi. Koreys tilida undov gaplar qurilishiga ko'ra ikki usul: undov so'zlar va ularni yasovchi qo'shimchalarga bo'linadi. Koreya urf-odatlar va tarixiga nazar solsak, ularda yosh va amal tushunchalari alohida o'rin egallaydi. Shu sababdan ham his-hayajon gaplar qurilishidagi qo'shimchalar yosh va amalning katta yoki kichigligiga qarab ishlatiladi. Bu esa koreys tilining o'ziga xos xususiyatidir. Ilmiy maqolada koreyalik mashhur tilshunos Li Mi Jining «한국어 감탄 표현 교육 연구» (“Koreys tilida undov gaplarning ifodalanishi haqidagi tadqiqot”) nomli ilmiy ishi ham sinchiklab o'rganib chiqilib, undagi emotsional bo'yoqdorlikka ega bo'lgan grammatik qo'shimchalar

maqolaga kiritildi. Bunda har bir grammatik qo‘shimchaning ma‘nosi, qo‘llanilishi va qay o‘rinda kelishi ko‘rib chiqildi. O‘zbek tilida aynan tarjimasi topilmasa, uni qanday boshqa so‘z bilan yoki yuklama bilan ifodalanishi mumkinligini izlab topishni talab etadi. Shunday ekan, kelajakda bu mavzuga chuqur to‘xtalib o‘tish va samarali izlanishlar olib borish lozim, degan xulosaga kelindi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):**

1. 이미지, «한국어 감탄 표현 교육 연구», 부산:부경대학교, 2014
2. D. Madaminova, “Koreys tilida undov gaplarning o‘ziga xos xususiyati”, Toshkent: 2014.
3. [https://namu.wiki/w/한국어의 문법 요소](https://namu.wiki/w/한국어의_문법_요소)
4. <https://en.dict.naver.com/#/main>
5. <http://library.ziyonet.uz/ru>
6. <https://uza.uz> › posts

## IMOM AL-BUXORIY VA MUSO AT-TERMIZIYNING MA’NAViy-AXLOQiy TARBIYAGA OID HADISLARI VA ULARNING MAZMUN MOHIYATI

**Fayzullayeva Gulnoza**

Buxoro davlat universtitetining Pedagogika Instituti  
pedagogika va psixologiya mutaxassisligi 2- bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada Imom al-Buxoriy va Muso at-Termiziyning ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid inson kamolotida hadislarning ta’limiy - tarbiyaviy ahamiyati, hadis namunalari va ularning mazmunmohiyati haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:**, inson kamoloti, odob-axloq, ta’lim-tarbiya, hadis, hadis ilmi, ma’naviy meros.

**KIRISH** Istiqlol sharofati bilan Buxoriyning o‘lmas merosi el-yurti bag‘riga qaytdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Imom Al-Buxoriy tavalludining hijriyqamariy taqvim bo‘yicha 1225 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori (1997-yil 29 aprel) asosida buxoriyning ilmiy merosining o‘rganish va targ‘ib qilish,xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. Buxoriyning boy ma’naviy merosining chuqur o‘rganish va keng targ‘ibqilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan Imom Al-Buxoriy xalqaro jamg‘armasi tuzildi.Jamg‘armaning asosiy vazifasi Qur’oni karim va Buxoriyning “al-Jomiy’ as-sahih” tarjimalarining akademik nashrlarni tayyorlash, buyuk islomshunoslar ilmiy merosini tadqiq etish,diniyfalsafiy mavzularda mavzularda anjumanlar o‘tkazish va shular yordamida yosh avlodni milliy an’analarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat.2000 yildan 14 boshlab mazkur jamg‘arma o‘zining ma’naviy-ma’rifiy,ilmiy –adabiy “Imom al-Buxoriy saboqlari” jurnalni nashr eta boshladi.Jurnal xalqimizni milliy- ma’naviy merosimizdan

bahramand etish, milliy, diniy qadryatlarning sog‘lom idrok etilishiga yordm berishni o‘zoldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish maqsadida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash. Prezident tashabbusi bilan 2019 yilda bu yerda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi hamda Hadis ilmi maktabi ham tashkil etilgan edi. “Imom al-Buxoriy hazratlari nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun musulmon olamining faxr-iftixoridir. Ul tabarruk zotning hayoti tom ma’nodagi, ilmiy va insoniy jasorat, bukilmas iroda va so‘nmas e’tiqod timsolidir” Shavkat Mirziyoyev. Shu o‘rinda, Oliy ta’lim muassasalarida talabalargalarga ta’lim berish jarayonida Buyuk mutaffakkirlarimiz shu jumladan Imom Al-Buxoriy va Muso at Termiziy ta’limotidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda Respublikamizda ta’lim - tarbiya masalalariga qaratilayotgan e’tibor yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Imom Al-Buxoriy ta’limoti insonning ma’naviy kamoloti mezoni, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallagani, o‘z bilimi bilan atrof dagilarga, jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs bo‘lib yetishishida muhim omil – chiroyli xulqli bo‘lish deb ko‘rsatiladi.

Imom al-Buxoriyning illatli hadislar haqidagi mulohazalari g‘oyat mutavoze’ va odob-axloq doirasida bo‘lib, munosabatlar «uni shunday qoldirganlar (tarakahu), «u tashlab ketilgan» (matruk), «tushirib qoldirilgan» (soqit), «bu haqda o‘zgacha bir fikr-mulohaza ham bor», «bu xususda avval o‘tganlar hech narsa demaganlar» va shunga o‘xshash beozor, oddiy va samimiy iboralardan tashkil topgan. Juda kamdankam hollarda imom al-Buxoriy biron odamga nisbatan «u ichidan o‘ylab chiqqan (uydirmachi)» yoki «kazzob» deyardi, illatli hadislar masalasida al-Buxoriy ishlatgan eng qattiq ayblov «hadisni inkor qiluvchi» («munkir al-hadis») degan ibora bo‘lardi. Hadis ilmida shu qoida odat tusiga kirdiki, agar imom al-Buxoriy biron roviy haqida «u – munkir al-hadis» desa, undan hech vaqt hadis rivoyat qilinmasdi. Bu xususda Ibn al-Qatton imom al-Buxoriyning ushbu so‘zlarini keltiradi: «U (al-Buxoriy) unga: 26



«Har qanday kishi haqida «u munkir al-hadis» degan bo‘lsam, bas, undan hech vaqt hadis rivoyat qilinmaydi», — degan. Hadislardagi noqisliklarga alohida e’tibor bergani kabi, imom al-Buxoriy roviylarning ibratli, go‘zal fazilatlarini urg‘ulab ko‘rsatishga ham katta ahamiyat bergan. Agar keltirgan rivoyatlari to‘g‘ri bo‘lsa, roviylarning haqiqiy tavsiflariyu adolatli ishlarini batafsil zikr qilgan.

**Muhammad ibn Iso at-Termiziy** tomonidan o‘ndan ortiq asarlar yaratilganligi ma’lum. Bular qatoridan “Al-jome’ as-sahih” (“Ishonchli to‘plam”), “Ash-shamoil an-nabaviya” (“Payg‘ambarning alohida fazilatlarini”), “Al-ilal fi-l-hadiys” (“Hadislardagi illatlar va og‘ishlar haqida”) kabi asarlari o‘rin olgan bo‘lib, ular juda mashhurdir. Muhammad ibn Iso at-Termiziy tomonidan yozib qoldirilgan asarlarda o‘z ifodasini topgan hadislar ham Imom Ismoil al-Buxoriy tomonidan bayon etilgan hadislar kabi insonni halollik, adolat, e’tiqod, diyonat, poklik, mehnatsevarlik, muruvvatlilik, mehr-shavqat, yoshi kattalar,, ota-ona va qarindoshlarga hurmat g‘oyalarini ilgari surish xususiyatiga ko‘ra shaxs ta’limi va tarbiyasini tashkil etishda katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim - tarbiya jarayonida hadislardan foydalanishning ilmiy-amaliy ahamiyati beqiyos bo‘lib, u shaxsning ma’naviyatini yuqori darajaga olib chiqadi. Undagi insoniy tuyg‘ularni kamol topib, ildiz otishida o‘ziga xos omil hisoblanadi. Hadisshunos olimlarning bu qarashlari bir necha asrlardan beri ajdodlarimiz tafakkurini boyitib kelmoqda. Shunga ko‘ra mutafakkirlarning o‘lmas merosi oilada bolalarning ma’naviy axloqiy tarbiyalashning muhim omili bo‘lib qoladi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Imom Al-Buxoriy-Muhaddislar Sultoni. . Xo‘jamuratov I.R. Islom, milliylik, qadriyat. Toshkent. 1993 y Azizxo‘jaeva N.N
2. F.Hasanov Manaviyat yulduzlari O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 2011,
3. Moziydan taralgan ziyo. Imom al Buxoriy, T., 1998;
4. Uvatov U., Imom alBuxoriy, T., 1998;
5. Madaminov S, Imom Buxoriy ta’rifi, T.,1996;
6. Imom alBuxoriy - muhaddislar sultoni[nashrga tayyorlovchilar Usmonhoji Temurxon o‘g‘li, Baxtiyor Nabixon ugli], T., 1998

## КОМПЛЕКСНЫЕ СОЕДИНЕНИЯ ПРОИЗВОДНЫХ ФТОРИРОВАННЫХ $\beta$ - ДИКЕТОНОВ С ПЕРЕХОДНЫМИ МЕТАЛЛАМИ

Кучкорова Раъно Расуловна

Припедовател к.х.н. ТГПУ. имени Низами


e-mail: [rano.qochqorova@bk.ru](mailto:rano.qochqorova@bk.ru)

### Аннотация

Исследование состава и строения вновь синтезированных соединений современными методами физико-химических исследований и направления реакция конденсации ароилтрифторацетилметанов с гидразидами кислот в зависимости от условий проведения реакции.





Ключевого слова: ароилтрифторацетилметанов, 1,1,1-трифторметил-4 (4хлорфенил) бутандиона -2,4, гидразиды, дикетонной форме, цис-енольной формой, таутомерия,  $\beta$  - дикетоны.

Выше было сказано, что продукты взаимодействия фторированных  $\beta$ -дикетонов с азотсодержащими нуклеофильными реагентами  $\beta$ -енамины являются потенциальными прототропными системами с различными таутомерными системами. Имин-енаминная таутомерия  $\beta$ -аминовинилкетон, возможность варьирования стерических свойств фторированных заместителей и их электронные эффекты позволили синтезировать, на их основе комплексные соединения различного типа со всевозможными способами координации лигандов к иону металла(104), Авторами этой работы описана структура ВКС[ $WOCl_3L^1$ ] ( $NL^1 = N$ -фенилацетилацетонимин), в котором лиганд координирован в депротонированной кетонаминной форме с замыканием шестичленного металлоцикла




В этой работе(104) приведены результаты синтеза N-монопроизводного β-аминовинилкетона и N-(4-бромфенил)-1,1,1-трифторацетилацетона(HL) и его комплекса  $WOCl_4 \cdot nH_2O$ . В молекуле (XXIII) реализуется кетоаминная форма, с локализацией кислотного протона при атоме азота, наличие ряда полос в ИК спектре свидетельствует о существовании сопряженных связей в молекуле лиганда. Электроакцепторная –группа обычно должна предотвращать поляризацию связи C=O и повысить частоту колебаний этой связи [1], но в спектре из-за наличия ВМВС частота колебаний кетонного фрагмента молекулы лиганда  $>N-H \dots O=C<$  отмечаются в виде широких полос около 3180 и ~3390 $cm^{-1}$ . В ИК спектре комплексного соединения  $WOCl_4 \cdot nH_2O$  валентные колебания  $\nu_{(N-H)}$  наблюдаются в области ~3320 $cm^{-1}$  что свидетельствует о сохранении ВМВС при комплексообразовании в координированной молекуле енамина. В целом на основании ИК спектроскопических исследований авторы утверждают, что в рассматриваемом комплексе  $WOCl_4 \cdot nH_2O$  атом вольфрама имеет октаэдрическую координационную сферу концевым оксоатомом, четырьмя атомами хлора и атомом кислорода карбонильной группы нейтральной молекулы лиганда [4]. Аналогичный тип координации β-аминовинилкетонот отмечался ранее авторами [8] в молекулярных комплексах диоксохлорида молибдена с N-фенил и N –гептилацетилацетонимидами [2] Проблема синтеза координационных соединений d- и f-переходных элементов в высоких степенях окисления решается путем применения фторидных соединений[6,7]. В настоящее время эти синтезы осуществляются в реакциях окислительного фторирования [9] с применением веществ, являющимися одновременно и фторирующими агентами и сильными окислителями. При выборе такого реагента ориентируются на термодинамику его диссоциации[7]. При этом авторы предполагают, что в механизме процесса существует стадия с участием атома фтора, являющимся наиболее мощным из известных фторокислителей. Активность фторирующих окислителей в тех или иных реакциях определяется их реакционной

способностью в конкретной взаимодействующей системе с точки зрения режимов процесса фторирования на реакциях низко- и высокотемпературного фторирования (103). Необходимо отметить, что эта классификация весьма условна, впрочем, как соответствующая ей граница. Реакции фторкислителей необходимо осуществлять в специальной аппаратуре из-за гигроскопичности реагентов и высокой реакционной способностью. Перемешивание суспензии осуществляли выделяющимися газами – криптоном и кислородом. Реакция протекает в соответствии со схемами:



Процесс проходит очень медленно, и выход образующегося фторида понижается в ряду : Pr → Nd → Sm → Eu → Gd → Tb → Dy → Er

Реакция KrF<sub>2</sub> с LnO<sub>2</sub> в безводном HF протекает по схеме:



Реакция KrF<sub>2</sub> с золотом в среде безводного HF при 20<sup>0</sup>C проходит по схеме и золото в присутствии KrF<sub>2</sub> быстро растворяется в HF .



Реакция XeF<sub>2</sub> с {MF+AgF<sub>2</sub>} (M=Na, K, Rb, Cs) протекает очень медленно (в течение 12-15 часов) с образованием MAg<sup>III</sup> F<sub>4</sub> в интервале 200-250<sup>0</sup>C. При мольном отношении Cs:Ag =2:1 и многократном измельчении промежуточных продуктов удается получить производное Ag(V) в виде смешанновалентного фторида состава Cs<sub>4</sub>Ag<sup>III</sup> AgVF<sub>12</sub>. Проведенные исследования по синтезу и изучению летучести и термостабильности β-дикетонатов ряда переходных и редкоземельных элементов (РЗЭ) показали, что наиболее перспективными соединениями для получения палладиевых, платиновых, никелевых и медных покрытий методом осаждения из газовой фазы являются фторированные β-дикетонаты этих металлов [8,9] Установлено, что летучесть и термическая

устойчивость β-дикетонатов металлов могут изменяться, в значительных пределах в зависимости от строения лиганда [3]. В отличие от комплексов палладия(II) при взаимодействии  $K_2[PdCl_4]$  с  $HF_3acac$  были выделены комплексные соединения: более летучая фракция  $[Pt(3Facac)_2]$ -хорошо растворимая в хлороформе, бензоле, гексане и менее летучая фракция  $[Pt(3Facac) \cdot H_2O]$ , которая в свою очередь хорошо растворима в хлороформе, хуже-в бензоле. Несмотря на большое сходство промежуточных комплексов  $[Pd(NH_3)_4]Cl_2$  и  $[Pt(NH_3)_4]Cl_2$  в отличие от первого –лабильного комплекса Pd (II) в случае кинетически инертных комплексов Pt (II) замещение координированного аммиака на другого лиганда очень затруднено.

| Соединение         | Выход | Т. плав. °С | Найдено, % |       |      |      | Брутто формула              | Вычислено, % |       |      |       |
|--------------------|-------|-------------|------------|-------|------|------|-----------------------------|--------------|-------|------|-------|
|                    |       |             | Ni(II)     | C     | H    | N    |                             | Ni(II)       | C     | H    | N     |
| $NiL^1 \cdot NH^3$ | 80    | 141-143     | 14,01      | 49,07 | 2,28 | 9,79 | $NiC_{17}H_{14}N_3O_2F_3$   | 14,39        | 50,04 | 3,46 | 10,30 |
| $NiL^2 \cdot NH^3$ | 65    | 151-152     | 13,70      | 51,09 | 3,51 | 9,73 | $NiC_{18}H_{16}N_3O_2F_3$   | 13,90        | 51,26 | 3,66 | 9,95  |
| $NiL^3 \cdot NH^3$ | 69    | 156-157     | 12,85      | 48,96 | 3,15 | 9,31 | $NiC_{18}H_{16}N_3O_3F_3$   | 13,40        | 49,35 | 3,68 | 9,60  |
| $NiL^4 \cdot NH^3$ | 86    | 105-106     | 13,17      | 46,05 | 2,65 | 9,24 | $NiC_{17}H_{13}N_3O_2ClF_3$ | 13,26        | 46,14 | 2,96 | 9,50  |
| $NiL^5 \cdot NH^3$ | 36    | 229-230     | 11,93      | 41,40 | 2,13 | 8,03 | $NiC_{17}H_{13}N_3O_2BrF_3$ | 12,04        | 41,93 | 2,70 | 8,63  |

Использовано вместе аммиака уксуснокислого натрия позволило провести реакцию в нейтральной среде [3]. Летучесть хелатов фторсодержащих β-дикетонов объясняется тем, что большая электроотрицательность атомов фтора приводит к нарушению плотной упаковки кристаллической решетки комплекса и ослаблению межмолекулярных связей [3]. Выходы и результаты элементного анализа комплексных соединений никеля(II) строения (XLIV) на основе бензилгидразонов ароилтрифторацетилметанов

### Список использованной литературы

1. Ацилгидразоны и их комплексы с переходными металлами / Парпиев Н.А., Юсупов В.Г., Якимович С.И., Шарипов Х.Т. Ташкент, Фан.-1988. 161с.
2. Кристаллохимия комплексов металлов с гидразидами и гидразонами / Тошев М.Т., Юсупов В.Г., Дустов Х.Б., Парпиев Н.А., Ташкент, Фан.-1994. 266с.
3. Умаров Б.Б. Комплексные соединения некоторых переходных металлов с бис-5-оксипиразолинами: Дис. ... докт. хим. наук.-Ташкент: ИУ АН РУз. 1996.-350с.
4. Салоутин В.И., Бургарт Я.В., Чупахин О.Н., Фторсодержащие 2,4-диоксикислоты в синтезе гетероциклических соединений.-Успехи химии.-Москва, 1999.-Т.68.-№ 3.-С.227-239
5. Зеленцов В.В., Суворов К.М., Олиго-и полиядерные хелаты металлов с –дикетонами, замещенными о-оксиальдегидами и их азометиновыми производными. В кн.: Теоретическая и прикладная химия β-дикетонов металлов. М.: Наука, 1985.-С.25-35.
6. Топилова З.М., Герасименко Г.И., Кудрявцева А.С., Лозинский М.О., Машкова С.Б. Комплексообразование ионов лантаноидов с бензоильными производными фторированных β-дикетонов // Коорд. химия.-Москва, 1990.-Т.16.-№10.-С.1427-1432.
7. Киселева Ю.М. Окислительное фторирование соединений переходных элементов// Коорд. химия.-Москва, 1997.-Т.23.-№2.-С.83-91.
8. Сергиенко В.С., Абраменко В.А., Илюхин А.Б. Синтез, ИК спектры и кристаллическая структура N-(4-бромфенил)-1,1,1-трифторацетилацетонимина  $\text{HN}(\text{C}_6\text{H}_4\text{Br})\cdot\text{C}(\text{Me})\cdot\text{CH}\cdot\text{C}(\text{CF}_3)\cdot\text{O}(\text{HL})$  и его молекулярного комплекса с оксотетрахлоридом вольфрама (IV)  $\text{WOCl}_4\cdot\text{HL}$ // Неорг. химия.-Москва, 1997.-Т.42.-№6.-С.945-951.
9. Кучкарова Р.Р., Умаров Б.Б., Якимович С.И., Зерова И.В., Абдурахмонов С.Ф., Эргашева Н.М., Мардонов У.М., Парпиев Н.А. Региоспецифичность

реакции конденсации фторированных  $\beta$ -дикетонов с бензоилгидразидом / Академик С.Ю. Юнусов хотирасига багишланган ёш олимлар илмий анжуманининг дастури ва маърузаларининг кискача мазмуни.-УзР ФА УМКИ.-2004 йил 18-19 март.-Тошкент.2004.-17-бет.

10. Умаров Б.Б., Кучкарова Р.Р., Авезов К.Г., Якимович С.И., Зерова И.В., Парпиев Н.А., Убайдуллаева М.А. Синтез и исследование строения ацилгидразонов ароилтрифторацетилметанов // Материалы V Республиканской конференции молодых химиков”Проблемы биоорганической химии”.-НамГУ.-24-25ноября 2006.-Наманган,2006.-С.7



## KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA O‘QUV FAOLIYATI MOTIVATSIYASINI OSHIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI

**Mahmanova Muhayyo Abdurasul qizi**

Nurobod tuman 61-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kichik maktab yosh davrining o‘ziga xos xususiyatlari, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘quv faoliyati motivatsiyasini oshirishning samarali yo‘llari to‘g‘risida ma’lumotlar yoritilgan.

**Аннотация.** В данной статье освещена информация об особенностях периода младшего школьного возраста, эффективных путях повышения мотивации учебной деятельности у учащихся младшего школьного возраста.

**Abstract.** This article highlights information about the peculiarities of the period of primary school age, effective ways to increase the motivation of educational activities among primary school age students.

Maktab ostonasiga qadam qo‘yish bola hayotida yangi yosh davriga asos bo‘ladi. Bu yosh davri 6-7 yoshdan boshlab to 9-10 yoshgacha davom etadi. Bu davrlar oralig‘ida bolaning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idroki o‘tkirli, ravshanligi, aniqligi, o‘zinig qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, hayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurning yaqqolli bilan boshqa yosh davrlaridan ajralib turadi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar, ayniqsa 1-2-sinflarda hali nutqni yaxshi egallamagan bo‘ladilar, shuning uchun ularga mavzuning umumiy ma’nosini o‘z so‘zlari bilan tushunarli qilib aytib berish kerak bo‘ladi. Bolalarni ko‘p yozish bilan ham charchatib qo‘yish kerak emas, chunki hali ular qo‘l barmoqlarini aniq harakat qildirishga qiynaladilar. Tovushlarni talaffuz qilishida ham ular bilan alohida shug‘ullanish, nutqida nuqsoni bor o‘quvchilar bilan alohida mashg‘ulotlar olib borishi lozim. Bolaning birinchi marta maktabga borishi,

yangi sinfxona, yangi o‘qituvchilar-u o‘quvchilar hamda yangi muhit. Bularning barchasi hayotga mustaqil qadam qo‘yishning ilk ko‘rinishidir. Bolada hali maktabga bormasdan oldin oila davrasida, bog‘chada maktab haqida havas kurtakalari gullay boshlaydi.

Birinchi Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, «...kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi, farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq». Darhaqiqat, har tomonlama barkamol, jismonan sog‘lom, ma`nan yetuk mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashda boshlang‘ich sinflarda beriladigan ta`lim-tarbiyaning roli beqiyosdir. Chunki o‘quvchi kelajakda qaysi kasbni tanlashi, hayotda qanday inson bo‘lishiga oid bilim, ko‘nikma, malakalarga poydevor xuddi shu boshlang‘ich sinflarda qo‘yiladi. Bolaning bog‘cha bilan xayrlashib, maktab ostonasiga qadam qo‘yishi, maktabda bilim olishdan tashqari «maktab o‘quvchisi» degan maqomga sazovor bo‘lganligi ular uchun katta yangilikdir. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar kattalar va tengdoshlar bilan yangi munosabatlar maydoniga keladi, jamoaga qo‘shiladi, o‘qituvchi tomonidan qo‘yiladigan talablarni bosqichma bosqich bajaradi, maktab ichki qonun-qoidalariga amal qiladi. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilar uchun o‘qituvchisining gapi, har bir xatti-harakati, aytgan ma’lumotlari haqiqat mezoni vazifasini bajaradi. Aynan shuning uchun ham kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning muhim xususiyati- o‘qituvchisiga ishonch hamda yuksak ehtiromdir.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni o‘qishga nisbatan qiziqishini amalga oshirishda ko‘proq o‘yin faoliyatidan foydalaniladi. O‘qish faoliyati uchun oson, samarali va tushunarli tashkil qilingan o‘yin orqali o‘quvchilarda bilim olishga, o‘qib o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyoj ortib boradi. Darsda ko‘proq o‘yin tashkil qilishning asosiy tamoyillari shundan iboratki, unda bolaning ijodiy havaskorligi, jamoaviy hamkorligi, muloqoti, tezkorligi faollashadi. Lekin bu o‘yin faoliyati bolalarni jismonan toliqtirib qo‘ymasligi lozim va albatta o‘yin so‘nggida ishtirok etgan, faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantirilib borishi shart. «Barakalla», «Ofarin», «A`lo darajada bajarding» kabi so‘zlar bolaning ertangi darsga ham bo‘lgan

qiziqishi va ishtiyoqini oshiradi. Ma`lumki o`quvchilarning psixologik xususiyatlari har xil bo`lib, bir o`quvchiga ko`p muvaffaqiyat bilan qo`llangan tarbiyaviy ta`sir vositasi boshqa biriga qo`llanilganda kutilgan natijani bermasligi mumkin. Tarbiyaviy tadbirlar o`quvchilarga yakkama yakka, individual yondashgan holda amalga oshirilsa yaxshiroq samaraga erishilishi shubhasizdir.

O`quvchilarda o`quv motivatsiyasini oshirishda ota-onalar, maktab pedagog-psixologlari ham tinimsiz harakatda bo`lishi, farzandlari bilan ko`proq vaqt o`tkazishi, samimiy, mehribon bo`lishi, qalban yaqin bo`lib ularning qiziqishlari, o`qishda bo`layotgan muammolari yechimini birga topishlari, qo`llab quvvatlashlari kerak. Ular eng avvalo o`quvchilarga kichkina bola emas, qadamma qadam o`sib borayotgan shaxs sifatida qarashlari, ularga har bir bajarmoqchi bo`lgan ishlarida motivatsiya berib ruhlantirib turishi zarur. Motivatsiya bu- biror narsaga intilish, maqsad sari harakatga undovchi, kuch bag`ishlovchi so`zlardir. O`quvchilar boshlang`ich sinflarda maqtov eshitishga, ko`proq a`lo baholar olishga qiziqishadi. Agar bola maktabga borishni, dars qilishni xohlamasa, qiziqmasa unga ota-ona, o`qituvchi tomonidan motivatsiya yetarli emas, rag`batlantirish kam. O`quvchilarning olgan baholariga kattalarning munosabati ham ularning o`qishiga muayyan darajada ta`sir ko`rsatadi. Ta`lim jarayonida o`quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni tekshirib nazorat qilish o`quvchini o`qishga bo`lgan qiziqishini oshiradi va o`qish faoliyati motivlari kuchayadi. Jamiyatimizda qobiliyatsiz, iqtidorsiz bolaning o`zi yo`q. Faqatgina shu iqtidorlarini amalda ko`rsatishiga sharoit yaratib, ko`maklashib, to`g`ri yo`nalish berib tursak kifoya. Bu o`rinda o`quvchilarga «senga ishonaman», «sen buni uddalaysan», «harakat qil» kabi tirgak, kuch bag`ishlovchi so`zlar bo`lsa kifoya. Shular orqali bolada o`ziga ishonchini ortishi, muammolarni hal qilishi, faol harakati paydo bo`ladi. O`qishning birinchi kunlarida bolalar darsga juda ham qiziqadi. Qo`l ko`tarib savollarga birinchi javob berish, topshiriqni eng birinchi bo`lib bajarib ustozidan yaxshi baho olish, she`r aytish, rasm chizish, sinfdshlaridan ko`proq baho olish, o`quvchilar orasida maqtov eshitish kabilar bolalarga juda yoqadi. Lekin ko`p baho qo`yishning ham ba`zi kamchiliklari bor. Bu holatda bola faqat baho uchungina o`qib

qolishi va shu o‘rinda bilimning ijobiy ahamiyati pasayib qolishi mumkin. Shuning uchun o‘quvchilarning bilim darajasini tekshirib turishning boshqa usullaridan ham foyalanib turiladi. Dars davomida bolalar bilan mavzuga oid treninglar, metodlar, o‘yinlar olib boriladi. Bularning barchasi o‘quvchilarni mavzuni yaxshi o‘zlashtirish, o‘tilgan darslarni takrorlab mustahkamlab turish, darsga qiziqtirish, zerikib qolishga yo‘l qo‘ymaslik, yaxshi kayfiyat uyg‘otish, oson va tushunarli qilib mavzuni o‘rgatishning, o‘quvchilarning eslab qolish qobiliyatining eng samarali usullari hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kichik maktab yosh davri shaxs shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarining kelajagidan umidvor bo‘lgan jamiyat bu jarayonga faol aralashishi, sharoit yaratib berishi kerak. Niholni o‘tqazib unga chin ko‘ngildan yaxshi parvarish bersa, unib o‘sishiga yaxshi muhit va unumdor yer bo‘lsa undan o‘zi kutgan hosilni olishi mumkin. Bola ham xuddi shunday. Unga yaxshi e‘tibor qaratilsa, mehr berilsa, tartib intizomli jamoada, tinch muhitda tarbiyalanib borsa biz kutgan har tomonlama yetuk avlod bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat -yengilmas kuch. «Ma`naviyat» 2008
2. Davletshin M.G., Do‘stmammedova Sh.A. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O‘quv qo‘llanma 2009
3. Sherimbetova Z.Sh. Boshlang‘ich sinflarda o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarning psixologik xususiyati. O‘zMU 2007

## БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИСИНИНГ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ

**Саидова Нигора Олимовна**

ФарДУ, Мактабгача таълим кафедраси ўқитувчиси

### АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада бошланғич синф ўқитувчисининг касбий компетентлигини таркибий қисмлари ва уларга қиска таърифлар, ҳамда ўқувчининг касбий компетентлигини ривожлантириш мазмуни ёритиб берилган.

**Калит сўзлар:** Ўқитувчининг компетентлиги, шахсий компонент, когнитив компонент, фаолият компоненти, ахборот – коммуникацион компетентлиги.

Ўзбекистон Республикасининг таълимини модернизация қилиш компетенция ёндашуви мантиғида касбий ва умумий таълим тизимидаги ўзгаришларни ўз ичига олади. Ундан ташқари Ўзбекистон Республикасининг олий таълимини модернизациялаш Концепциясига мувофиқ, олий таълимнинг асосий вазифалари: меҳнат бозорида рақобатбардош, малакали, масъулиятли, ўз касбини яхши биладиган, мутахассислик бўйича жаҳон стандартлари даражасида самарали ишлай оладиган малакали ўқитувчини тайёрлашдан иборат.

Таълимни модернизация қилиш нуқтаи назаридан тегишли фаолият йўналишлари орасида сифат жиҳатидан замонавий ўқитувчиларни тайёрлаш зарурати кўриб чиқилади, бу ихтисослаштирилган адабиётларни кўриб чиқиш билан тасдиқланади. Бўлажак ўқитувчиларнинг компетентлигини шакллантиришнинг турли йўналишлари бўйича тадқиқотлар олиб борилмоқда, мамлакатимизда ва чет элларда ўқитувчининг касбий фаолияти мазмунини ўрганиш бўйича ишлар олиб борилмоқда.

Компетентлик тушунчасининг таҳлил қилиш ўқитувчининг компетентлигини қуйидаги таркибий қисмларини аниқлашга имкон берди:

Шахсий компонент - семантик йўналиш, ҳаёт тарзини танлаш эркинлик ва масъулият ҳисси, педагогик фаолиятга қизиқиш ва ўз-ўзини ривожлантириш; фаолият натижасидан қониқиш (касбий-педагогик, субъектив-ижодий); педагогик фаолиятнинг ижобий мотивацияси.

Когнитив компонент: педагогик фаолиятнинг моҳияти, тузилиши, хусусиятлари ҳақида; талабалар ўзаро таъсир объектлари ва субъектлари сифатида билим олиш жараёни.

Фаолият компоненти-умумий педагогик кўникмалар (когнитив, конструктив, коммуникатив ва бошқалар.); касбий ривожланиш муваффақиятини белгиловчи кўникмалар (педагогик вазиятни таҳлил қилиш, амалга оширилган фаолиятни рефлексиялаш, эришилган натижаларни режалаштирилган мақсад билан таққослаш қобилияти).

Юқорида биз томонимиздан “компетенция” ва “компетентлик” тушунчалари таҳлил қилиниб компетенциялар компетентликни таркибий қисми эканлиги ва уларнинг ҳар бири маълум бир фаолият тури билан боғлиқлиги ҳақида фикр берилиб ўтилган. Масалан, ўқитувчининг касбий компетентлиги кўплаб компетенцияларни ўз ичига олади, улардан бири ўқитувчининг ўқув жараёнида компьютер дастурларидан фойдаланиш қобилияти мисол қилиш мумкин. Агар фаолият тури мустақил касбий аҳамиятга эга бўлса, алоҳида компетенцияни компетентлик сифатида ифодалаш мумкин.

Таъкидлаб ўтилганидек, компьютер технологиялари, ахборот технологиялари ва рақамли технологияларни ривожлантиришнинг замонавий тенденциялари биринчи навбатда амалий ва касбий вазифаларни ҳал қилишга, турли жараёнларга, шу жумладан таълим жараёнига “хизмат кўрсатишга” қаратилган.

Ҳозирги кунга келиб компьютер технологияларидан (Internet, электрон почта, форумлар, онлайн-конференциялар ва бошқалар) фойдаланишнинг алоқа тизмини мустақкамлаш натижасида, янги атама “ахборот – коммуникатив технологиялари” шакилланган. Шунинг учун ҳам ахборот компетентликни ахборот – коммуникатив компетентликга трансформациялаш (айлантириш) керак.

Шундай қилиб, ўқитувчининг ахборот – коммуникатив компетентлиги, бизнинг тушунишимизга кўра, касбий ва педагогик компетенциянинг бир қисми сифати ўрганишимиз мумкин; бу ўқитувчининг ажралмас касбий ва шахсий сифати бўлиб, унинг билим, кўникма ва қобилиятлари, фаолият усуллари, ОТМда ўқитиш жараёнида олинган тажриба ва кейинги касбий фаолиятга асосланган қобилиятлари ва тайёрлигида намоён бўлади; бу ўқитувчига тегишли бўлган компетенциялар тўплами бўлиб, унга пайдо бўлган муаммони баҳолаш ва АКТдан фойдаланган ҳолда уни ҳал қилиш имконини беради.

Ахборот – коммуникатив компетентлиги мазмунига қуйидагиларни киритиш мумкин: жамиятни ахборотлаштиришнинг ривожланиши ва ундан сифатли фойдаланиш; информатика фанининг усул ва воситаларини эгаллаш; компьютер, АРМ манбаларидан фойдаланиш саводхонлиги; умуман дунёда ва хусусан ўз фаолиятида ахборотлаштириш жараёнининг ўзига хос хусусиятларини билиш; ахборотлаштиришнинг ҳуқуқий соҳасидаги йўналиш, муаллифлик ҳуқуқи, сўз эркинлиги, шахснинг ахборот хавфсизлиги; замонавий ахборот ресурсларининг табиати ва хусусиятларини тушуниш; турли хил оммавий ахборот воситаларини декодлаш имкониятлари, маълумотларни йиғиш, тизимлаштириш, сақлаш ва қидиришнинг анъанавий воситаларининг афзалликлари ва камчиликлари ҳақида тасавур; замонавий ахборот технологияларидан фойдалана олиш; уларнинг компьютер саводхонлигини доимий равишда ошириб боришга интилиш; ахборот билан ўзаро алоқада бўлиш, ахборот алмашинувида рефлексив муносабатларнинг шакллантириш; ахборот – коммуникатив фаолиятига қизиқиш; ахборот алмашинув манбаларини онгли

равишда танлаш; анъанавий, электрон, тармоқ ва бошқа ахборот ресурсларидан комплекс фойдаланишда уларни қайта ишлаш алгоритмларини билиш; ўзини ташувчи, тарқатувчи ва ахборот алмашиш субъекти сифатида англаш; телематика воситалари, глобал ва маҳаллий ахборот-ҳисоблаш тармоқларидан фойдаланиш; инсоннинг рамзлар ва белгилар тизими сифатида дунёнинг ахборот – коммуникатив манзарасини англаш ва ўзлаштириш қобилияти, тўғридан тўғри ёки иккиламчи алоқалар ўрнатиш, ахборот жамиятини эркин бошқариш, унга мослашиш ва бошқалар.

